

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
O.NAZAROV

MONOGRAFIYA



O'zbekistonda ommaviy jamoalashtirishning o'tkazilishi va uning
oqibatlari (jarayon va ziddiyat)

KBK 63.(5 o‘zb)

UO‘K: 94(574)

N- 18

O.Nazarov

**O‘zbekistonda ommaviy jamoalashtirishning o‘tkazilishi va uning
oqibatlari (jarayon va ziddiyat)**

Mazkur monografiyada o‘zbek xalqi tarixida asoratli voqealarni qoldirgan ommaviy jamoalashtirish davri ittifoq tasarrufidagi respublikalar qatori O‘zbekiston xalqi tarixiy taqdirida ayanchli va sezilarli muammolarni qoldirgan davr haqidagi ma’lumotlar o‘rin olgan. Chunki xalqimizning qariyb chorak kam bir asrlik siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti mazkur tarixiy jarayon bilan mustahkam bog‘liq bo‘lgan davr hisoblanadi.

Shu sababli ishda jamiyat taraqqiyotining real qonuniyatlarini churqur o‘rganish zarurligi, milliy tarixdagi yuksalish va tanglik davrlarini yangicha metodologik nuqtai nazardan turib tahlil qilishga e’tibor qaratilgan. Ana shu muhim ijtimoiy vazifalardan kelib chiqib, monografiyada vatanimiz tarixining og‘ir mustamlakachilik o‘tmishi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni bugungi kun nuqtai nazaridan qayta tahlil qilishga harakat qilingan.

Shu bois, mazkur monografiya talabalar uchun ijtimoiy-gumanitar fanlarda xususan “O‘zbekiston tarixi”, “Jahon tarixi”, “Falsafa” fanlaridan dars berish jumladan hamda magistrlar, tadqiqotchilar, shuningdek, jamoalashtirish tarixi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharir:

M.T.Xodjiyev -T.f.d. prof

Taqrizchilar: A.Biykuziyev-PhD

S.Qudratov-dotsent

Mazkur monografiya Guliston davlat universiteti Kengashining

2022-yil 31-martdagи 8 - sonli qaroriga asosan chop etildi.

**Aziz dadam Nazarov Raxim
va mehribon onam Jibak Nazarovalarning
yorqin xotiralariga bag'ishlayman.**

So'z boshi o'rnida

Umrni yuguruk suvgaga qiyoslashadi. Darhaqiqat, yaqindagina yosh bola edik. Dalada mol-ko'y boqib, tengqurlar bilan yurardik. Kun juda uzun tuyulardi. Birpasda 60 yoshni qoralabman. Endi kunlarni qanday tez o'tayotganligidan hayratlanaman. Tong otadi va birpasda kun botadi. Umrining salkam 40 yilini ilmga bag'ishlabman. O'z faoliyatimni tarixchi sifatida dastlab jamoalashtirish davriga bo'lgan qiziqishim boiz, Farg'ona va Toshkent viloyatlari misolida bu ikki hududda amalga oshirilgan "tazyiq" va "siquv"lar jarayonida kechgan ommaviy jamoalashtirish masalasini bugungi kun nuqtai nazaridan xolisona tariximizdagi "oq dog'lar"ni qayta tahlil etish davr talabi ekanligi bois bu davrga e'tibor qaratishni lozim topdim. Chunki, mustaqillik yillarida, mustamlaka o'tmishning haqqoni solnomasini yaratish sohasida muayyan ishlarni va xulosalarni amalga oshirish davr talabi ekanligi, tarixdan malumki, o'zbek xalqi tarixida asarotli voqealarni qoldirgan ommaviy jamoalashtirish Sobiq Ittifoq Respublikalari qatori O'zbekiston xalqi tarixi taqdirida ayanchli va sezilarli asoratlarni qoldirgan davr hisoblanadi. Shu sababli, ommaviy jamoalashtirishning va jamiyat taraqqiyotning real qonuniyatlarini chuqr o'rganish zarurligi, milliy tariximizdagi yuksalish va tanglik davrlarini yangicha metodologik nuqtayi nazardan turib tahlil qilish, avvalgi mafkuraviy va eskicha tafakkur ko'rinishlarning takrorlanishiga barham berish yo'llarini belgilsh, jamiyatning ma'naviy axloqiy takomiliga erishuvida tarix fanining ta'sirini kuchaytirish zarurligini inobatga olgan holda tahlil qilish, muhim vazifalardan biri ekanligi diqqatimni tortdi. Chunki hozirda bu masalalarni o'rganishga qiziqish va ehtiyojlar ham ortib bormoqda. Ko'p yillik tadqiqotlarim natijasi o'laroq yurtimizda ommaviy jamoalashtirish zo'rovonlik bilan ya'ni tabiiy sharoit muhitni inobatga olmaslik oqibatida dehqonlarning asrlar davomida shakllangan turmush tarzining buzilishiga, dehqonlar ishlab chiqaruvchi sifatida buzilib, ular o'zga shaxslar xohish-istiklarini bajaruvchi kuchga aylantirilishi, yerdan begonalashuvi natijasida

dehqonlar yer egalik qilish xissini yo'qota boshlaganliklari asrlar davomida ishlab chiqilgan va mustahkamlangan mehnatsevarlik hislatlarini so'nishiga sabab va oqibatlarini tahlil qilishga e'tibor qaratdim. Eng asosiysi tarixdan ma'lumki, ommaviy jamoalashtirish "Yuqoridan qilingan inqilob" dan meros bo'lib qolgan eng og'ir kulfat bo'lib, yerning haqiqiy egasini yo'qolishiga va mehnatkash insonlarning ommaviy jamoalashtirish davridagi muammolarining asl sabablarini va oqibatlarini chuqurroq ilmiy tahlil etish keyingi ilmiy izlanishlarimda e'tibor qaratishni lozim topdim. Chunki ommaviy jamoalashtirish davrida tuzumga bo'lgan xalq noroziliklari begunoh insonlarning o'zga yurtlarga qatag'on qilinishi natijasida xalqimizning o'z mehnatiga va kasbiy mahoratiga munosabatlarining susaya borish holatlariga sabab bo'lgan omillar bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Yuqoridagi holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan sabablardan biri hukmron mafkura va fanning partiyaviyligi hisoblanib, bu jarayonning mazmun-mohiyatini qayta ko'rib chiqish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Umuman, 60 yosh - insonning hayoti davomidagi ortga bir nazar soladigan yosh shekilli. Bugun menda ilmiy ishlarimni bir tartibga solib, ularni qaytadan ko'rib chiqishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Aynan shu sabab, ushbu kitobni sizlarning e'tiboringizga havola etishga jazm qildim.

Kirish

Tarixdan ma'lumki, O'zbek xalqi tarixida asoratlari voqealarni qoldirgan ommaviy jamoalashtirish davri ittifoq tasarrufidagi respublikalar qatori O'zbekiston xalqi tarixiy taqdirida ayanchli va sezilarli asoratlarni qoldirgan davr sanaladi. Chunki xalqimizning qariyb chorak kam bir asrlik siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti mazkur tarixiy jarayon bilan mustahkam bog'liq bo'lgan davrdir.

Shu sababli, jamiyat taraqqiyotining real qonuniyatlarini chuqur o'rganish zarurligi, milliy tarixdagi yuksalish va tanglik davrlarini yangicha metodologik nuqtai nazaridan turib tahlil qilish, sovet mustamlakachilik tuzimining ko'rsatgan buzg'unchilik ta'siriga doir omillarini aniqlash, avvalgi mafkuraviy andozalar va eskicha tafakkur ko'rinishlarining takrorlanishiga barham berish yo'llarini belgilash, jamiyatning ma'naviy-axloqiy takomilga erishuvida tarix fanining ta'sirini kuchaytirish zarurligini inobatga olgan holda tahlil qilish muhim vazifalardan biri ekanligi monografiyada e'tiborga olingan.

Ana shu muhim ijtimoiy vazifalardan kelib chiqib, monografiyada vatanimiz tarixining og'ir mastamlakachilik o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan sahifalarda bugungi kun nuqtai nazaridan qayta baho berish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ularga murojaat qilishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarning ilmiy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, sovet hokimiyati yillarda o'tkazilgan diktatorlik siyosati oqibatida sovet hukmronligi davri tarixi nihoyatda soxtalashtirilgan holda buzib ko'rsatildi. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlari mustamlaka o'tmishning haqqoniy solnomasini yaratish sohasida muayyan ishlarni amalga oshirdilar. Mustamlakachilik zo'ravonligi davri tarixi ko'p jihatdan hali "oq dog'lar" va "qora o'pirilishlar" bilan ajralib turadi. Shu jumladan sovet hukumatining O'zbekistonda amalga oshirilgan qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish bu siyosat natijasida qo'llanilgan qishloq aholisiga nisbatan qo'llanilgan zo'ravonlik, aniqrog'i "qatag'onchilik siyosati" masalalari ham taaluqli ma'lumotlar tahlili keng yoritilgan.

Ayniqsa, O'zbekistonda 1929-1932 yillarda amalga oshirilgan yoppasiga kollektivlashtirish siyosati va u bilan bog'liq muammolar yaqin davrgacha to'la o'rganilgan deb kelindi. Biroq, bugungi kunda respublikamizda sovet davri tarixini

har taraflama, haqqoniy o‘rganish natijasida qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish siyosati va amaliyoti ta’rifining bizga qorong‘u bo‘lib kelgan qator muammo va masalalari namoyon bo‘lmoqdaki, ularni bugungi kun talablari bo‘yicha har taraflama ham ijobjiy, ham salbiy xususiyatlari bo‘yicha o‘rganish, tahlil qilish, nazariy xulosalar chiqarishga e’tibor qaratilgan va ishda o‘z tasdig‘ini topgan.

Mustabid tuzum qulaganidan keyingina mazkur hujjatlaridan foydalanish imkoniyati yuzaga keldiki, bu hol kollektivlashtirish tarixiga tamoman boshqacha nuqtai nazardan baho berishni kun tartibiga chiqarib qo‘ydi. Mustaqillik yillarida vatanimiz siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotida buyuk o‘zgarishlar yuz berib, tariximizning 1930-yillar voqealarini yangicha mushohada etish, baholash, tanqidiy o‘rganish, xolisona yoritishi sari qadam tashlanmoqda. Bu masalalarni o‘rganishga qiziqish va ehtiyojlar ham ortib bormoqda.

Chunki, O‘zbekistonda sovetlar tomonidan amalga oshirilgan qishloq xo‘jaligini yoppasiga kollektivlashtirish, qulqlarni sinf sifatida tugatish siyosati va bu bilan bog‘liq masalalar uzoq yillar davomida faqat bir taraflama, kommunistik mafkura talablari bo‘yicha yoritildi. Bu masalaning bir qator ziddiyati, salbiy holatlari yashirib o‘tildi yoki soxtalashtirib talqin qilindi. Aynan shu muammolarni xolisona o‘rganishga ham monografiyada ahamiyat berilgan.

Shuningdek monografiyada kollektivlashtirish davrida bu siyosatdan norozi bo‘lgan dehqonlar asossiz ravishda jazo organlarining tazyiqiga va zo‘ravonligiga uchradilar. Mustabid tuzum o‘z fuqarolariga qarshi ommaviy jazo – repressiv choralarни keng qo‘llaganligi, oqibatda qishloq aholisining asrlar mobaynida shakllangan urf-odat, qadriyatları va insoniylik huquqi qo‘pol ravishda toptaldi. Jazo organlarining qatag‘on amaliyoti natijasida o‘zbek qishlog‘ida xos bo‘lgan tadbirkorlik, mulkka egalik, mehnatdan manfaatdorlik hissi kabi qadriyatlar bo‘g‘ib qo‘yilishi va yo‘q qilinishiga oid ma’lumotlar tahlili berilgan.

Va nihoyat, monografiyada kollektivlashtirish va qulqlashtirish jarayonidagi sovet jazo organlarining tutgan o‘rni va rolini haqqoniy va har taraflama o‘rganish orqali sovet tuzimining asl qiyofasini ochib berishga, yaqin o‘tmishimizda yuz bergen mudhish fojealarmi mushohada qilish orqali milliy o‘zligimizni anglab etishga hamda

o‘tmish saboqlaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishimizga oid xulosalar ishda o‘z aksini topgan.

Ma’lumki, sovet hukumatining qishloq xo‘jaligini yoppasiga kollektivlashtirish va “quloqlar sinf sifatida tugatish” siyosati boshlang‘ich davrdanoq zo‘ravonlik bilan amalga oshirila boshlagan. Kollektivlashtirish harakati bolsheviklar hukumatiga xos bo‘lgan “inqilobiy” shiddat bilan, xalq ommasiga nisbatan zo‘rlik va qatag‘on usullarini keng qo‘llagan holda o‘tkazila boshlandi.

O‘zbekistonda sovet hukumi tomonidan amalga oshirilgan qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish va quloqlashtirish siyosati boshlang‘ichidan qishloq aholisiga nisbatan zo‘ravonlik qilish vositasida olib borildi. Dehqonlarni kolxozlarga majburan kiritish uchun ularga nisbatan zo‘rlik ishlatildi va qatag‘onlarning turli vositalari ishga solindi.

Sovet hukumi kollektivlashtirishni amalga oshirishda “sinfiy kurash” degan aqidani ishga solib, o‘ziga to‘q va tadbirkor dehqonlar qatlamiga nisbatan urush e’lon qildi. Bu xo‘jaliklar turli usul va vositalar bilan siuvuga olindi. Kollektivlashtirish siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish usullarini tadbiq etishda sovet davlatining jazo muassasasi bo‘lgan OGPU-NKVD organlari alohida o‘ziga xos rol o‘ynaydi.

Kollektivlashtirishda norozilik bildirganlar, mol-mulkini kolxzogga topshirilishni istamagan xo‘jalik boshliqlari “aksilinqilobiy faol quloqlar” sifatida ta’qibga olindi. Jazo organlari tomonidan qo‘lga olingan bunday kishilarning aksariyati sudsiz, tergovsiz otib tashlandi. Qolgan qismi esa uzoq muddatga qamoqqa tashlandi. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Mustabid tuzum davrida minglab begunoh vatandoshlarimizni umri xazon bo‘lgan. 1937-53 yillarda O‘zbekistonda 100 ming odam qatag‘onga uchragan. Ularning 13 ming nafari shafqatsiz otib tashlangan. Qanchadan-qancha oilalar xonavayron bo‘ldi, bolalar yetim qolgan. Birgina 1937-38-yillardagi katta qatag‘on davrida 7 mingga yaqin vatandoshimiz otilgan”ligi so‘zimizning yaqqol isbotidir.¹

¹<https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-qatag‘on-qurbanlari-haqida>

Qishloq xo‘jligini yoppasiga kollektivlashtirish boshlanishidan to 1954-yilga qadar GULAG tizimidagi lagerlar aholisining ko‘pchiliginin ayini “quloqlar” tashkil qilgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda amalga oshirilgan yoppasiga kollektivlashtirishning fojeali oqibatlaridan biri bo‘lgan quloqlar surguni, maxsus posyolkalar tarixini, o‘zbek dehqonlarining surgundagi ayanchli turmushini bugungi kun talablari darajasida tadqiq etish va o‘rganish tarixshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Xususan, kollektivlashtirish va quloqlashtirishni amalga oshirishda, quloqlar surgun qilingan maxsus mehnat posyolkalarining ma’muriy boshqaruvida jazo organlari etakchi o‘rin tutganki, bu muammoni ham tarixshunoslikning bugungi kun talablari darajasida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda, sababi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “atan fidoyilarini eslashimiz, ularning haqqiga Qur’on o‘qishimiz yaxshi an’ana. Ma’rifatparvar bobolarimiz mustaqillik uchun, xalqimiz emin-erkin yashashi uchun kurashganini bilamiz. Oxirgi yillarda butun jamoatchiligidan harakati bilan ularning nomlarini tiklash, muzeylarni yangi namunalar bilan to‘ldirish, ijod maktablarini tashkil etish bo‘yicha ko‘p ishlar qilinmoqda. Bularning hammasi – odamlarga tarixiy adolatni va haqiqatni yetkazish uchun xalqimiz u kunlarni bilishi va hech qachon unutmasligi, bugungi kunlarni qadriga yetish uchun” degan falsafiy fikrlaridan kelib chiqib, muammoni yanada kengroq va atroflicha tahlil etishni lozim topdik.²

²<https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-qatag'on-qurbanlari-haqida>

1 – BOB. QISHLOQ XO‘JALIGINI OMMAVIY JAMOALASHTIRISH

JARAYONI.

(SIYOSATI VA AMALIYOTI).

1.1. 20 – yillarning oxirlarida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining ahvoli.

Yurtimiz tarixini o‘rganar ekanmiz, o‘z ko‘lami va iztirobi bilan tarixda chuqur iz qoldirgan qishloq xo‘jaligi ommaviy jamoalashtirish davri, hozirgi kun nuqtai nazaridan qayta tahlil qilinishi lozim ekanligini his qilamiz. Ayniqsa, sho‘ro inqilobidan keyin qishloq xo‘jaligini sotsialistik asosda qayta qurishning dastlabki bosqichi hotimasi hisoblangan “harbiy kommunizm” davrida amalga oshirgan agrar o‘zgartirishlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, bu davr uzoq o‘zbek qishlog‘ida ko‘zga ko‘rinarli ijtimoiy-iqtisodiy natijalariga olib kelgan emas. Yer-suv islohoti arafasida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish 1914-yilgi darajada nisbatan 1921-yilda 48,8 foizga qisqardi.³ Shuningdek, yirik xo‘jaliklar soni ulardagi yollanma ishchilar soni ham kamayib bordi. Misollarga murojaat qiladigan bo‘lsak, birgina Toshkent uyezdida qishloq xo‘jaligidagi yollanma ishchilar soni 11876 dan 1029 gacha, Mirzacho‘lda 457 dan 135 gacha ozaygan va hakozo. Yerni ijaraga oladigan va beradigan xo‘jaliklar soni ham qisqardi.⁴ Sababi-harbiy kommunizm siyosati oqibatidan qishloq xo‘jaligi ayniqsa, agrar sohaning halokatli darajaga kelib qolganligidir.

Shuningdek, respublikamiz qishloq xo‘jaligiga 20-yillar oxiri Sho‘ro inqilobidan so‘ngi vaqtida ham yerlarning taqsimlanishi bir xilda amalga oshirilmadi. Aholining ko‘p qismini tashkil etuvchi o‘rta hol dehqonlarning xo‘jalik tomorqasi 15-20 desyatinden oshgan emas.

Rahbariyatda esa yo‘llanma ishchilar sonining qisqarishi mustaqil xo‘jaliklarning ko‘payishi tufayli sodir bo‘lmoqda, degan fikr mayjud bo‘lsada, amalda buning teskarisi edi. Kambag‘allar soni ko‘paydi. Kambag‘al va yo‘qsillar xo‘jaliklarining ko‘payishi birinchi navbatda o‘rta hol dehqonlar xo‘jaliklarining

³Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида.-Т.:Шарқ, 2000.-180-бет

⁴Аминова Р.Х. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917-1920 гг.) – Т.: АН УзССР, 1963. – 247-ст.

barham topishi tufayli yuz berdi. Masalan, yeri yo‘qlar soni Samarqand viloyati o‘troq tumanlari bo‘yicha 1917-yilda 0,5% bo‘lsa, 1920-yilda 3,3% ga yetdi. Sirdaryo viloyati bo‘yicha 4,4% dan 6,9 foizgacha o‘sdi.⁵

Qishloq kambag‘lasha bordi. Sababi qishloqdagi o‘ziga to‘q toifa iqtisodiy qudratining siquvgaga olishining sinfiy qarama – qarshilik siyosiy natijasida umumqashshoqlik yuz berishidir. Ushbu salbiy holatlarni tugatish uchun agrar va ijtimoiy siyosatda o‘zbek qishlog‘ining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi o‘ziga xos xususiyatlarni inobatga olish zarur edi. Uning ijtimoiy tuzilmasidagi asosiy elementlarning mutanosibligini saqlab turish maqsadida qishloq xo‘jaligi sohasida ma’lum ishlar rejalashtirildi.

Jumladan,Turkistonning, Buxoro va Xorazm xalq respublikalarining og‘ir inqirozdan chiqishi uchun muhim tadbirdardan biri RSFSR hukumatining,sanoat markazlarining yordami bo‘ldi. Natijada, kambag‘al va o‘rta hol xo‘jaliklar kredit bo‘yicha mablag‘ bilan ta`minlandi.1919-yil Turkistonda 1390 kredit tashkilotlari mavjud bo‘lib, ular 481707 dan ortiq mustaqil dehqon xo‘jaliklarini va 2,5 millionga yaqin dehqonlarni birlashtirgan edi. Ularga kredit bo‘yicha 300 millon so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilgan edi, 1920-yilda esa – 5 milliard so‘mga yaqin mablag‘ ajratildi.⁶ Ajratilgan mablag‘larning ko‘p qismi paxtachilikni rivojlantirish uchun sarflandi. Shunga qaramasdan, yangi iqtsodiy siyosatga o‘tilish munosabati bilan paxtachilikning inqirozi metropolianing iqtisodiy manfaatlariga jiddiy ta`sir ko‘rsatadi. Shuning uchun markaz birinchi navbatda paxtachilik sohasini rivojlantirish uchun zarur choralarни ko‘ra boshladi. Hattoki, RSFSR Oliy xalq xo‘jalik kengashi huzurida Bosh Paxta Qo‘mitasi tuzildi. Dehqonlarni rag‘batlantirish, qishloq xo‘jalik qurollari bilan ta`minlash borasida biroz ishlar qilindi va ko‘rilgan chora – tadbirdar xo‘jalik sohasida muayyan samarasini bera boshladi. Paxtachilikni rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lgan irrigatsiya ishlarini, ayniqsa suv xo‘jaligini tiklash uchun dehqonlar ommasini majburan ishga jalgan etish to‘g‘risida 1921-yil mayida Turkiston AvtonomRespublikasi HKK Moskvaning

⁵ Статический ежегодник 1917-1932 гг.Т.2.-Т.,1934. 50,54,56,58-ст.

⁶ Уз РМДА,фонд-44,рўйхат 1,иш :,124-варак.

talabi bilan o‘lkadagi irrigatsiya ishlarini harbiylashtirish to‘g‘risida dekret qabul qildi.⁷

Bundan tashqari, dehqonlarni majburiy mehnatga jalb etish bilan irrigatsiyalishini yaxshilab bo‘lmasligi ma’lum bo‘lgach, davlat budgetidan 1924 - yilga kelib 6 260 ming so‘m hisobida mablag‘ ajratildi.⁸ Shu bilan birga dehqonlarning bepul mehnatidan foydalanish yo‘lidan ham orqaga qaytish bo‘lmadi. Birgina 1923-yili umumiy bepul xizmat haqqi 3,8 mln. so‘mdan ortdi. Yer-suv islohati o‘tkazish arafasida agrar o‘zgarishlarining muhim yo‘nalishi – muvofiqlashtirilgan yer siyosatining o‘tkazilishi bo‘ldi. Mazkur yondashuv 1921 – 1922 yillar amalga oshirilgan yer – suv islohatida yaqqol ifodalandi. Agar islohatning yangi bosqichining umumiy vazifalari TKP V sezdida va Turkiston Sovetlarining IX qurultoyi (1920 y sentabr) qarorlarida belgilab olindi.⁹

Umuman Turkistonda qishloq xo‘jaligini tiklash uchun irrigatsiya inshoatlarini tartibga solish maqsadida biroz oldinroq ham davlat budgeti tomonidan Turkistonga 1922-yilda 4 ming so‘m, 1923-yilda - 5567 so‘m, 1925 yilda - 2971 so‘m ajratilgan edi.¹⁰

Bundan tashqari yer – suv islohati o‘tkazish davrida ham paxtachilikni rivojlantirish uchun katta tashkiliy yordam berilib, bu tadbir 1921 yil bahorida kengroq amalga oshirila boshlandi.

Tarixiy tajriba nuqtai nazaridan 1921 – 1922-yillar islohatini baholaydigan bo‘lsak, shuni ta`kidlab o‘tish joizki, o‘sha voqealarning asl mohiyati harbiy kommunizm rejimiga borib taqaladi. Bu islohat yerdan foydalanish bo‘yicha mehnatni taqsimlash tamoyiliga asoslangan edi. Yana shuni aytib o‘tish kerakki, islohot o‘tkazish davrida o‘lkanining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinmadi va shoshilinch ravishda ish olib borildi. Kuch ishlatish usullaridan butunlay voz kechish kerakligi inobatga olinmadi. Yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish islohotining iqtisodiy

⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб.-181бет.

⁸ Уша жойда.

⁹ Уша жойда.182-бет.

¹⁰ Бюллетень VII съезда КПТ № 9.1923.18 марта.

vositalar orqali o‘tkazilishini, ya’ni kooperatsiyaning turli formalaridan foydalanishni taqozo etardi.

1921–1922-yillardagi yer–suv islohatini o‘tkazish mobaynida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni tuzatish ham kuch ishlatish yo‘li bilan olib borildi. Ko‘chib kelgan aholining asosiy ommasi qulqlar deb e’lon qilindi. (Stolipin islohoti davridagi siyosat natijasida ko‘chirilgan rus dehqonlari nazarda tutilmoxda – O.N.). Ularning o‘z manfaatlarini himoya qilib chiqishlari esa “qulqoq – mustamlakachi elementlarning qarshi kurashi” deb baholandi. Yer–suv islohoti favqulodda tadbir sifatida olib borildi. Uning asosiy vositasi – ma’muriy siquvga olish bo‘ldi. O‘ziga to‘q ko‘chib kelganlardan nafaqat mehnat me’yoridan ortiqcha sanalgan yer, balki qishloq xo‘jalik qurollari ham tortib olindi. Bunday yondashuv esa qishloq aholisining sinfiy va milliy jihatdan parchalanishiga olib keldi.

Shuni aytish kerakki, ko‘chib kelganlar yeri tortib olinganligi bilan birga monastirlar, cherkov, vaqf yerkari hamda “oq gvardiya” zabitlari tomorqalari va “nomehnat” xo‘jaliklar yerkari ham yer taqsimlash fondiga tortib olindi. Yer–suv islohoti o‘tkazilgan asosiy tumanlar Toshkent, Sirdaryo, Farg‘ona viloyatlari bo‘ldi.

Tortib olingan yerlar asosida 20 ming xo‘jalik tashkil etildi. Kam yerli dehqonlarga va yo‘qsillarga jami 117 512 desyatina yer taqsimlab berildi.¹¹

1921 – 1922-yillar yer – suv islohoti, bir tamondan, yer masalasining hal etilishiga birmuncha ko‘maklashgan edi. O‘n minglab kam yerlilar va yo‘qsillar uzoq yillar davomida kutilgan yerga ega bo‘lishdi. Boshqa tamondan esa, islohot qishloqdagi siyosiy ahvolni keskinlashtirib yubordi. Natijada qishloqda sinfiy qarama – qarshiliklar yuzaga kelib, qashshoqlar ommasi yerning haqiqiy egasi bo‘lgan va astoydil yerda mehnat qilib kelgan o‘rta hol dehqonlarga qarshi kurash boshladilar. Qishloqda sinfiy ”qayta qurish” vositalaridan biri yo‘qsillar va kam yerli dehqonlarning “Qo‘shchi” ittifoqi bo‘ldi. 1921-yil yoziga kelib respublikada 6 mingga yaqin ” Qo‘shchi ” ittifoqi bo‘limlari faoliyat ko‘rsatgan edi. Umuman

¹¹ Стенографический отчёт X съезда Советов Турк республики.-Ташкент,1921.25-ст.

olganda, Turkiston Respublikasida “Qo‘shchi” ittifoqi yordamida mehnat bilan shug‘ullanmaydigan 8034 ta xo‘jalik tugatilgan edi.¹²

Ushbu islohat natijasida yer tuzish jamg‘armasiga 1.722.626 desyatina yer qo‘shildi. Yer – suv islohoti davomida partiya va sovet organlari tamonidan jiddiy xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Masalan, o‘rta hol va qisman kambag‘alni yangi sovet yerkarta tegishli tayyorgarlik ko‘rmasdan ko‘chirish hollari yuz berdi. Bir qator rayonlarda mahalliy organlar sun`iy ravishda aholini yer artellariga birlashtirib, ishchi chorva va qishloq xo‘jalik qurollarini jamoalashtirishga urindilar. 1921-yil boshiga kelib faqat Farg‘ona, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida majburiy ravishda 275 ta kolxoz tashkil etilib, 8743 ta xo‘jalikni birlashtirgan edi.¹³

Lekin, qishloq xo‘jaligida dastlabki iqtisodiy ko‘tarilishni ta`minlashda, Turkiston qishloqlarida kooperativ harakatning rivojlanishida 1923-yilda tashkil etilgan Qishloq xo‘jaligiga yordam ko‘rsatish qo‘mitasi salmoqli rol o‘ynadi. Bu qo‘mita faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri qishloq xo‘jalik shirkatlarining tashkil etilishi bo‘ldi. Ular qishloq xo‘jalik kooperatsiyasining boshlang‘ich shakli edi. Qishloq xo‘jalik shirkatlari bilan bir qatorda Turkistonda kooperatsiyalarning boshqa turlari ham ommalashgan edi. Chunonchi, 1923 yilda respublikada har xil turdagи 877 ta kooperativ mavjud bo‘lib, ularga 288.1 ming kishi a’zo bo‘ldi. Ular orasida 259 tasi matlubot kooperativlari, 346 tasi qishloq xo‘jalik kooperativlari, 199 tasi hunarmandchilik kooperativi edi.¹⁴ Keyinchalik kooperativlar soni ortdi. Natijada, kooperativ qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishning yetakchi kuchiga aylanib qoldi. Ayniqsa, paxtachilikda ularning ahamiyati katta bo‘ldi. Shuni aytish joizki, 1924-yilda kooperatorlar umumiyo paxta maydonlarining 92,6 % ga chigit ekgan edilar.¹⁵

Shu tariqa, paxtachilikda davlat monopoliyasi o‘rnatildi. Biroq, kooperativ harakatida muvaffaqiyatlari bilan bir qatorda uning qudratli imkonyatlaridan to‘la foydalanilmaganligini ham aytib o‘tish joizdir. Bunga ham qisman bo‘lsada,

¹² Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб.-183-б.

¹³ Отчет о деятельности Туркестанского экономического совета. Февраль-октябрь 1921 г. Ташкент, 1922. 180-ст.

¹⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб.-187-б.

¹⁵ Уз РМДА.9-фонд, 1-рўйхат, 1271-ийғма жилд, 5-варак.

iqtisodiyotning mafkuralashganligi sabab bo‘ldi. Ular kreditlar berish va kooperativlarga a’zolar qabul qilish masalalarida yaqqol ko‘zga tashlandi. Har kimni ham kooperativga qabul qilishavermasdi. Sinfiy tanlov mavjud edi. Kambag‘allarga imtiyozlar berilganligi dehqon xo‘jaliklarini rivojlantirishga iqtisodiy jihatdan zarar yetkazdi. Shuningdek, islohatining asosiy vositasi ma’muriy tazyiq o‘tkazishdan iborat bo‘ldi.

O‘zbekistonda yer – suv islohotining ikkinchi bosqich 1925 – 1929 yillarida o‘tkazildi va qishloqda katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Agrar masalaning yechilishida 1924 yilda O‘rta Osiyoda o‘tkazilgan milliy – davlat chegaralash muhim shartlarida biri bo‘ldi. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi islohotga tayyorgarlikni yaxshiladi. Yerdan foydalanish ahvolini aniqlashga va yer bilan ta`minlash me`yorlarini belgilashga yordam berdi. Chegaralash har bir rayonning ijtimoiy – iqtisodiy ahvolini yaxshilash va uning qishloq xo‘jalik ixtisoslashuviga qarab rivojlanishi uchun kerak bo‘lgan sharoitlarni aniqlashda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston SSRning tashkil topishi bilan milliy chegaralashdan oldin vujudga kelgan kooperatsiyalash an`analari davom ettirildi. O‘zbekiston hukumati va kompartiya islohotni amalga oshirish davrida dehqonlar kooperatsiyaning turli shakllariga kirishi uchun katta ishlar olib borishdi. Natijada, 1927 yilda respublikada kooperatsiyalashgan dehqon xo‘jaliklari hajmi 55 %ga yetdi, 1929 yilga kelib esa 81 % gacha o‘sdi.¹⁶ Ayniqsa paxtakor xo‘jaliklar orasida kooperatsiyalashuv jihatni muvaffaqiyatli bo`ldi. 1927 yilda respublikada 386 ta paxta yetishtiruvchi kooperativlar faoliyat ko‘rsatgan edi.¹⁷

O‘z SSR tashkil topishi davriga kelib respublika hududida kooperativ tashkilotlarning ikkita turi mavjud edi: universal qishloq xo‘jalik kredit – korxona (Uzselxozkredit) va matbuot kooperatsiyasi. 1927-yilda respublika kooperatsiyasi qayta tashkil etilib, maxsus tarmoqlarga bo‘lindi. 1927-yil fevralida “Uzpaxtasoyuz” paxta yetishtirish kooperasiyasi, 1928-yil martida

¹⁶ Голованов А.А.Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения 1917-1937 г.г.-Т.:Фан,1992.-106-ст.

¹⁷ Ўша жойда 107-ст.

“Kolxozsentir”, “Kolxozsoyuz”, 1928-yil oktabrida “Jivotnovodsoyuz” chorvador kooperasiyasi tashkil etildi. Keyinchalik bog‘dorchilik – uzumchilik birlashmalari ham tashkil etildi.

Kooperatsiya tizimining tez sur`atlar bilan o‘sib borishi qishloqning iqtisodiy jihatdan o‘sishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Uning yordamida xususiy sektor faoliyati nazoratga olindi va mahsulot ayrboshlash ta`minlandi. Davlat krediti taqsimlandi. Dehqonlar tovar – pul munosabatlariga tortildi. Ammo 1921 – 1922-yillarda boshlangan yer islohati har xil jarayonlarni keltirib chiqardi. Bir tomondan, u ma’lum ma`noda yer masalasini hal qilishga yordam berdi. Biroq, yersizlarni yer bilan ta`minlash sohasida ko‘rilgan bu tadbirlar Turkiston xo‘jaliklarining ayniqsa o‘zbeklar yashaydigan qismiga nihoyatda kam manfaat keltirdi. Chunki ularga berilgan yerlar qishloq xo‘jalik mahsulotlarni yetishtiriladigan barcha yershing 0,7 %ni tashkil etar edi, xolos.¹⁸

Ammo qishloq xo‘jaligini rivojlantirish davrida xalq turmush darajasini yaxshilashdan ko‘ra davlat ahamiyatiga molik sohalarini yuksaltirishga e’tibor yana orta boshladi va yangi iqtisodiy siyosat yillarida davlat bilan kooperatsiyaning munosabatlari ko‘p jihatdan iqtisodiy negizga qo‘yildi. Davlat o‘z maqsadlarini ko‘zlab, qishloq kooperativlarini dehqon xo‘jalik uchun foydali bo‘lgan shartlar asosida kreditlar bilan ishlab chiqarish – tayyorlov tashkilotlarining tarmoqlarini avj oldirish bilan qo‘llab – quvvatlab turdi. U kooperativlardan yetishtirgan mahsulotlarini sotib olar va so‘ngra boshqa ijtimoiy – mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish choralarini ishga solardi. Bular qishloqda kooperatsiyaning jadal o‘sishiga yordam berdi. Kooperativ birlashmalarning davlat manfaatdor bo‘lgan shakllari ancha ko‘proq rivojlandi. Davlatning iqtisodiy manfaati esa avvalgidek birinchi navbatda paxtachilikka qaratilgan edi.

Yangi iqtisodiy siyosatning dastlabki tadbir va yo‘nalishlari o‘zida mayjud ziddiyat hamda murakkablikka qaramasdan, qisman bo‘lsada, sog‘lom iqtisodiy munosabatni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashib, qishloq xo‘jaligini falajlik holatidan chiqarishga doir keskin muammolarni hal qildi. Agarda kooperatsiyaning faoliyati

¹⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи.2-китоб.-183-бет.

ko‘proq mafkuraviy yo‘l bilan olib borilmaganida, yer – suv islohotining oxiriga kelib qishloq hayotiga mos bo‘lgan kooperativ – jamoa xo‘jalik tillarini obyektiv zarurat tarzda izlash, tadrijiy tanlash jiddiy izdan chiqmagan bo‘lardi. Bundan tashqari, ma’murlarning tazyiqi ostida kooperatsiyaning eng oddiy shakllari tabiiy ravishda ancha murakkabroq shaklga o‘tdi, agrar ishlab chiqarishning sotsialistik usulini mustahkamlash yo‘lga qo‘yildi. Shu tariqa, kooperatsiyaning an`anaviy turlari jamiyat tamonidan qo‘llab – quvatlanmay qoldi. Aksincha, bizning fikrimizcha, xalq xo‘jaligini iqtisodiy rivojlanishining dastlabki bo‘g‘ini bo‘lgan tovar ishlab chiqaruvchilar, xo‘jalik yuritishining bozor shakllariga asoslangan dehqon xo‘jaliklarini taraqqiy ettirishning obekтив qonuniyatları buzulmaganida hamda agrar o‘zgarishlar strategiyasiga sinfiy – mafkuraviy yondashuv yuz bermaganda, yer – suv islohatidagi mavjud imkoniyatlar barbod etilmagan bo‘lardi.

1928-yildan boshlab, kolxozlarni jadal sur’atlar bilan tashkil etish siyosati o‘tkazila boshlandi. Ayni paytda sovxoziylar ham tuzila boshlanishi (bular asosan paxtachilik xo‘jaliklari edi. – O.N.) sababli vaqt o‘tishi bilan xo‘jalik qurilishida ma’muriy – buyruqbozlik tazyiqi kuchayib, iqtisodiy usullardan chekinish tobora ko‘proq ko‘zga tashlana bordi. Ma’muriy – buyruqbozlik usullari tomon sezilarli burulishi ayniqsa 1927 -1928-yillar chegarasida namoyon bo‘ldi. Xuddi o‘sha vaqtida Stalin “yirik xo‘jaliklar” masalasi asosan hal bo‘ldi deb hisoblab, partiyani agrar sektorda mayda tovar negizini sun’iy ravishda cheklash va o‘rta hollarni uning moddiy omili sifatida iqtisodiy jihatdan bug‘ishga yo‘naltirdi. Natijada, o‘zbek qishloqlarida ahvol jiddiy keskinlashuviga sharoit yaratildi.

1.2 Qishloq xo‘jaligini yoppasiga jamoalashtirish

(jarayon va ziddiyat)

Ma'lumki, kollektivlashtirish tadbirini amalga oshirish tarixi bilan bog‘liq muammolar ko‘lami keng. Garchi uni amalga oshirish muddatlari belgilangan bo‘lsada qishloq xo‘jaligining ortda qolish sabablari baholanganda tarixiy o‘tmishni tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, eng asosiy omillar – “sotsiolistik” taraqqiyot yo‘llarini tanlash, dehqonchilikni inqilobiy o‘zgartirish usullari inobatga olinmagan edi. Qishloq muammolariga bag‘ishlangan ishlarda ma’lum ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan dehqon, qishloq xo‘jalik mehnatining o‘ziga xos tomonlari nazardan chetda qolgan edi. Eng asosiysi-qishloq xo‘jaligida yuritilayotgan siyosatning ustuvor tamoyillariga to‘la ishonch hosil qilingan edi. Demak, O‘zbekistonda markaziy rayonlarga nisbatan dehqon xo‘jaligining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan kam taraqqiy etganligini hisobga olgan holda ish yuritilganligini tan olishimiz va bunga albatta haqiqat ko‘zi bilan qarashimiz lozim.

Qishloq xo‘jaligini tiklash va rivojlantirishning dastlabki bosqichida (yer-suv islohoti) kooperatsiya muhim rol o‘ynagan. Kooperatsiya o‘n minglab mayda dehqon xo‘jaliklari va sanoat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga, mehnat ishab chiqarishning o‘sishiga xizmat qilishi, mehnatkash dehqonlarning moddiy ahvolini yaxshilashga, davlat korxonalarini kerakli xomashyo bilan ta’minlashga qaratilmog‘i lozim edi. Qishloq xo‘jalik kooperatsiyasi shahar va qishloq o‘rtasidagi bog‘lanishning shakllaridan biri biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, qishloq xo‘jaligini qayta qurishning dastlabki bosqichlarida respublikamiz iqtisodiyotida bu soha ko‘p tarmoqli ekanligi inobatga olinib, ish ko‘rilganligi hujjatlarda qayd etilgan va ayrim o‘zgarishlarga olib kelganligini yuqoridagi bobda misollar orqali ko‘rib o‘tdik. Sababi-qishloq xo‘jaligini qayta qurishni primitiv holatdagi texnika va o‘sha davr psixologiyasi orqali amalga oshirib bo‘lmash edi. Shu sababli, davrga baho berish lozim. Ilmiy xulosalar haqqoniy va xolisona bo‘lishi zarur.

Yuz bergan voqealarni tahlil qilar ekanmiz, voqeylekni inkor etmaymiz, balki uni garchi u sinfiy xarakterda bolsa ham to‘laligicha olamiz. Chunki ilmiy xulosalar

insoniy va milliy qadriyatlarga mos keladigan bo‘lishidan tashqari o‘z ilmiyligini yo‘qotmasligi kerak deb o‘ylaymiz.

Kollektivlashtirishning dastlabki bosqichida respublika hayotining sotsial-iqtisodiy tomonlari, jumladan jo‘g‘rofiy sharoiti, kishilarning dunyo qarashi, madaniy saviyasi, asosiy tarmoqlar nimalardan iborat ekanligi jiddiy ravishda o‘rganilgan emas. Bu masala haqida hozirgacha ilmiy va tarixiy adabiyotlarda fikr mulohaza aytilmaganligi sababli biz o‘z ilmiy ishimizda ko‘proq asossiz ravishda jadallashtirish, soxta kollektivlashtirishning oqibatlari respublika hayotida qanday salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelganligini manbalar asosida, hamda ilgari chop etilgan ishlarni tanqidiy o‘rganish orqali tahlil etib davrga holisona baho berishga harakat qildik.

Kollektivlashtirishni jadallashtirish, jumladan markaz ko‘rsatmalarini ortig‘i bilan uddalashga kirishib ketilib, asosan siyosiy rahbariyat ko‘rsatmalari asosida ish olib borildi.

Kollektivlashtirishni asossiz ravishda jadallashtirish aynan 1930 -yilning bahorida boshlandi va asosiy g‘allakor rayonlarda kollektivlashtirishni 1930-yilning oxirida tugatish ko`zda tutilgan edi. Bu davrda iqtisodiy jihatdan tayyorgarlik oxiriga yetkazilmagan bo‘lsa ham, dastlabki 17 ta rayon yoppasiga kollektivlashtirilgan rayon deb e’lon qilindi. Sotsialistik musobaqa joriy etildi. Pirovardida kolxozlarni tuzish va ularni son jihatdan ko‘paytirish kuchayib ketdi. Shu bilan bog‘liq tarzda 1930-yildan kolxoz hayotida ixtiyoriylik tamoyilining buzilishi ham boshlandi. Kolxozi qurilishiga ma’muriy-buyruqbozlik usuli joriy etildi. Respublikaning ichki imkoniyatlarini mustaqil hisob-kitob qilish, vaziyatni holisona ko‘rib chiqish butunlay markaz qo‘liga berib qoyildi. Direktiv planlashtirish hamda buyruqbozlik tizimi joriy etildi. Oqibatda dehqon mehnatiga majburiylik tusi berildi va dehqonlarning kolxozlardan bezishi shu tariqa ro‘y bera boshladi.

Ayniqsa Stalinning 1929-yil 7-noyabrda bosilib chiqqan “Buyuk burilish yili” degan maqolasi jadal jamoalashtirishni “nazariy“ jihatdan asoslab berdi. Unda keng

qishloq ommasi kolxozlarga kirish uchun yetildi, deb aytilgan edi.¹⁹ Shunga muvofiq O‘zbekistonda kolxoz qurilishi to‘g‘risidagi ilk qaror O‘zKP (b) MKning 1929-yil 4-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida²⁰ 1929-30-yillarda O‘zbekistonda kolxoz qurilishi rejasи tasdiqlanishidan boshlandi. Yig‘ilishda 1929-yilning dekabr oyidan boshlab kollektivlashtirishda Ittifoqdagi asosiy g‘allakor rayonlarni quvib yetish, xatto o‘zib ketish masalasi kun tartibiga qo‘yildi.

Vaholanki, kollektiv xo‘jaliklar O‘zbekiston bo‘yicha bu davrda 1,2 foizni tashkil qilardi xolos. Shuningdek Toshkolxzoseksiyasining raisi Otaxonovning ko‘rsatmasiga ko‘ra²¹ Toshkent okrugi bo‘yicha beshta rayonda yoppasiga kollektivlashtirishni (Toshkent, Yangiyo‘l, Mirzacho‘l, Piskent va Bekobod) 1930-yilning 15-fevraligacha tugatish zarurligi qayd qilindi va yoppasiga kollektivlashtirishni amalga oshirish uchun birinchi navbatda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalar quyidagicha belgilab chiqiladi:

1. Kolxozlarni yot unsurlardan tozalash ;
2. Yangi kolxozlarni tuzish harakatini tezlashtirish va ularning iqtisodiy qudratini yaxshilash ;
3. Tuzilgan kolxozlarni o‘z vaqtida ustav va bitimlar bilan ta’minlash.

Okrugdagи boshqa rayonlarni kollektivlashtirishni 1930-yil oxirida tugatish belgilandi. Ushbu hujjatda kolxozga kirmoqchi bo‘lganlar o‘z mehnat qurollari va chorva mollarini topshirmasa, kolxozga a’zo qilib olinmasligi aytiladi. Kolxozga kirayotgan dehqonlarning ko‘pchiligi o‘z shaxsiy chorvasiga ega emasligi rahbariyatga ma’lum bo‘lsa-da, bu borada noto‘g‘ri olib borilganini ta’kidlash lozim. Bundan tashqari, kollektivlashtirish bo‘yicha okrug shtabining a’zosi o‘rtoq Sidorovning ta’kidlashicha, kolxozga a’zo bo‘lib kirmoqchi bo‘lgan xar bir odam 16 yoshdan oshgan bo‘lishi, hamda a’zolik badalini to‘lashi kerak. A’zolik badali oilada 16 yoshdan har bir kishidan olinishi qayd qilib o‘tiladi.²² Bunday tadbirlarga har

¹⁹ Правда газетаси, 1929, 7 ноябрь.

²⁰ Социалистическое сельское хозяйство Узбекистана.-Т.: Узбекистан, 1978.-14-ст.

²¹ Тошкент ВДА.Ф-182.оп-1,д.49,208-варак.

²² Тошкент ВДА.Ф-182.оп-1,д.49,208-варак.

doin amal qilinmagan. Chunki vaziyat tezroq soxta kollektivlashtirishni taqozo etar edi.

A’zolik badalidan tushadigan mablag‘lar kolxozning bo‘linmas fondiga o’tkazilishi ta’kidlangan, ammo tushgan mablag‘larning hisob kitobi qayd qilingan hujjatlar arxivda topilgani yo‘q. Kolxozi tuzishda tartib-qoidalarni keskin buzish natijasida Piskent va Bo‘ka rayonlarida ikki hafta mobaynida 3 tadan kolxozi tashkil qilindi. Ular qog‘ozda mavjud, amalda yo‘q kolxozlar edi.²³

Shunday voqealar boshqa okruglarda ham yuz berdi. Masalan hujjatlarda Namangan okrugidagi Yangiqo‘rg‘on tumanda yoppasiga kollektivlashtirish 1930-yili tugallandi va 50 ta kolxozi tuzildi deyilgan. Lekin kolxozlarning ko‘pchiligi faqat qog‘ozda edi xolos. Sababi kolxozlashtirish majburiy asosda olib borilgan. Masalan, Yangiqo‘rg‘on ijtimoiy ta’minot bo‘limi raisi rayondagi qishloqlardan birida bu qoidaga bo‘ysunmagan 10 batrakni qamoqqa oldi.²⁴

Shuningdek, rayondagi “Olmos” kolxozini tuzish paytida 800 ta xo‘jalik ikki kun ichida ro‘yxatdan o’tkazilib, dehqonlar xohishi inobatga olinmasdan kolxozga yozib qo‘yilganligi va 24 yanvar kuni kolxozga kiruvchilar o‘zlarining barcha chorvalarini bozorga olib borib sotganliklari aniqlandi. Demak, dehqonlar kolxozning maqsad va mohiyati xamda qoidalari aniq emasligi tufayli yuqoridagi voqealar ko‘لامи kengaydi degan xulosa qilish lozim. Bu davrda yoppasiga kollektivlashtirilgan rayonlarda ham ishlar ko‘ngildagidek olib borilmagan. Sababi – birinchidan, sug‘oriladigan yerlarning suv bilan ta’minlanmagani va ekin ekishga tayyor emasligi; ikkinchidan, kolxozga zo‘rlab kiritish yoki yolg‘ondan qo‘sib yozishlar oqibatida kollektivlashtirish zarar ko‘ra boshlaganidadir.²⁵

Faktlarga murojaat qilaylik: birgina Yangiyo‘l tumanida birinchi marta ro‘yxatga olingan 180 ta xo‘jalik qog‘ozda bor edi xolos. Eng achinarlisi shundaki, bu xo‘jaliklar nomi ikkinchi marta ro‘yxatga olinib, kollektivlashtirilgan xo‘jalik sifatida ma’lumot uchun berilganligi aniqlandi.

²³Правда Востока.1930.20 январь.

²⁴Правда Востока.1930.5 январь.

²⁵ Тошкент ВДА.Ф-182, оп-1,д.99,28-варақ.

Bundan tashqari, soxta kollektivlashtirishni tezlashtirish rejadan o‘zib ketish, “sotsiolistik musobaqa” da g‘olib chiqish uchun G’allakor tumanlarni quvib o‘tish g‘oyalari ishlab chiqilishi xalqqa juda qimmatga tushdi. Bu xol iqtisodiy tanglikni tezlashtirganligini quyidagi raqamlardan bilsak bo’ladi. Masalan, 1929-yili respublikada 24200 dehqon xo‘jaliklari kollektivlashtirilgan bo‘lsa (2,4 foiz), 1930-yili 261845 dehqon xo‘jaliklari (23.2 foiz) kollektivlashtirildi. 1931 yili 427536 dehqon xo‘jaliklari (48.2 foiz) kollektivlashtirildi.²⁶

Kollektivlashtirishning dastlabki kunlaridanoq izdan chiqishi aksariyat holda mahalliy rahbarlar yuqorida kelgan buyruqlarni ko‘r-ko‘rona bajarishga majbur qilinganligi tufayli yuz berdi. Natijada, tumanlar va kolxozlarning rahbarlari tobora yuqori partiya organlari buyruqlarining ko‘r-ko‘rona bajaruvchisiga aylanib, partiya o‘rganlari xo‘jalik bevosita arlashish doimiy vakolatini to‘la qo‘lga kiritishi tufayli soxta siyosiy qarorlar ko‘lami yanada kengayib bordi.

Partiya o‘rganlari yoppasiga kollektivlashtirish sharoitida ko‘proq dehqonlarni ishontirish, kolxozlarni ixtiyoriy tashkil qilish o‘rniga ma’muriy-buyruqbozlik bilan shg‘ullana boshladilar. Kolxozlarning mustaqil ish yuritish vazifalarini asta-sekin partiya xodimlari egallab olib, o’zlarining doimiy faoliyatiga aylantirdilar. Oqibatda quyi Sovet organlarining ish faoliyati susaydi va ularning mustaqil harakat yo‘llari to‘sib qo‘yilishi natijasida kolxozi rahbarlari yuqorida berilgan buyruq va ko‘rsatmalarni bajaruvchi malaylar darajasiga tushirildi. Ularning o‘rniga paxta mustaqilligiga erishishga xizmat qiladigan partiya va xo‘jalik rahbarlarining ko‘pchilik qismini kolxozlarning rahbarlik organlariga tayinlash oddiy bir xolga aylanib bordi. (bu yerda 25-mingchilar ko‘zda tutilayapti. -O.N.).

Kolxozlarning ichki demokratiyasi, ya’ni o‘zini-o‘zi boshqarish tayinlab qo‘yish bilan almashtirildi. Demokratik tamoyillarning buzilishi hayotdan mustahkam o‘rin egallay boshladi. Aslini olganda, respublika rahbariyatining bu jarayonni to‘xtatishga qaratilgan intilishlari markaz oldiga to‘siq bo‘la olmadi. Chunki 1930-yillarda boshlangan ma’muriy-buyruqbozlikning siyosatining kuchayishi kolxoz rahbarlarining javobgarlik va tashabbuskorliklarini susaytirdi va keng dehqonlar

²⁶ Тошкент ВДА.Ф-86, оп-1,д.6826, 95-варак.

ommasi orasidagi obro‘ va ma`suliyatining sezilarli darajada so‘nib borishiga olib keldi.

Vujud sharoit va vaziyat bilan hisoblashmasdan yoppasiga kollektivlashtirish ketidan quvish susaymadi. Birgina 1930-yilning yanvar-fevral oylarida ommaviy ravishda kolxozga jalb etishning yanada tezlashuvi, kolxoz qurilishi masalasida markazdan va joylardan olingan korsatmalarning noaniqligi tufayli yuz berdi.

Tarixchi olima P.Aminovaning ta’kidlashicha, 1930-yilning bahoridan e’tiboran kolxozlarni tashkil etish ko‘lami yanada kengaydi. Jumladan, 1930- yil 20-noyabrdan e’lon qilingan faktlarga ko‘ra, 2 oy mobaynida respublikadagi 61 ta tumanda 664 kolxoz tashkil etilgan degan ma’lumotni keltiradi.²⁷ Vaholanki, 1930-yil martiga kelib respublikada kollektivlashtirish darajasi 47,8 % dan 27,5 % ga tushganligi haqiqatga yaqindir.²⁸

Bu majburiy kolxozlashtirish jarayoni tumanlarda ko‘zbo‘yamachiliklar ko‘lami kengayib borishi oqibatidir desak to‘g‘ri bo‘ladi. Masalan, “kolxozmarkaz” ning ma’lumotiga ko‘ra, Quvada 5, Oltiariqda 4 kolxoz faqat qog‘ozda mavjud bo‘lganligi fakti fikrimizning dalili bo‘la oladi.²⁹

Binobarin, kolxozlashtirishda ixtiyoriylik tamoyili buzildi. Uy –joylarning umumlashtirilishi, chorva mollari, xatto parrandalarning tortib olinishi va umumlashtirilishi asossiz ravishda yirik kolxozlar tuzish yo‘lidagi xatoliklarning birinchi sababi bo‘lsa, ikkinchisi siyosiy qarorlarning bajarilishi zarur va majburiy qonun qilib qo‘yilganligidir. Kezi kelganda aytish kerakki paxta yakkaxokimligini ta’minlashga qaratilgan ish uslubi kolxozlar qurilishidagi ayrim kamchiliklar tanqid ham qilindi.

Masalan, VKP (b) MK O‘rta Osiyo markaziy byurosining 1930- yil 24-apreldagi qarorida: “O‘zbekistonning sotsial-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi xilma-xilligini, ularning markaziy rayonlardan farq qilishini inobatga olmaslik, o‘rtahol dehqonlarning kollektivlashtirishga tayyorgarligiga baho bermaslik va kambag’al

²⁷ Аминова Р.Х.Сплошная коллективизация сельского хозяйства Узбекистана (1930-1932гг.)- Т.:Ўзбекистан,1980.-56-ст.

²⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи.2-китоб,-Т.:Шарқ,2000.-353 бет.

²⁹ Жамолов О.Б.Социально-экономические предпосылки сплошной коллективизация сельского хозяйства в Узбекистане.-Т.:Госиздат Уз ССР,1950.-112-ст.

dehqonlarning xohish-irodasini hisobga olmaslik, partiya va sovet rahbar xodimlari qishloqda faol bo‘lmanliklari tufayli ko‘pdan-ko‘p xatoliklar yuz berdi”,³⁰ -deb ta’kidlanganligi ma’lum. Ammo amalda dehqon mehnatiga majburiylik tusi berildi va tub aholining “jamoa” dan bezishi shu tariqa boshlandi.

O‘zbekistonda ommaviy kollektivlashtirishni amalga oshirishdagi qing‘irliliklar uchun butun ayb mahalliy xodimlarga to‘nkaldi. Chunonchi VKP (b) MKning 1930-yil 25-fevraldagi qarorida “O‘zbekistonning ba’zi bir va Shimoliy Kavkazning tog‘li tumanlarida kollektivlashtirish noma`qul yo`llar va usullar bilan olib borildi deyiladi. Natijada 1930-yil 26-fevralda O‘z KP (b) MK ijroiya byurosining shoshilinch yig‘ilishida O‘zbekistonda kollektivlashtirishni o‘tkazish davrida yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘irlash to`g`risida” qaror qabul qilinadi.³¹ Ushbu qarorda respublikada kolxoz tuzish davrida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning sabablari ochib tashlandi va ularni tuzatishga yo‘l tutildi. Ba’zi rayonlarda kollektivlashtirishga kambag‘al va o‘rtahol dehqonlarning tayyor emasligi, shuningdek kolxozlarni tashkil qilishda har bir tumanning jo`g‘rofiy sharoiti va sotsial-iqtisodiy ahvoli hisobga olinmaganligi qayd etildi.

Shunga qaramasdan, kolxoz qurilishi Farg‘ona okrugida ham, boshqa okruglarda bo‘lgani kabi , siyosiy xatoliklar natijasi ekanligiga bo‘lib o‘tgan voqealar shoxidlik beradi. Farg‘ona okrugida kolxoz tuzumi afzalliklari hamda mohiyatini tushuntirish yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligini ta`kidlovchi hujjatlarni tahlil qilaylik. Birgina Bag‘dod tumandagi Chuvalin qishloq sovetiga kolxoz tuzish masalasida rayondan borgan vakil Muxammadjonov o‘z xizmat vazifasini suiste`mol qilgan holda, beshta yirik qishloqdan iborat kolxoz tuzishga kirishadi. Muxammadjonov kolxozlarning ijobiy mohiyatini ochib berish o‘rniga dehqonlarga shunday deydi: “Kim agar kolxozga kirsa, dumba yog‘ini yeydi, kim kirishni xoxlamasa, qizil qalampir yeydi”.³²

Kolxoz va uning tub mohiyati masalasiga yengiltaklik bilan qarash, shubhasiz keng dehqonlar ommasida tabiiy norozilik, isyonkorlik tuyg‘ularining avj olishiga

³⁰Узбекистанская правда.1930.24 апреля.

³¹ Уз РМДА Ф-90,оп-1,д.1218,27-варак.

³² Ўзбекистон Республикаси Президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,1-варак.

sabab bo‘ldi. Kolxozlashtirishga qattiqqo‘llik bilan ish yuritish orqali erishish mumkin, degan siyosiy xulosa tufayli kolxozlar qurilishidan noroziliklar ko‘lami ko‘paydi xolos. Masalan, 1939-yil 4-mart kuni Muhammadjonov rahbarligidagi vakillar Xitoy qishlog‘iga kelib, chorvaning umumiy bahosini hisoblay boshladilar. Shu payt 15 dan ortiq kishi norozilik bildirib, vakillardan ikkitasini do‘pposladi. Qishloq sovetining raisi qochib ulgurdi. Ikki vakilni esa dehqonlar savaladilar. Shundan keyin voqeа avj olib, Bag‘dod qishlog‘ida 500-600 kishi to‘plandi va tashkil etilgan kolxozning umumiy ro‘yxatini yoqib yubordilar. Qo‘lga olingan ikki vakildan ro‘yxatlar tortib olindi va vakillar qishloqqa kolxoz tuzish uchun qaytib kelmaslikka va’da bergenliklaridan keyingina qo‘yib yuborildi.³³

Misollarni davom ettirish mumkin. Masalan, Bag‘dod tumandagi ilk Madamin qishloq sovetidan kelgan vakillar aholi chorvasini baholayotgan vaqtida 25 chog‘liq odam yig‘ildi va komissiya raisi hamda kelgan vakillarning qishloqdan chiqib ketishini talab qildilar. Shuningdek, ularni kollektivlashtirish masalasi bilan boshqa kelmasliklarini ta’kidladilar.

Ko‘rinadiki, kolxoz ustavining asl mohiyatini bilmaslik hamda ustavdagi noaniqliklar tufayli xato-kamchiliklar ko‘lami kengaygan. Birgina Xo‘ja qishlog‘ida kollektivlashtirish majburiy asosda 100 % amalga oshirildi. Komissiya qishloq shaxsiy xo‘jaliklaridagi chorvaning umumiy bahosini belgilayotgan paytda 600 ga yaqin dehqonlar yig‘ildilar va kolxozni tarqatib yuborishni talab qildilar. Shuningdek, Qaynar qishlog‘i va uning atrofidan kolxoz tuzishga qarshi 1,5 ming dehqon yig‘ilib, kolxozga yozilgan dehqonlarning ro‘yxatini yo‘q qilishni , tortib olingan yerlarni qaytarishni talab qilib, bir ovozdan kolxozda qolishdan bosh tortdilar. Qudash tumandagi Katta yangilik Shunqor Qari devona, Oqtepa, Oqmachit, Imom Hayit qishloqlaridagi ko‘tarilishlar ham keskin bo‘ldi. ³⁴Katta yangilik qishloq sovetida 1930-yil 6-mart kuni 200 ga yaqin dehqon oilasi kolxoz markaziga norozilik yurishi uyushtirdi.

³³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,4-варак.

³⁴ Ўзбекистон Республикаси президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,6-варак.

Kolxoz qurilishi davridagi xato-kamchiliklarni rahbarlar faqat “tahlil” qilganlar xolos. Zarur choralar ko‘rish to‘g‘risida fikr ham yuritmaganlar, desak bo‘ladi. Farg‘ona tumanda yoppasiga kollektivlashtirishning borishini aniqlash maqsadida okrugdan Boltayev va RKP (b) ning O‘rta Osiyo bo‘yicha vakili D.Manjara yo‘llangan. Ularga kolxoz tuzishni tezlashtirish va paxta planini bajarish, shuningdek, bahorgi ekish ishlarini ko‘rib chiqish yuklangan edi. Biroq, ular yo‘l qo‘yilayotgan nuqsonlarga, arizalarga befarq munosabatda bo‘ldilar. Masalan, Qumqishloq sovetida dehqonlar hamma qamab qo‘yilganlarni ozod etishni va yeridan mahrum bo‘lganlarning yerlarini qaytarishni talab qildilar. Shirkat xo‘jaligidan olingan qishloq xo‘jalik asboblarini qaytarib olib kelib topshirdilar.¹ Lekin bu haqli talablar ijro etilmadi. Chunki kolxoz tuzish haqidagi ko‘rsatmalar albatta bajarilishi bundan keyin ham zo‘ravonlik bilan olib borilishi ko‘zda tutilgan edi.

Bundan tashqari, amaldagi kolxoz ustavi xayotga abstrakt yondashgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, dehqonlarning ichki imkoniyati, psixologiyasi, geografik muhit va xususiy mulkka munosabati deyarli hisobga olinmagan edi. Kolxoz ustavlari joylarga o‘z vaqtida yetib kelmadi yoki mohiyati yetarli tushuntirib berilmadi. Natijada birgina Bag‘dod tumanda 1930-yilning 16-fevralidan 5 martigacha 47 ta kolxozdan faqat 11 tasi qoldi, xolos.³⁵ Qo‘ng‘iroq qishlog‘ida okrugdan kelgan vakil Po‘latov ishtirokida yig‘ilish o‘tkazilib unda kambag‘al dehqonlar: “Ilg‘or quloq xo‘jaliklarini tiklash, ularni birlashtirish, ishlab chiqarish shirkatini tashkil qilish kerak, chunki davlatga asosiy paxtani shu xo‘jaliklar beradi” deganlar. Ular vakilga murojaat qilib: “Sovet hokimiyati 13 yildirki, quloqlarga hech narsa bergani yo‘q” deganlar. Dehqonlarning bu fikrini vakil O‘rtoq Po‘latov eshitishni ham xohlamadi. Natijada yig‘ilish tarqab ketdi. (Bu yerda o‘rtahol dehqonlar haqida so‘z borayapti – O.N.).

Kolxoz tuzumi davrida xalqqa nisbatan siyosiy nayranglarni ishga solishdan ham qaytmadilar. Masalan, 1930-yil 22-fevralda O‘zKP (b) Farg‘ona okrug qo‘mitasi yig‘ilishining bayoniga ko‘ra, Qo‘qon tumanga qarashli birgina “Qizil musht” qishlog‘ida o‘rtahol dehqonlarning kolxozga a’zo qilib olinmaganligining asosiy

³⁵ Ўзбекистон Республикаси президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,7-варак.

sababi – ular o‘z yerlarida yaxshi ishlaganligi xamda ro‘za tutib, machitga qatnaganligidir, deb baxona qilinadi.³⁶ Boltayevning ushbu yig‘ilishda eshitilgan hisobotidan aniq bo`lishicha³⁷, kollektivlashtirish rejasi qabul qilingandan keyin rahbarlar o‘z kabinetlarida o‘tirib buyruq berishda o‘zaro musobaqani avj oldirishni maqsad qilib qo‘yganlar. Keng jamoatchilikning xohish-irodasi xisobga olinmagan. Natijada, bir joyda xlopkotavarniy kolxozlar, boshqa joyda esa birdaniga kollektivlashtirishning eng yuqori formasi – artellarni joriy etish ishlari olib borilganligi, joylarga yuborilgan mas’ul xodimlarning tajribasizligi tufayli boshlangan ishlar ham yaxshi natija bermadi. Masalan, Bag‘dod tuman rahbarlariga rayonda kolxoz tuzishning eng oddiy formasidan foydalangan holda, kollektivlashtirishni 75 % ga yetkazish yuklangan. Biroq imkoniyatga qarab harakat qilinmaganligi dehqonlar orasida noroziliklarni keltirib chiqargan.³⁸ Oqibatda siyosiy rahbarlar "soxta tashviqotni" tahlil qilib ham ko‘rdilar, masalan O‘zKP (b) MK Farg‘ona ijro qo‘mitaning mas’ul xodimi Lepnaning: “qishloqlarga yuborilgan vakillarning ko‘p qismini vaqt borida chaqirib olish kerak, chunki ular qishloq uchun yoki kollektivlashtirish uchun hech qanday foyda berayotgani yo‘q”, degan so‘zlari ham hujjatlarda mavjud. Ammo bunday fikr-xulosalar majburiy tus olgan davlat buyurtmalari oldida “ojiz” fikrlar edi, xolos. Chunonchi , soxta kollektivlashtirishga erishish maqsadida jismoniy tayziqdan tortib dehqonlarni yashab turgan joylaridan majburiy kochirishgacha borib yetgan. Masalan, Farg‘ona tuman mas’ul xodimi Bo‘ribekov “faoliyati” ni olaylik . U Farg‘ona tumandagi kolxozlardan birida odamlarning kolxozga kirishini tezlashtirish uchun 400 dehqonni yoniga qorovul qo‘yib, katta ko‘chaga haydaydi. Ularga: charchasalaring, albatta kolxozga kiramiz, deb aytasizlar, aytmasalaring quvishni davom ettiramiz”, deydi. Norozilik bildirgan dehqonlarni 20 chaqirimgacha quvib boradilar. Bo‘ribekov Mozor qishlog‘ida: “Agar kolxozga kirmasalaring yerlaringni tortib olamiz”, deydi.³⁹ Qishloqlarga vakil bo‘lib borgan ba’zi xodimlar dehqonlarga hatto ko‘k choy berishni ham ta`qiqlab qo‘yadilar.

³⁶ Ўзбекистон Республикаси президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,8-варак.

³⁷ Ўзбекистон Республикаси президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,13-варак.

³⁸ Ўзбекистон Республикаси президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,13-варак.

³⁹ Ўзбекистон Республикаси президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,15-варак.

Okrugdagi ko‘p rayonlar, jumladan Pop, Bag‘dod rayonlarida vakillar mol-mulkning hammasini topshirishni talab etdilar. Bu esa dehqonlarning noroziligiga olib keldi. Ehtimol, bu kamchilillar kolxoz tuzumi va uning mohiyatini tushunib yetmaslik oqibatida sodir bo‘lgandir. Ma'lumki, dehqon kayfiyati, dunyoqarashi hamda har bor hudud aholisining o‘z psixologiyasi bo‘ladi. Agar kolxoz tuzish, mulkni zo‘ravonlik bilan umumlashtirish yo‘li bilan emas, balki tadbirkorlik va ixtiyoriylik asosida olib borilganida kolxoz tuzumi va uning istiqboli, iqtisodiy rivojlanishi boshqacha bo‘lishi mumkin edi. Ammo respublikaning aksariyat okruglarida kolxozga majburiy kiritish keng quloch yoydi. Farg‘ona okrugi Bag‘dod tumanidagi qishloqlardan birida bo‘lgan F.Xo‘jayevga dehqonlar aytgan quyidagi gaplar bunga misol bo‘la oladi. “Biz o‘n kishi yig‘ildik”- deydi dehqon. – “Bizni ro‘yxatga olmoqchi bo‘ldilar. Lekin biz unamadik. Chunki kolxozning afzalliklarini ko‘rganimiz yo‘q. Shunda oramizdan bittamizni ushlab qolib, qolganlarning familiyasi va mol-mulkini so‘rab oldilar. Shundan keyin biz majburiy ravishda kolxozga yozilganmiz”⁴⁰ Keyingi voqealar shuni dalillaydiki, ko‘rsatmalar, takliflar ma'lum guruh uchun aytilgan “eslatma” rolini o‘ynagan. Rishton tumaniga vakil bo‘lib kelgan Boltayev rayon rahbarlaridan: “Yoppasiga kollektivlashtirish uchun iqtisodiy va siyosiy imkoniyat bormi?”- deb so‘raganda, bunday imkoniyat faqat 40% ni tashkil etishini ma`lum qiladilar. Shunga qaramay, rayon rahbarlari yoppasiga kollektivlashtirishni asossiz ravishda tezlashtirdilar. Natijada, dehqonlarning noroziliklari va xatto kolxozdan chiqish hollari yuz beradi.⁴¹

Siyosiy ahvol murakkablashgan bir paytda F.Xo‘jayev O‘zKP (b) Farg‘ona okrugi ijroiya qo‘mitasining 1930-yil 22-fevral kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida shunday deydi: “Respublikamizda kollektivlashtirish plani uncha ko‘p hajmda emas, balki 30% qilib belgilandi. Buni markaziy komitetga qishloq xo‘jaligi masalasi bilan shug‘ullangan o‘rtoq Boltayev yaxshi biladi. Ushbu planni qabul qilganimizdan so‘ng MK to‘satdan respublika bo‘yicha kollektivlashtirishni 44% qilib belgiladi. Qayerdan kelib qoldi 44% li plan? Nahotki, ushbu raqamni Karimov yoki Leppa va boshqalar

⁴⁰ Ўзбекистон Республикаси президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,16-варак.

⁴¹ Ўзбекистон Республикаси президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,10-варак.

o‘ylab topgan bo‘lsa? Bizga har kuni telegramma kela boshladiki, qishloqlardagi kambag‘al dehqonlar kolxoz tuzumini talab qilgan emish. Oxir-oqibatda biz, Markaziy komitetdagilar kollektivlashtirishga qarshi turmoqdamiz, degan fikr kelib chiqdi”. “Menimcha - deydi F.Xo‘jayev, - Markaziy Komitet uzoqni ko‘radigan bo‘lib, okruglardan kelayotgan ma’lumotlarga asoslanganida edi, O‘zbekiston bo‘yicha 100% kollektivlashtirishni qabul qilishi mumkin edi”. Lekin, Markaziy Komitet shunday qilmadi. Sababi-bunga imkoniyat yo`qligi, buning hammaga ma’lumligi edi. Kollektivlashtirishni yuqori ko`rsatkichlar bilan olib borish uchun yetarli sotsial-iqtisodiy shart-sharoit yetilmaganligi uchun shunday bo‘ldi. Markazning respublikamiz hukumatiga tazyiq o`tkazishining kuchayishi, “quloq qilish” yo‘lining faol tus olishi, yakkahol dehqonlarga nisbatan ma’muriy-iqtisodiy siquvning qattiqlashuvi ularning kolxozlarga majburiy ravishda jalb qilish sur’atlarini jiddiy ravishda oshirishga yordam berdi. Oqibatda, O‘zbekiston monokulturaga asoslangan rayonga aylanib qoldi. Undan chiqish imkoniyati uzoq vaqtgacha bo‘lmadi. Sababi-region jo‘g‘rofiy jihatdan moslashgan hudud deb tahmin qilindi va shunga yarasha ishlar amalga oshirildi. Dastlab kollektivlashtirishni ma’lum darajada imkoniyatdan kelib chiqqan holda amalga oshirishga harakat qilindi. Masalan, Toshkent okrugida kollektivlashtirish o’rtacha 18% qilib belgilandi. Arxiv hujjatlarining guvohligiga ko‘ra, Markaziy Komitetning ruxsatisiz Toshkent okrugi rahbariyati okrugni yoppasiga kollektivlashtirilgan okrug deb e’lon qildi va uni 1930-yil kuzida tugatishni zimmasiga oldi. Toshkent va boshqa okruglarga nisbatan iqtisodiy tomondan aytarli imkoniyatga ega bo‘limgan, shuningdek, jo‘g‘rofiy jihatdan ham ko‘proq chorvachilikka ixtisoslashgan bu okrugda kollektivlashtirishni tezlashtirishning hech qanday imkoniyati yo‘qligi ma’lum edi.

Bu o‘rinda xalqimizning atoqli farzandi, taniqli partiya va davlat arbobi Fayzulla Xo‘jayevning Farg‘ona ta’ssurotlarini davom ettirish o‘rinlidir. "Bag‘dod tumandagi qishloqlardan biriga borganimizda, deb eslaydi F. Xojayev, - dehqonlar avvalboshida bizning kimligimizni bilmadilar. Keyin dehqonlar biz bilan suhbatlashdilar. Kolxoz tuzumi va uning afzalliklari to‘g‘risida ularga tushuntirishishlari olib borilmagan. Shuningdek, Sovet xokimiyati ularga nima bergenligi deyarli aytilmagan. Biz ularga

“Sizlarda kolxoz bormi” deb murojaat qilganimizda, “bor” deb javob qaytarishdi. “O‘n besh kishi yozilgan qolganlarimiz kutib turibmiz, qani kolxoz nima berar ekan? Agar yaxshi bo‘lsa, biz ham kiramiz” - deyishdi. “Sizlarga kolxoz tuzumi xaqida tushuntirish olib borilmadimi”-deganimizda, dehqonlardan biri shunday javob qildi: “Bizdan hamma narsamizni olib umumlashtirar ekanlar, biz esa batrak holiga kelar ekanmiz. Agar qanaqa qilinsa, biz sizlarning uylaringni yo‘q qilamiz va vokzaldan hammalaringga yotoqxona beramiz. Sizlarda nima bo‘lsa, hammasi davlat ixtiyoriga o‘tkaziladi”- deydilar. “Demak, hech qanday tushuntirish ishlari olib borilmaganligi ko‘rinib turibdi”. Yuqoridan kelgan, lekin vaziyatga qarab belgilangan ko‘rsatmalarni joylarda sun‘iy ravishda buzish hollari yana boshlandi.

Masalan, 1930-yil yanvar oyida Farg‘ona tumanda 8% kollektiv xo‘jalik mavjud dedi. Okrug rahbarlari fevral oyida uni 40% qilib ko‘rsatdilar. Mart oyiga kelib bu ko‘rsatkich 100% ga olib kelindi.⁴² Boshqa rayonlarda bo‘lgani kabi bu yerda ham ixtiyoriylik tamoyili buzilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bag‘dod, Chust, Pop va boshqa rayonlarda ko‘rsatkichni 100% ga yetkazishga harakat qilingan. Kollektivlashtirishni fevral oyining 20 sanasida tugatish ko`zda tutilgan. Aslida bunday ko‘rsatkichga erishish to‘g‘risida yuqoridan yo’llangan biron-bir direktiv hujjat mavjud emas.

Yuqori tashkilot rahbarlariga yaxshi ko‘rinish uchun kim o‘zaro kolxoz uzish musobaqasi davom etdi va og‘ir oqibatlarga olib keldi. Ma’naviy hayotni ma’muriy buyruqbozlik egallaganiga yana bir misol. “Biz qanday bo‘lmash, dehqonlarning kolxozga kirishini ixtiyoriylik tamoyili asosida ta‘minlashimiz kerak degan edi - F.Xo‘jayev. Sababi bahorgi ekinishlari yaqinlashmoqda, bizga yuklatilgan paxta planini bajarishimiz, xamda bu yil 18 mln put paxta tolasiga ega bo‘lish uchun kurashish kerak” edi.⁴³

Ma’lum bo‘ladiki, Markaziy Komitetdagilar kollektivlashtirishning borishini har qancha nazorat qilmasinlar, ularning asosiy diqqat-e’tibori paxta mustaqilligi uchun kurashga qaratilganligi oshkor bo‘lmoqda. Rahbarlar ko‘p yillik tajribadan to‘g‘ri

⁴² Ўзбекистон Республикаси президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,20-варак.

⁴³ Ўзбекистон Республикаси президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,21-варак.

xulosa chiqarib olmaganliklari, o‘z fikrlarini erkin, oshkora ayta olish imkoniyatiga ega bo‘lmaganliklari oshkor bo`ladi. Partiya xodimlari bu davrda yuqoridan kelgan ko‘rsatmalar asosida ish tutayotganliklari har qadamda kuzatiladi. Eng achinarlisi shundaki, yuqoridan yuborilgan rahbarlarning aksariyati mahalliy millat tilini, urf-odatlarini bilmasligi hamma damlar ruhiyatiga salbiy ta’sir qildi. Va nihoyat, kolxoz tuzishda ixtiyoriylik tamoyili buzilishi tufayli xalq noroziligi kuchaya bordi. Masalan, Bag‘dod tuman markazida 1000-1500 kishi “Bizga kolxozning keragi yo‘q” degan shiorlar ostida norozilik bildirdilar. Mirshablar bilan to‘qnashuvda dehqonlardan uch kishi, bitta mirshab, bitta vakil halok bo‘lgan.⁴⁴ Afsuski, xalqning sabr-toqati to‘lib toshsa ham, kollektivlashtirish o‘z yo‘lida avvalgiday qo‘sib yozishlar va zo‘ravonlikka asoslangan holda davom etdi. 1930-yil boshida Farg‘ona okrug komiteti (o‘rtoq Boltayevga) O‘zKP (b) MK va BKP (b) MK O‘rta Osiyo bo‘limi byurosining qarori yuborilgan. Ushbu qarorda partiya rahbarlarining aybi bilan kolxozlarda dehqonlarni ko‘chirib yuborish va qamab qo‘yish, ularni o‘z shaxsiy yeridan ajratish, suv ta’minotini to‘xtatish, oziq-ovqat berishni to‘xtatish kabi voqealar jamoalashtirishdagi zo‘ravonlik siyosati bilan tanqid qilingan. 1930-yil 17-martda Farg‘ona okrugiga Markazdan maxsus xat ham yuborilgan. Unda aytilishicha, bahorgi ekin ishlarining boshlanishi munosabati bilan qamalganlarni ozod qilish, o‘rtahol dehqonlarning va kambag‘allarning paxta solig‘ini to‘lamaganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikka tortish ishini vaqtincha to‘xtatish to‘g‘risida ko‘rsatma berilgan.⁴⁵ 1930-yil 20-mart kuni Markazdan okrug partiya komitetiga xat yo‘llashib, unda artel ustaviga xilof ravishda qator xatoliklarga yo‘l qo‘yilganligi aytilgan. Jumladan, shaxsiy xo‘jaliklardagi parranda, sigir va mayda chorva turlarini hamda shaxsiy tomorqa uchastkalarini tortib olmaslik, umumlashtirmaslik va eng asosiysi savdo uchun zarur bo‘lgan bozorlarni yopib qo‘ymaslik ta’kidlangan.

Ammo berilgan (siyosiy-O. N.) ko‘rsatmalarni amalga oshmaganligi sababli dehqonlarning kolxoz tuzumiga qarshi harakati to‘xtamadi. Masalan, Quva, Shahrixon, Asaka, Bag‘dod, Chust, Pop rayonlarida, Marg‘ilonda dehqonlarning

⁴⁴ Ўзбекистон Республикаси президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,49-варак.

⁴⁵ Ўзбекистон Республикаси президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,54-варак.

ko‘tarilishlari bo‘lib o‘tdi. Oqibatda, kolxozni tark etish ommaviy tus oldi. Masalan, Marg‘ilon tumanda 1930-yil 20-mart ma'lumotiga ko‘ra, kollektivlashtirilgan xo‘jaliklar (ular rayondagi jami xo‘jaliklarning 50% ni tashkil qiladi) dan 10 foizi qolganligi ma'lum. Farg‘ona okrugi bo‘yicha 1930-yil 17-martdan 22-martgacha, ya’ni bir hafta ichida kollektiv xo‘jaliklar soni quyidagicha kamayishi kuzatiladi (foiz hisobida):⁴⁶

| 1930- yil 17-mart | | 1930-yil 22-mart | |
|-------------------|-----|------------------|-----|
| Qo‘qon | 82% | | 65% |
| Chust, Pop | 48% | | 37% |
| Bog‘dod | 12% | | 12% |
| Quva | 80% | | 80% |
| Rishton | 24% | Ma'lumot yo‘q | - |
| Qudash | 9% | | 9% |
| Buvayda | 15% | | 15% |
| Beshariq | 11% | Ma'lumot yo‘q | - |
| Marg‘ilon | 50% | | 10% |
| Oltiariq | 48% | | 25% |
| Farg‘ona | 62% | | 25% |

Yuqoridagi raqamlardan ko‘rinadiki, kolxozdan chiqish butun okrug bo‘yicha ommaviy tus olgan.

Kollektivlashtirishni tezlashtirish bilan bog‘liq kamchilik va nuqsonlar faqat Farg‘ona okrugigagina xos bo‘lmay, balki butun respublikaning 1930-31-yil hayoti uchun xarakterli xodisadir. Masalan, Surxondaryo okrugida dastlab 4 foizi xo‘jaliklar kollektivlashtirilgan bo‘lsa, 12 kun ichida kollektivlashtirishni 95% ga yetkazish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Vaholanki, bu okrug boshqa okruglarga nisbatan iqtisodiy jihatdan kam taraqqiy qilgan okruglardan biri hisoblanardi.

Shu tariqa, O‘zbekistan bo‘yicha 1930-yil bahorigacha 51% dehqon xo‘jaliklari kolxozlarga birlashtirilgan edi. Shu davrdan boshlab kollektivlashtirish jadal sur'atlar bilan bordi. Kezi kelganda aytish kerakki, 1931-yilda Ittifoq bo‘yicha dehqon

⁴⁶ Ўзбекистон Республикаси президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,38-варак.

xo'jaliklarining yarmini kolxozlashtirishga hozirlik ko'rيلayotgan paytda O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarining 66,1 foizi kolxozlarga jalb etilib, 1932-yil oxirigacha O'zbekistonda kollektivlashtirishni 81,7 foizga yetkazish ko'zda tutildi.⁴⁷

Demak, kollektivlashtirish jatumanda bu sohada markaziy rayonlarni quvib o'tishga doir asossiz qarorlar va intilishlarning hammasi pirovardida dehqonlar noroziligiga olib keldi. Kolxozlardan chiqishlar, xatto qurolli to'qnashuvlargacha borib yetgan. Oqibatda 1931-yil kolxozlar sonining 64,1 foizdan 56,7 foizga kamayishidan boshlandi.⁴⁸ Agar okruglar misolida ko'radigan bo'lsak, Andijon okrugida 1930-yil 18-yanvarda 64,6 foiz xo'jalik kollektivlashtirilgan bo'lsa, 1930-yil fevral oyiga kelib, shundan 18,1 foizi, 1930-yil 19-apreliga kelib 16,4 foizi qoldi. Toshkent okrugi bo'yicha 1930-yil 18-yanvarda kollektivlashtirilgan xo'jaliklar 79,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1930-yil 1-fevralida bu raqam 35,4 foizga, 19 aprelda 24,9 foizga tushdi. Kolxoz tuzish siyosiy qarorlar oqibati ekanligi ochiq-oydin namoyon bo'la boshlaganini yuqoridagi raqamlar aytib turibdi.

Buning ustiga kolxoz qurilishiga doir yuqoridagi xato-kamchiliklarni murakkablashtirgan yana boshqa voqealar ham sodir bo'ldi. Masalan, VKP (b) MK ning 1931-yil dekabr plenumida paxtakor rayonlarda kollektivlashtirishni 50 foizga yetkazish, 1931-yildan boshlab kollektivlashtirishni chorvachilik rayonlarida ham tezlashtirish vazifasi qo'yildi. Zero ma'muriy-buyruqbozlik bilan ish yuritish sharoitida yoppasiga kollektivlashtirish uchun shart-sharoit yetildi, degan xulosaga kelingan va 1931-yil 10-sentabrda O'zbekistonning 52ta paxtachilik tumanda kollektivlashtirish 62,4 foizga, g'allachilik rayonlarida 49,9 foizga, chorvachilik rayonlarida 41,4 foizga yetkazildi, deb ma'lumot berildi⁴⁹ va katta siyosiy xatoliklarga yo'l qo'yildi. Oqibatda VKP (b) MK berilgan soxta faktlarga ishongan xolda, O'zbekistonda kolxoz tuzumini 1932-yilda tugatish to'g'risidagi direktivani bajarishga imkon bor degan xulosaga keldi. Bunga qo'shimcha ravishda aytishimiz mumkinki, raqamlar o'rtasida farq bo'lishiga qaramasdan, yer ishlari xalq

⁴⁷ Коллективизация сельского хозяйства в республиках средней Азии и Казахстана: опыт и проблемы.-Алматы,Гылым,1990.85-ст.

⁴⁸ Иткин А.социально-экономические предпосылки коллективизации хлопководства в средней Азии.-Т.:Госиздат УзССР,1932.200-ст.

⁴⁹ Уз РМДА.Ф-Р-196,оп-1.д.117,106-варақ.

komissarligining respublika bo‘yicha kollektivlashtirish 1930-yil 20-iyulga kelib 62,7 foizga, 1931-yil 30-dekabrdan esa 68,2 foizga yetkazildi, degan ma'lumotga asoslanib O‘z KP (b) MK 1931 yil 14 iyulda “1931- yil bahorida O‘z SSRda kolxoz qurilishi xal qiluvchi g‘alabaga erishdi” degan rezolutsiyani qabul qilagan edi.⁵⁰ Zera, yuqorining ko‘rsatmasini bajarish shart edi. 1930-yilning 10-apreldidan 1931-yilning 30-iyuniga qadar kollektivlashtirish 29 foizdan 58 foizgacha o‘sdi. Ya’ni bir yilda 100 foiz o‘sishga erishildi,⁴ degan xulosaga kelishdi va 1932-yil iyul oyiga kelib 81,7 foiz xo‘jalik majburan kollektivlashtirildi.⁵ Soxta kollektivlashtirish, qaysi jihatini olmang, faqat zo‘ravonlik bilan amalga oshirilgan tadbirlardan bo‘lak narsa emas edi. Kolxozlashtirish borasidagi jadallikka qo‘rqtish, iqtisodiyotning bir tomonlama rivojlanishi hamda aholi turmush tarzining pasayishi evaziga erishilgani bugungi kunda hech kimga sir emas. Shunday qilib, 1930-1932 yillarda partiya va sovet hukumatining ma`muriy tazyiqi, oshkora zo‘ravonlikdagi, iqtisodiy bosim choralar va siyosiy tadbirlar natijasida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirishning yuqori o‘sish sur`atlari ta`minlandi. 1931-yilda O‘zbekistonda kolxozlardagi xo‘jaliklar soni 338482 tani yoki jami dehqon xo‘jaliklarining 68,2 foizini tashkil etdi. 1932 yilda esa kollektivlashtirish 74,9 foizini tashkil etdi va xo‘jaliklar soni 638131 taga yetdi.⁵¹ Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda kollektivlashtirish rasman tamomlanganligini e`lon qilishga asos bo`ldi.

Biroq, kollektivlashtirish birinchi besh yillikda tugallangan emas. Bu jarayon qishloq xo‘jaligida yana uzoq vaqt davom etdi. O‘zbekistonda kollektiv-xo‘jaliklarni tashkil qilish shakli, mazmuni va mundarijasi buzildi. Eng asosiysi dehqonlar ishlab chiqarish vositalarining hammasi umumlashtirildi. Bizningcha, qishloq xo‘jalik arteli kolxoz harakatining bosh mezoni bo‘lib xizmat qilishi lozim edi. Bunda asosiy ishlab chiqarish vositalarinigina umumlashtirish taqozo etilar edi. Amalda esa bu haqiqat “siyosiy siquv” tufayli chetga surib tashlandi.

Kommuna tashkil etilgan joyda birdaniga turar joylar, mayda chorvalar, parrandalar ham umumlashtirila boshlandi. Qishloq odamlari onggiga to‘g‘ridan-

⁵⁰ Ризаев Г.социалистическое сельская хозяйство Узбекистана.-Т.:Узбекистан,1978.24-ст.

⁵¹ Ўзбекистон тарихи(1917-1991 йиллар) Т.:”Ўзбекистон”-2019. Б.513

to‘g‘ri salbiy (bozorlarni, masjidlarni yopib qo‘yish, teskari targ‘ibot va tashviqot) ta’sir ko‘rsatdi. Kambag‘al va o‘rtaxol dehqonlarning dastlab “ixtiyoriy” ravishda kolxozga kirishini respublikamizda kolxoz tuzumining muvofaqqiyatli qadamlari, deb baholanganda zaruriyat emas, balki tazyiq asosiy rol o‘ynaganligi tufayli, hamda jamoalashtirish asosiy me`zonlarining buzilishi oqibatida dehqonlar kolxozlarni tark eta boshladilar. Bu esa o‘z navbatida o‘ziga to‘q xo‘jaliklar orasida mulkka nisbatan munosabatning buzilishiga olib keldi va noto‘g‘ri buyruqlar norozilik kayfiyatini keltirib chiqardi, xolos.

Eng asosiy salbiy hodisa shu bo‘ldiki, dehqonlarning aksariyat qismi zo‘ravonlik bilan, iqtisodiy jihatdan ta‘minlanmagan soxta kolxozlarga kiritildi. Jamoa mulkining afzalliklari yo‘qligiga ishonch hosil qilinganidan so‘ng, dehqonlarning qattiq noroziligiga sabab bo‘ldi.

Chunki yakka dehqon xo‘jaliklarining to‘la-to‘kis tugatilishi va kolxozlar yirik umumlashgan ishlab chiqarishning yagona shakli sifatida qaror topishi sovet hokimyatining “kolxozlardan oldingi qishloq” ni sotsialistik o‘zgartirish borasidagi siyosatining tantanasi, deb baholandi. Aslida O‘zbekistondagи qishloq xo‘jaligini jamoalashtirishning sho`ro hokimyati nazarda tutgan maqsad va vazifalarning asl mohiyati dehqonlarni davlat tomonidan asoratga solish edi. Mahalliy rahbarlar sho`ro hukumatining qishloq xo‘jaligini ommaviy jamoalashtirish borasida markaziy tumanlarda olib borgan daxshatli siyosatidan to‘la xabardor bo‘lganlari xolda markazni “qo‘llashga” majbur bo‘ldilar, deyish mumkin.

Jamoa xo‘jaliklariga birlashtirish uchun dehqon xo‘jaliklariga bevosita tajovuz qilish, amaliy jihatdan buzg‘unchilik harakatiga aylanib ketdi. Ushbu usul ayrim sohalarda yuksalishga ko`maklashgan bo‘lsada, oqibat natijada xalqlarning milliy o‘ziga xosligini yo‘q qilinishiga, ular madaniyatining va iqtisodiy hayotining yomonlashuviga olib keldi. Bu xil soxta ijtimoiy qurilish ko‘p yillar mobaynida anglab yetilmasdan, chinakam revolutsion metod sifatida olg‘a surildi va unga amal qilindi. O‘zining barcha kuchini O‘zbekistonkomfirkasi yer-suv islohoti davrida yerni milliylashtirish, xususiy mulkni yo‘q qilish, ishchi kuchini yollashda cheklashlar joriy

etish, “xo‘jalik yuritishning sotsialistik formalarini” tadbiq etish kabi ishlarga sarfladi.

Va nihoyat, firqa va sho`ro hokimyatining agrar sohadagi “eng muhim tadbirlaridan biri” shu bo‘ldiki, xo‘jaliklarni ixtisoslashtirish iqtisodiy hayotda katta ahamiyat kasb etishi, ayniqsa industrlashtirish o‘z ulushini qo‘sishi lozim edi. Lekin O‘zbekiston mehnatkashlari uchun faqat paxtachilik bilan shug‘ullanishning salbiy oqibatlari, biz yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, 20-30 yillardayoq ko‘zga chalingan edi. Paxta, g‘alla, jo‘xori, makkayi, sholi, poliz ekinlarining kamaytirilishi ocharchilik yillarida o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Ammo tarixiy asarlarda 30 yillar oralig‘idagi xato va kamchiliklar to‘g‘risida ma’lumot kam keltiriladi, balki ko‘proq ixtisoslashtirish himoya qilinadi.

Sababi - ma’muriy-buyruqbozlik tizimi kuchaygan bir paytda ixtisoslashtirishga qarshi chiqqan qishloq aholisi “nomunosib” nom bilan atalib, ulardan qattiq o‘ch olindi. Kezi kelganda aytib o‘tish lozimki, firqa va sho`ro hukumatining ommaviy kollektivlashtirish xalqqa qarshi zo‘ravonliklar ham amalga oshirildi.

1929-yilning kuzidan terror usulidagi siyosiy qarorlarni bajarish uchun raqamlar ortidan quvish va qishloq xo‘jalik artellari mulkining davlatlashtirilishi boshlandi. Bu jarayon kolxozlarda nafaqat artelning bo‘linmas fondidan, balki ishlab chiqarilgan mahsulotlardan ham foydalanish huquqini yo‘qligida o‘z aksini topdi. Kolxozlarda ishlashga majbur etilgan ishchi kuchining davlatlashtirilishi sodir bo‘ldi. Natijada, kolxozlar davlatning harbiy-siyosiy manfaatlariga xizmat qila boshladi. Davlat va kolxozlar o‘rtasidagi munosabatlar, boshqa qishloq xo‘jalik korxonalar bilan bo‘lgan munosabatlar kabi, shartnomalar asosida tuzilmagan bo‘lib, davlat buyurtmalari tizimi orqali amalga oshirildi. Ular faoliyatining natijalari birinchi navbatda mahsulot topshirishning majburiy tartibi va davlat tomonidan sotib olinish topshiriqlarining bajarilishi bilan baholanadi. Bunday siyosatning pirovard natijasi shu bo‘ldiki, dehqonlar shaxsiy manfaatlarining yakuniy natija bilan bilan aloqadorligi buzildi. Bevosita ishlab chiqaruvchi mahsulot ishlab chiqarishning ko‘payishidan manfaatdorlik sezmasdi. Chunki, uning mehnat natijalari to‘lig‘icha davlat xisobiga olinar edi. Xo‘jaliklar o‘z ishlab chiqarish tuzilmalarini mustaqil ravishda

shakllantirish imkoniyatidan ham mahrum etilgan bo‘lib, ko‘pincha hech qanday foyda keltirmaydigan, ayrim hollarda faqat zarar keltiradigan mahsulotni ishlab chiqarishga majbur edilar. Oqibatda qishloq mexnatkashlari davlat hisobiga ishlaydigan ishchi kuchiga aylanib qoldilar.

Shunday qilib, kolxoz qurilishi sur'atlarini sun'iy ravishda avj oldirish kolxozlarni “sotsialistik asosda mustaxkamlash” ko‘p sonli odamlarning qurban bo‘lishiga, begunoh qonlar to‘kilishiga sabab bo‘ldi. Oqibatda respublikada faqat bir xil shakldagi kolxoz tuzumi qaror topdi.

Xo‘jalik yuritish tamoyillarining buzilishlari shunga olib keldiki, sotsializm umid bog‘lagan kollektiv xo‘jalik shakli dehqonlarni shavqatsiz ekspluatatsiya vositasiga aylanib qoldi. Kollektivlashtirishning ilk bosqichidan oxirigacha kolxozlar hech qachon o‘zining haqiqiy imkoniyatlari va mustaqil kooperativ xo‘jalik sifatidagi ustunliklarini ro‘yobga chiqara olmadilar, ular ustidan doimiy ravishda ma’muriy-buyruqbozlik tizimi hukumronlik qildi. Sotsializmning eng muhim g‘oyalaridan biri bo‘lgan kooperatsiya shu tariqa xalokatga uchradi.

Hozirgi vazifa - bosib o‘tilgan yo‘lni sarhisob qilib, uni yangicha tahlil etishdir. Bu faqat muvoffaqiyatlar tarixini yoritib bermasdan, balki xato-kamchiliklarni ham ochib tashlab, tarixiy chigalliklarni bartaraf etish, keljakni belgilab olishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

1.3. Qishloq xo‘jaligining moddiy texnikaviy ahvoli.

Ommaviy kollektivlashtirish davrida qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasini yaratish yo‘lida ayrim ishlar qilingani ma’lum. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mintaqasi hisoblangan respublikamiz qishloq xo‘jaligida paxtachilikni va respublikamizda tashkil topgan xo‘jaliklarni texnika bilan ta’minalash yo‘lidagi dastlabki qadam (1929-yil Asaka tumanida MTSlarning tashkil qilish bilan) tashlandi. 1929-yilning oxiriga kelib respublikamizda jami 1093ta kollektiv xo‘jalik texnika bilan ta’minalangan.⁵² Ammo MTSlarning ish faoliyati asosan kolxozlarga faqat bahorgi ekin ishlarida (paxtachilikda – O.N.) yordam berish bilan cheklanib qoldi. 1930-yilning o‘zida 26427 getktari yangi yer qishloq xo‘jaligi oborotiga qo‘shilgan bo‘lib, shundan 20113 getktari paxta ekiladigan maydonlarni tashkil etgan. Demak, asosiy e’tibor paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan edi. Paxtachilikni rivojlantirish markazning asosiy e’tiborida bo‘lganini tasdiqllovchi qarorlarga murojaat etaylik. BKP (b) Mkning 1930-yil 10-sentyabrdagi “Mashina–traktor stansiyalarning qurilishi va boshqaradigan traktorlar hamkorligida barcha ishlar davlat ixtiyoriga o‘tkazilgan⁵³ va MTSlarni siyosiy qarorlarni so‘zsiz bajaruvchi tashkilotga aylantirish shu tariqa boshlandi. Shu bois, respublikamizda markazning xohish-irodasiga mos bo‘lgan yangi qishloq xo‘jaligini moddiy texnika bazasini yaxshilash maqsadida 1930-yilning 30-sentyabrida O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (СредАзЭКОСО Среднеазиатский Экономической Совет) prezidiumining 1930-31-yillarida MTSlar qurilishi va traktor ishi vazifalari to‘g‘risidagi qaroriga ko‘ra¹ respublikamizda 1930-31-yillarda 48 rayonda 39 ta yangi MTSlar tashkil qilish va tashkil etilgan MTSlar faqat paxtachilikni rivojlantirishga xizmat qilishi lozimligi hujjatda alohida qayd qilingan.

Bundan tashqari kolxozlarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va MTSlarning ish unumdarligini oshirish ko‘p hollarda irrigatsiya ishlarida yaxshilashga ham bog‘liqligi hisobga olinib, bu ishlarga 234,9 ming mablag‘ ajratilgan va paxta ekin maydonlarning hajmi shu yillar oralig‘ida 246,ming getktarga

⁵² Ўзбекистоннинг янги тарихи.2-китоб.Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида.-Тошкент; Шарқ,2000.-357-бет.

⁵³ ЎзР МДА Ф-212,рўйхат 1,53 йигма жилд,4-варак.

oshgan. Umuman, 1933-yilga kelib paxta respublikamizda tayyorlab beriladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari umumiy hajmining 81,5% ini tashkil etgan⁵. Oqibatda respublikamizda don mahsulotlarining yetishmasligi, ocharchiligining vujudga kelishiga shu tariqa zamin tayyorlanganligi xususida voqealarni tahlil qilish orqali ma’lum xulosalar chiqarishga harakat qilmoqchimiz.

Yoppasiga kollektivlashtirish davridagi asosiy salbiy oqibatlar kolxoz qurilishi dushmanlarining (o‘rta hol dehqon xo‘jaliklari nazarda tutilmoxda –O.N) aybi bilan yuzaga kelgan, degan umumiy xulosa chiqarish bilan kifoyalanish fanda uzoq vaqt tantana qilib kelgani ma’lum. Lekin bu xulosa umumiy ahvolni oydinlashtirishga ojizlik qiladi. Buning uchun qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasini yaxshilash manbalari va faktlarini tahlil qilish lozim. Arxiv hujjatlaridagi raqamlarga murojaat etsak, bu borada ayrim chalkashliklar mavjudligini aytib o‘tish joizdir. Masalan, MTSlar uchun to‘rt turdag (fordzon, Interatsional, Forion, Putilovets) traktorlardan 6000 tasi keltirildi, degan ma’lumot mavjud.⁵⁴ Yana bir ma’lumotda esa 1930-yili 5176 ta traktor keltirilgan, degan ma’lumot ham haqiqatga yaqin emas⁵⁵. Vaholanki 1930-yili respublikamizda bor-yog‘I 180 ta traktor keltirilgan haqiqatga yaqinroq.⁵⁶ Bu hujjatlarni tahlil qilishda aniqlandi. Shuningdek, “Узбекистанская правда” (1932-yil 7-noyabr) gazetasida ham notog‘ri raqam berilgan bo‘lib, respublikamizda 827 tadan ortiq MTSlar tashkil etilgan, degan ma’lumotga haqli e’tiroz bildirib aytamizki, respublikamizda 1937-yilda MTSlar soni 163ta bo‘lganligi ma’lum.

Yuqoridagidek noto‘g‘ri ma’lumotlar berilishining bosh sabablaridan biri mafkuraviy siyosatga xizmat qiluvchi soxta qarorlardir. Masalan, paxta mustaqilligiga erishish yo‘lida VKN (b) Mknng 1929-yil 18-iyuldag qaroriga ko‘ra, birinchi besh yillikda respublikamizga 15 mingga yaqin traktor keltirishi vazifasi qo‘yilgan.

Markaz qarorini bajarish borasida 1924-yilning 10-dekabrida Toshkentda O‘rta Osiyoda yagona “Transmarkazi” ochildi, 1930-yilning kuzida 246ta , keying yili

⁵⁴ ЎзР МДА Ф-212, рўйхат 1, 26 йигма жилд, 6-варак.

⁵⁵ ЎзР МДА Ф-212, рўйхат 1, 56 йигма жилд, 189-варак.

⁵⁶ ЎзР МДА Ф-212, рўйхат 1, 26 йигма жилд, 7-варак.

3918 ta traktorlar keltirilib, ularning umumiy sonini 5176 taga yetkazishga qaror qilindi.

Ammo tahlil shuni isbotlaydiki, respublikamizda keltirilgan Traktorlarning umumiy miqdori masalasida noaniqliklar mavjud. Har holda 1930-yilda keltirilgan traktorlarning umumiy soni 298 –180 oralig‘ida bo‘lgan, deyish mumkin. Berilgan boshqa raqamlarning to‘liq tasdig‘ini topmadik.

Kezi kelganda aytib o‘tish lozimki, tarixchi olimlar Aminova R.H.Ibragimova A.Yu., Jamolov O.B.⁵⁷ va boshqalar ning yuqorida berilgan faktlar ijobiy hol, degan xulosalar bilan cheklanib qolganliklari haqiqatga yaqin emasligi ayondir.

Shuningdek, MTSlar faoliyatining muhim jihatlaridan biri ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash borasidagi ishlar ham yuqoridagi olimlarning asarlarida aytilganidek unumli bo‘lmagan ma’lum.

Masalan, birgina 1930-yili MTSlar uchun zarur 400 vagon yog‘och materiallari o‘rniga bor-yog‘i 90 vagon yoki 23 vagon sement o‘rniga 9 vagon keltirilishi fikrimiz dalilidir. Yoqilg‘i mahsulotlari bilan yomon ta’minalash ham MTS faoliyatiga o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazgan. Masalan, Farg‘ona okrugida har bir xo‘jalikdagi 2 traktordan biri yoqilg‘i bo‘lmaganligi tufayli ishlamay turganligi to‘g‘risida ma’lumot mavjudligi aniqlandi.

Natijada, to‘planib qolgan muammolarni hal etishda bir yoqlama tomonlama harakat qilish, kamchiliklarga e’tibor bermaslik, har bir mintaqaning tabiiy sharoiti, joylardagi ichki muhit, odamlar psixologiyasi bilan ishslash deyarli ma’muriy buyruqbozlik bilan almashtirilishi tufayli qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasini bunyod etishda ko‘plab xato-kamchiliklar yuz berdiki, biz ularni alohida-alohida qarab chiqib, masalaning yaxlit manzarasini topishga harakat qildik va yo‘l qo‘ylgan xato-kamchiliklarning respublikamiz miqyosidagi ko‘lamini tahlil etib chiqishni maqsad qildik. Chunki qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash miqyosidagi ko‘lamini tahlil etib chiqishni maqsad qildik. Chunki qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash davrida ma’muriy buyruqbozlik va noteng shartnomalar, MTS bilan kolxozlar o‘rtasidagi aloqalarning

⁵⁷ ЎзР МДА Ф-212, рўйхат 1, 56 йигма жилд, 189-варак.

tashkil etish davridagi xato-kamchiliklarning hammasi kolxoz tuzumi davrida salbiy iz qoldirdi. Bundan tashqari, kollektivlashtirish, ayniqsa yoppasiga kurash davrida o‘zaro chalkashliklar oqibatida kolxozlarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi uchun zarur shart-sharoitlar bo‘lgan emas, bu davrda chiqarilgan qarorlar va yo‘llanmalar joylarda to‘g‘ri qabul qilinmagan. Eng asosiysi, kolxozlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash vazifasi ko‘zlagan maqsadiga erisha olmadi. Bugina emas, mazkur siyosat kolxozlarning iqtisodiy taraqqiyotiga ayrim hollarda zarar yetkazish darajasiga borganligini ko‘rshimiz mumkin. MTSlar faoliyati ko‘proq ichki imkoniyatlar evaziga emas, balki chaqiruv asosida kelgan xodimlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lganligi, xalqning diniy urf-odatlar hamda MTS xodimlari bilan oddiy kolxozchilar o‘rtasida o‘zaro muloqot qilish sust borganligi, mahalliy xalqning fikr-mulohazalari inobatga olinmasligi tufayli MTSlar ko‘zlangan maqsadga erisha olgan emas.

Respublikaga qishloq xo‘jalik texnikasini keltirishdan tashqari bu mashina - uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish va yetarli shart-sharoitlar yaratib berish ham muhim masalalardan biri bo‘lib qoldi. Texnik xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar yetarli emasligi, o‘z ishini puxta biladigan ishchi-mexaniklarning yetishmasligi noqulay qishloq sharoiti vaziyatini og‘irlashtirardi. Shuning uchun 1929-yilning 10-dekabrida Toshkentda O‘rta Osiyo yagona “Traktor markazi” ochildi. Bu markaz 1930-yil kuzida 246 traktor olishi mo‘ljallangan edi. Keyingi yil esa 3918 traktor olish rejalashtirildi. Shuningdek, 31 ta MTSlar ochilishi mo‘ljallandi. Traktorlar sonini 5176 taga yetkazishga qaror qilindi.⁵⁸

Umuman, O‘zbekistonda mavjud MTSlar ish faoliyatini tahlil qilib chiqadigan bo‘lsak, quyidagi holatni ko‘rshimiz mumkin. Asaka tumaniga borgan tekshiruvchilar aniqlagan ma'lumotlarga ko‘ra, 1930-yil 2-fevraldan 5-fevralgacha bo‘lgan vaqt mobaynida rayondagi MTSlar ish- faoliyatini quyidagicha bo‘lgan: “MTS” da hammasi bo‘lib Fordzon tipidagi 132 ta traktor mavjud bo‘lib, “ATD” markali pluglar soni - 50 ta, “VDU” markali 35 ta, “Oliver” markali 17 ta; ushbu traktorlardan 19 tasi Quva tumandagi MTSga , 10 tasi Shahrixon MTSga yuborilgan .

⁵⁸ ЎзР МДА Ф-212, рўйхат 1, 56 йигма жилд, 189-варак.

Ammo MTS ish-faoliyatida kamchilik va nuqsonlar mavjud bo‘lib, ekish ishlari arafasida 40 traktor ta'mirga muhtoj holda hamda 22 ta traktor ta'mirlanayotgan bo‘lib, ishga yaroqli 18 ta traktor borligi aktda qayd etilgan.⁵⁹ Shahrixon MTSga yuborilgan 10 ta traktoring birontasi ham ishlatilgan emas. Ushbu faktlar 1931-yil 6-apreli dagi aktda qayd qilingan. Shahrixon tumanning umumiy yer maydoni 28927 hektar bo‘lib, shundan 14135 hektari sug‘oriladigan yerlar hisoblanardi. Texnikaning nosozligi tufayli yarlarni haydash asosan qo‘sh - omoch hisobiga bajarildi. Jumladan, jami ishchi hayvon turlari 4957 bosh bo‘lib, shulardan 2985 tasi ot, 1972 tasi hokiz edi. Asosiy ekin ishlari ana shu chorvalar yordamida bajarildi.⁶⁰ Shu rayondagi Kalinin nomidagi kolxozda 1930-yil ekish kompaniyasi arafasida kolxozda bironta ham ot qolmaganligi to‘g‘risida qishloq xo‘jaligi boshqarmasining instruktori Kostetskiy tomonidan hujjatda qayd qilingan. Umuman, 1930-yil respublikada MTS lar yordamida 192375 hektar paxta maydonining 73425 hektarini haydash ko‘zda tutilgandi. Qolgan 6750 hektarini esa ishchi hayvonlar yordamida haydash mo‘ljallangandi. Ammo bu rejani bajarishning iloji bo‘lmagan. Sababi- texnikani boshqaruvchi kadrlar tayyorlash, xodimlarga shart-sharoit yaratib berish va nihoyat ehtiyyot qismlar yetishmasligi. Bu faktning to‘g‘riligini O‘zKP (b) MK kotibi Leponing O‘zSSR XKS raisi F.Xo‘jayevga yo‘llagan maktubi ham tasdiqlaydi. Unda aytishicha, Mirzacho‘l tumanda sug‘oriladigan va lalmikor yarlarni qo‘shib hisoblaganda 22767 hektar yer mavjudligi, ammo 1931-yil 15-fevralgacha yer haydash topshirig‘i 5 foizga va lalmikor joylarda 35 foizga bajarilganligi, bu esa rayon bo‘yicha 10 foizni tashkil etishi qayd qilingan.⁶¹

MTSlar bilan xo‘jaliklar o‘rtasida tuzilgan shartnomalar og‘ir va noteng edi. Masalan, “Traktor markazi” qarori bilan yangi ochilgan har bir hektar yer uchun kolxozi MTSga avval 15-16 so‘m, keyinchalik 32 so‘mdan to‘lashi lozim edi. MTS xizmat ko‘rsatayotga kolxozlarning iqtisodiy qudrati bir xilda emas edi. MTS ma’muriyatiga har doim ham mahalliy sharoit, kolxozi mexnatkashlari bilan hisob-kitob qilish hamda ularning fikrlarini eshitishni xohlamasliklari oqibatida qishloq

⁵⁹ ЎзР МДА Ф-212, рўйхат 1, 231 йигма жилд, 5-варак.

⁶⁰ ЎзР МДА Ф-212, рўйхат 1, 301 йигма жилд, 45-варак.

⁶¹ ЎзР МДА Ф-837, рўйхат 9, 443 йигма жилд, 18-варак.

xo‘jaligini iqtisodiy jihatdan qayta qurish o‘z maqsadiga erishish yo‘lida ko‘plab muammolarga duch keldi.

Shuningdek, joylarga yuborilgan mutaxassislar yerli aholi tilini bilmasliklari ko‘p anglashinmovchiliklar keltirib chiqardi. Agronomlar tub joy xalq tili bilan tanish bo‘lmaganliklari tufayli dehqonlarga yangi texnikani qanday ishlatish lozimligini tushuntirib bera olmasliklari oqibatida MTSlar faoliyati sust bo‘ldi. Bu davrda MTS bilan kolxozlar o‘rtasida mahalliy sharoitga to‘g‘ri kelmaydigan havoyi shartnomalar tuzilgan. Masalan, O‘rta Osiyo paxtakorlari bilan Moskva, Pvanovo va Leningrad to‘qimachilari sotsialistik musobaqasi shartnomasi loyihasining 6- bo‘limida: “Paxtachilikni ko‘paytirish uchun don ekinlariga yaroqli yerlar xajmini qisqartirish”, hamda shartnomaning 13-bo‘limida “sovxozlarda shudgor qilish, paxta ekish, yumshatish, terimni mexanizatsiyalashni 100 foiz amalga oshirish” ko‘zda tutilgan. Ammo shartnomada ko‘rsatilgan takliflar bilan kolxozlardagi haqiqiy vaziyat mos emas edi. Respublikaga kelgan, tarixda “25- mingchilar” nomi bilan yuritiladigan xodimlar oldiga bitta vazifa, u ham bolsa-paxta maydonlarini kengaytirish va hamma turdagи ishlаб chiqarishni umumlashtirish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, shartnomada va takliflar mahalliy axoli hamda ma’muriy-buyruqbozlik izmiga tushib qolayotgan xodimlar uchun yo‘llanma edi, xolos.

Aytish kerakki, “25-mingchilar” qatorida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish uchun kelgan ishchilar o‘z vazifasini mas’uliyat bilan bajarmagan. Vaziyatni o‘z vaqtida anglab yetmaganlar. Masalan, Andijon tumandagi MTS direktori Baronin hamda direktor o‘rinbosari Simson xalqning g‘azabini keltirdilar. Ular dala ishlari qiyinchiliklari, deb masjidni yopib qo‘ydilar. Ikkinchidan, o‘zlar ichkilikbozlikga berilib ketdilar va mansablarini suiste‘mol qila boshladilar. Natijada, xalq kolxozni tugatishni talab qildi. Xatto ahvol qurolli to‘qnashuvgacha borib yetdi.⁶² Ushbu noxush voqeа 1931-yili 13-iyunda yana avj oldi va butun Qo‘qon qishloq aholisi MTSga qarab yurdi. Natijada, MTS binosini to‘liq vayron qilish xavfi paydo bo‘ldi. Rahbar xodimlar aralashuvi bilan masala ijobjiy hal etildi. Simson qamoqqa olindi. Simsonning mahalliy aholi bilan mushtlashgani va xalqni

⁶² ЎзР МДА Ф-212, рўйхат 1, 56 йигма жилд, 293-варак.

haqoratlagani to‘g‘risida ma'lumotlar mavjud. Bunday xolat o‘lkada millatchilik urug‘ini sepishdan boshqa narsa emas edi.

Qishloq xo‘jalik moddiy-texnika bazasini mustahkamlash davrida “yangi o‘qituvchi-o‘rgatuvchi”⁶³ larning respublikaga kelishi xalqning kayfiyatiga mos kelmagan. Shuningdek, bu o‘qituvchilarning dehqonlarning an'anaviy turmush-tarzini o‘zgartirmoqchi bo‘lishi milliy kamsitish hissining paydo bo‘lishiga olib keldi. Sabab nimada?

“Kolxozmarkaz”ning arxiv hujjatlarida aytiladiki, O‘zbekistonga kelgan 25-mingchilarining 433 nafari partiya xodimi bo‘lib, qishloq xo‘jaligi bilan tanish emas edilar. Shunga qaramasdan 139 partiya xodimi kolxoz raxbarligiga, 57 kishi rayon tashkilotlariga raxbarlikka qo‘yildi.⁶⁴ Ularning faoliyati ko‘proq MTSlar bilan bog‘langan bo‘lib, ularning zimmasiga har qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham paxta mustaqilligiga erishishni ta‘minlash yuklatilgan edi, xolos.

Qishloq xo‘jaligi murakkab soha bo‘lib, ko‘p bilim va tajriba talab qilishi tufayli O‘zbekistonga kelgan 279 nafar 25-mingchilardan faqat 170 kishigina kolxozlarda ishlab qoldi. Qolganlari o‘z ish o‘rinlarini o‘zgartirishga majbur bo‘ldilar. Moddiy texnika bazasini yaxshilash yerga mehr qo‘yanlar tomonidan amalga oshirilishi lozimligi dolzarb muammo bo‘lib, siyosiy qarorlar bu masalaga to‘g‘ri yondashishga imkoniyat bermadi.

Yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlovchi hujjatlardan biri shuki, 1930-yil Yangiyo‘l tumanda bo‘lib o‘tgan paxtakorlarning syezdida tuman rahbarlaridan Navro‘zboyev so‘zga chiqib, shunday deydi: “Kolxozlarni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash traktorchilarga, ayniqsa mahalliy kishilarga ko‘proq e’tibor berish kerak”. Shuningdek syezdda “Kambag‘allar uyushmasining raisi Nazarovning ta‘kidlashicha, siyosiy ko‘rsatmalarni bajarish maqsadida traktor bilan haydalgan yerlar kamligi va talab darajasida emasligi, qo‘shib yozishlar bo‘layotganligi qayd qilindi”⁶⁵. Kolxozlarning ko‘pgina qismida bolalarning ta’lim olishi uchun maktab yo‘qligi, borlari ham e’tiborsizlik tufayli talab darajasida emasligi, shuning uchun savodli

⁶³ «Фан ва турмуш». 1992.2-сон. 10-бет.

⁶⁴ ЎзР МДА Ф-212, рўйхат 1, 56 йиғма жилд, 296-варак.

⁶⁵ Тошкент ВДА.Ф-182, рўйхат 1, 798 йиғма жилд, 6-варак.

kishilar kamligi, bu esa kolxoz tuzumi jonlanishiga xalaqit bergani muhim omillardan bo‘lgan.

Demak, kolxoz tuzumini mustahkamlash, ayniqsa uning moddiy-texnika bazasini yaxshilash, birinchi navbatda kadrlar tayyorgarligiga vobasta ekani ayon bo‘ldi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, ko‘proq ishni tashkil qilish va olib borishga bog‘liq edi. Xullas, kolxozlarni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash muhim vazifalardan biri ekanligiga ham e’tibor berildi. Bu davrda respublika qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika jihatidan yetarlicha mustahkam bo‘lmagan, albatta. Bu xol hatto hukumat qarorlarida qayd qilingan. Masalan, VKP (b)MK O‘rta Osiyo byurosining 1932-yil 7-iyundagi “MTS larning ishlab chiqarish uchastkalaridagi ish-faoliyati” to‘g‘risidagi qarorini taxlil qilsak, MTSlar o‘z faoliyatlarini yaxshi yo‘lga qo‘ymaganliklari, hosildorlikni oshirish tadbirlarini ishlab chiqmaganliklari, MTS rahbariyati ko‘p xollarda buyruqbozlikdan nariga o‘tmaganliklari, kolxozchi dehqonlarning taklif va mulohazalari inobatga olinmaganligi sababli MTSlar har doim ham o‘zlari ko‘zlagan maqsadlarga erisha olmaganliklari ma'lum bo‘ladi. Shuningdek, 1932-yil 31-yanvarida O‘rta Osiyo byurosining “MTSlar ishi to‘g‘risida” gi majlisida ko‘pgina rayonlarda MTSlarga aniq rejali raxbarlikning yo‘qligi sababli ko‘pgina agroxodimlar o‘z uchastkalaridagi ishlab chiqarish vazifasi bilan shug‘ullanmasdan, xisob-kitob va devonxona ishlari bilan shug‘ullanib, ko‘p vaqtlarini shu ishlarga sarf qilganliklari ma'lum bo‘ladi.⁶⁶ Bu davrda MTSlar mablag‘ini asossiz o‘marish, bekorga sarf qilishlar yuz berdi. Xatto MTS agronomlari o‘z yer uchastkalarini aniq bilmasliklari oddiy bir xolga aylanib borgan. Buni isbotlash uchun hujjatlar yetarlidir. Masalan, VKP(b) MK 1931 yil yanvaridagi qarorida¹ “Traktor markazi” partiya tashkilotlarining rahbarlari ko‘p hollarda o‘zining ishlariga nomigagina munosabatda bo‘lib, MTSlar uchun kadrlar tayyorlash, hamda ishning bir me'yorda ketishini ta'minlashda xatoliklarga yo‘l qo‘yanlar. Masalan, partiya xodimlariga kolxoz tuzumi uchun, ayniqsa MTSlar uchun yangi ishchi kadrlarni iloji boricha kolxozchilarning ichidan tayyorlash

⁶⁶ Аминова Р.Х.так остида.Сплошная коллективизация сельского хозяйства в Узбекистане (1930-32гг.)-Т.,Узбекистан,1980.172-174ст.

masalasi ham dolzarb ekanligi rahbar xodimlarga ko‘p marta uqtirilgan va hukumat siyosiy qarorlarida o‘z aksini topgan edi.

Oqibatda, MTSlarning ish faoliyati ko‘ngildagidek tashkil qilinmagan va qishloq xo‘jaligida va umuman dehqonchilikka oid bo‘lgan ishlar reja asosida olib borilmadi hamda belgilangan rejalar haqiqatdan ancha yiroq bo‘lib, ish bilan so‘z o‘rtasida uzilishlar borligi, shuningdek, mintaqaning geografik shart-sharoiti yaxshi o‘rganilmaganligi, o‘zlaricha “donolik” qilib mahalliy xalq bilan hisob-kitob qilmaslik, uni mensimaslik, xatto haqorat qilish darajasidagi voqealar tufayli MTSlar oldiga qo‘yilgan siyosiy qaror va ko‘rsatmalarni bajarish, umuman qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga salbiy ta’sir o‘tkazdi. 1932-yili respublikada 2809 traktor mavjud edi, deyish o‘rinli emas, deb o‘ylaymiz.

Va nihoyat, respublikamiz miqyosida yuqoridagi raqamlarga tayangan xolda, qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika bazasi yetarli bo‘lgan hamda dehqonlar va dehqonlar mehnatini yengillashtirgan. Mehnat unumdorligini oshirishga va mahsulot turlarining ko‘payishiga yordam bergen bo‘lishi kerak edi. Hamda kolxoz qurilishining (chorva bilan - O.N.) intensiv rivojlanishi soxta kollektivlashtirish davrida qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashdan o‘zib ketganligini ko‘rib chiqdik. Birgina 1933-yilga kelib, qishloq xo‘jalik ishlarining 3/4 qismidan ko‘prog‘i hali ham mahalliy primitiv mexnat qurollari hamda ish hayvonlari yordamida bajarilib, paxtachilik sohasida ham dehqonlar mehnatining ko‘p qismi qo‘l kuchiga tayangan holda olib borilgan. Masalan, O‘zbekiston bo‘yicha 1931-yil 21-iyul ma'lumotiga ko‘ra boshoqli don ekinlari maydoni 331196 getktarni tashkil etgan bo‘lib, shundan texnik yordamida 87050 getktari, ish hayvonlari yordamida 88619 getktari qo‘l kuchi bilan 1555527 gettaridagi don mahsulotlari yig‘ishtirib olingan.⁶⁷ Yuqorida MTSlar faoliyatidagi xato-kamchiliklarning oldini olish uchun markazning qishloq xo‘jaligiga siyosiy rahbarligini mustahkamlash zarur degan qarorga kelindi. Shaxsan Stalinning taklifi bilan kolxoz qurilishidagi kamchiliklarining oldini olish va jamoa xo‘jaliklariga yordam berish, jamoa xo‘jaliklarini “quloqlardan”, ichki dushmanlardan tozalash, tashkiliy xo‘jalik munosabatlarini mustaxkamlash

⁶⁷ Аминова Р.Х. Возвращаясь к истории колективизации в Узбекистане.- Т.: Фан, 1995. 8 ст

maqsadida MTSlar va sovxoziq qoshida siyosiy bo‘limlar tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

MTSlearning siyosiy bo‘limlari kolxozlarni “mustaxkamlash” ning samarali vositasi bo‘lib, ular 1933-1934-yillarda partiyaning qishloqdagi favqulotda organi sifatida faoliyat ko‘rsatdilar. Lekin paxta hosildorligi hamda MTSlar ro‘lini soxta raqamlar bilanoshirib ko‘rsatish avj olib, paxta yakkaxokimligi jadal sur’atlar bilan ta’minlandi. 1930-33-yillardagi ocharchilik paxta yakkahokimligining bevosita oqibati ekanligi uzoq vaqt aytilmadi.

Oldinlari MTSlar qishloq xo‘jaligi uchun texnika markazi bo‘lgan bo‘lsa, endi ular xo‘jalikning siyosiy tashkilotchilari va dehqonlar o‘rtasida, kommunu va artellarda siyosiy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va eng asosiy vazifa (hosildorlikni oshirish- O.N.) uchun kurash yo‘lini tanlaganliklari ayon bo‘ladi.

Sovet hukumati qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish maqsadida bir qancha tadbirlar ko‘rdi. Yangi tashkil etilgan jamoa xo‘jaliklarini yakka dehqon xo‘jaliklaridan ustun qilib ko‘rsatish maqsadida ularni kuchli texnika bilan ta’minalash uchun MTS MOSlar tuzildi. Asl maqsad esa MTSlarni ommaviy jamoalashtirish siyosatini amalga oshirish quroliga aylantirish bo‘ldi. Stalining taklifi bilan VKP(b) MK va MNKning 1933 yil yanvarida bo‘lib o‘tgan qo‘shma plenumida kolxoz qurilishini mustahkamlash uchun MTSlar qoshida siyosiy bo‘limlar tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.⁶⁸ MTSlearning siyosiy bo‘limlari Moskva raxbaryatining yo‘lini amalga oshira borib, keng miqyosda jazolash harakatlarini avj oldirdilar. Ular faoliyatining faqat birinchi yilidayoq kolxozlar 7700 "zararli" kishidan "tozalandi". Hujatlardagi ma'lumotlarga qaraganda, 1930-1933-yillarda kolxozlarga, o’sha vaqtda aytishicha “suqilib kirib olgan” qulqlar va “yot unsurlar” dan 30 mingdan ortiq kishi haydab chiqarilgan. Ulardan aksariyati bir qolipda “Jamoalashtirishga qarshi faol chiqishlari uchun” degan ayblov bo‘yicha qatag‘on qilindi.⁶⁸

Shunday qilib MTSlar va sovxoziq huzuridagi siyosiy bo‘limlar dastlab tashkiliy-xo‘jalik vazifalarini bajaruvchi organ bo‘lsa, keyinchalik bu bo‘lim siyosiy

⁶⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб.- 355 бет

tashkilotga, nihoyat hokimiyatdan ham ustun turuvchi ma'muriy-buyruqbozlik organiga aylantirildi. Siyosiy bo'limlarning qishloq xo'jaligini kadrlar bilan ta'minlash, intizom o'rnatish va mehnatni tashkil etishdagi ishlari matbuotda keng ko'lamda maqtaldi. Lekin kolxoz ichki demokratiyasini buzishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar ro'yrost aytilmadi. Aksincha, O'zKP(b) MK kotibi A.Ikromov ta'kidlaganidek,⁶⁹ tuman ijroiya qo'mitasi raisini ishdan bo'shatish oson, MTS direktorini ishdan bo'shatib ko'rchi, bu- qiyin... ushbu fikrdan ma'lumki MTSlar faoliyatiga siyosiy tus berish kuchaytirilgan. Oqibatda siyosiy bo'limlar o'z faoliyatini suiste'mol va nohaqliklarga yo'l qo'yib, jamoa xo'jaliklari ustavini buzishlar, xo'jalik a'zolarini kolxoz yig'ilishi qarorlarisiz ishdan bo'shatish oddiy voqeaga aylanib qolgan.

Qishloq xo'jaligini jamoalashtirish agrar sohadagi yirik soxta tadbirlardan bo'lib, katta ijtimoiy-iqtisodiy fojialarga olib keldi. Soxta jamoalashtirish bilan bog'liq boshqa bir qancha masalalar - SSSRning paxta mustaqilligi uchun kurash, xalq xo'jaligini rivojlantirish besh yilliklari, MTSlar va ular qoshidagi siyosiy bo'limlar 25-mingchilarining safarbar etilishi, jamoa xo'jaliklarini yiriklashtirish kabi tadbirlarning amalga oshirilishi ijtimoiy va iqtisodiy sohaga salbiy ta'sir ko'rsatdi, xolos.

Xullas, O'zbekistonda kollektivlashtirishni amalga oshirish davrida qishloq xo'jaligini texnikaviy jihatdan qayta qurish talab darajasida emas edi. O'zbekistonda traktorlar va boshqa turdag'i texnika vositalaridan unumli foydalanish imkoniyati bo'lmagan. Mavjudlari esa ishlatilmagan yoki qisman ishlatilgan. Kolxozlardagi asosiy ishlar qo'l kuchi va ish hayvonlari yordamida bajarilgan. Bu esa kolxozlarning iqtisodiy yuksalishiga yomon ta'sir etib, kolxozchilar ish haqining kamligiga, MTS xodimlari va dehqonlar o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro muvofiqligiga olib keldi.

Afsuski, yaqin paytlargacha kollektivlashtirish mavzuyidagi tadqiqotlarda MTSlarning ro'liga yuksak baho berilib kelindi. MTSlar ish faoliyatidagi mehnat unumdarligi, kadrlar tayyorlash, kolxoz tuzumini tezlatishga yordam berib, har doim ijobiy bolib kelganligi qayta-qayta ta'kidlandi. Aslida, MTSlar faoliyati imkoniyatlar

⁶⁹ Икромов А. Об итогах хлопкозаготовок.// На аграрном фронте. 1933. № 6 111-112 ст.

darajasida bo‘lmagan. MTSlar tashkil etilishi bilan, shartli qilib aytganda, ikkita xo‘jayin qaror topdi-biri texnikaga javob bersa, ikkinchisi qolgan barcha ishlarga javobgar edi. Lekin aslini olganda kolxozlar ham, MTSlar ham haqiqiy xo‘jayinlar emas edi. Haqiqiy xo‘jayin davlatning o‘zi edi. Qishloq xo‘jaligining bir yoqlama (asosan paxtachilik) rivojlanishi tufayli xalqning qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan yetarlicha ta‘minlanishi mustaqillikgacha hal qilinmay qolib ketdi. Jamiyatda har bir soha, xo‘jalik va ijtimoiy faoliyatining hamma tomonlari ipidan ignasigacha total nazorat ostiga olingan edi. Totalitar sotsializmda nazoratchilarning son-sanoqsiz armiyasi vujudga kelib, har bir odamning har bir qadami poylab yurilar edi. Qishloq joylarda bunday nazorat xavfsizlik organlari vakillari, partiya-sovet xodimlari yordamida olib borilardi. Quyi jamoat tashkilotlari ham nazorat funksiyalarini bajarar edi.

Qishloq ahlini ma‘muriy-nazorat iskanjasiga olish maqsadida rahbariyat mashina-traktor stansiyalari kabi noxush “o‘sma” ni vujudga keltirdi. MTSlarning o‘ziga xos xususiyati shu bo‘ldiki, ular ham iqtisodiy bo‘lim ham ma‘muriy nazoratchi va mafkuraviy tashviqotchi tarzida faoliyat ko‘rsatdilar.

MTSlardagi siyosiy bo‘limlar davlatning “hamma narsani ko‘ra oladigan ko‘zi” dek mas’ul ro‘lni bajarib kelganlar. Jabr-zulm boshqaruvning diktatorlik tuzumiga ishongan Sho‘ro tizimi MTSlar qiyofasida qishloq xo‘jalik artellariga jalb etishning muhim vositasi, mexnat tashkillashtirishni nazorat qilishning universal qurolini ko‘rar edi.

Albatta, agrar siyosat tizimida MTSlar iqtisodiyotga muayyan o‘zgartirishlar kiritishga ko‘maklashdiyu, biroq umuman olganda, ular qishloqning boy mexnat imkoniyatlarini yuzaga chiqishiga halaqit berib kelganligi ma'lum. Mashina - traktor stansiyalarining vujudga kelishi bilan kolxozi yerlarida ikkita xo‘jayin mustaxkam o‘rnashib oldi: ulardan biri- mexanizatsiya uchun javobgar bo‘lsa, ikkinchisi qo‘l yordamida bajariladigan ishlar va maxsulotlarni transportiroka qilish uchun javobgar edi. Total davlashtirish, keskin markazlashtirish sharoitida bunday xo‘jalik yuritish ko‘pincha yuzaki bo‘lgan. Oqibat natijada na kolxozlar va na MTSlar asl xo‘jayinlar bo‘lgan. Ular faqat mulkdorlar deb atalgan. Asl xo‘jayin esa davlat bo‘lgan. Shu bois,

vujudga kelgan “ikkihokimyatchilik” MTS ishchilarining va dehqonlarning yerdan bezishini kuchaytirdi. Ishlab chiqarishni tashkil etish va texnikadan foydalanishda mas’uliyatsizlikka olib keldi. Kolxozchilar va stansiyalardagi ishchilarning qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini oshirish va chorva sonini ko‘paytirishdan manfaatdorligini yo‘qqa chiqarib, katta mablag‘larning sovurilib ketishiga olib keldi.

MTSlar qishloq xo‘jalik artellarining iqtisodiy mustaqilligini chegaralab qo‘ydilar. MTSlar dala ishlarining katta qismini bajarib, qishloq xo‘jaligidagi asosiy kuch sanalmish - kolxozchi dehqonlarning asosiy mehnat qurollari - traktor va boshqa texnika vositalaridan uzoqlashtirgan edi. Bundan tashqari, MTSlar kolxozlardan foydaning katta qismini va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni natural to‘lovleri sifatida talab qillardilar. Ikkinchidan MTS ishchilari sifatlari, mahsuldor mehnatdan manfaatdor emasdilar. Ularning mehnati rejadagidek bajarilgani bilan baholanardi.

Bizning fikrimizcha, qishloq xo‘jaligining texnika bazasi zaif bo‘lgan sharoitda MTSlarni ijara o‘tkazish yoki ularga prokat punktlari maqomini berish MTS va kooperativ korxonalarini o‘rtasida iqtisodiy munosabatlarning yaxshilanishiga olib kelgan bo‘lardi. Biroq bunday qilinmadi.

Qishloq ahlini kolxozchi dehqonlar va qishloq xo‘jalik ishchilariga (sovxozi, MTS va boshqa davlat agrar korxonalarining ishchilari shular jumlasiga kiradi. - O.N.) bo‘linishi sun‘iy-yuzaki xarakterda bo‘lgan. Aslida esa kolxozlarda band bo‘lgan dehqonlarni favqulotda tadbirlar tizimi bilan bog‘lab qo‘yib, dehqonlar davlatlashtirildi. Kollektivlashtirish qishloqda yangi, sun‘iy - ijtimoiy axvolni shakllantirdi. Dehqonlarni haqiqiy dehqonchilikdan ajratib, qishloqda ijtimoiy sinflarni keltirib, chiqardi (dehqon va ishchi - O.N.). Dehqonlar “ishchi kuch” darajasiga tushirilib, davlatning yollanma ishchisiga aylantirildi. Davlatga iqtisodiy jihatdan to‘la qaram bo‘lib qoldi. “Buyuk burulish” shunga olib keldiki, qishloqda ommaviy qashshoqlashish kuchaydi. Qishloq xo‘jalik ishchilari va dehqonlar ishlab chiqarish vositalaridan begonalashtirildi.

II BOB. Qishloq xo‘jaligini jamoalashtirishning salbiy, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.

2.1 Qulqolashtirish siyosati va uning oqibatlari.

“Qulq qilinish” degan ibora dastlab Oktabr to‘ntarishi va fuqarolar urushi davrida paydo bo‘lgan. Bu davrda sinfiy kurash avvalgi o‘tmish davr uchun kurashayotgan tomonning xo‘jaligini butunlay tugatish, shuningdek jismoniy tomonidan ham yo‘q qilish degan ma’noni anglatgan.⁷⁰

Bizning fikrimizcha, “qulqlar” degan atama doirasiga kiritilgan kishilarning aksariyati o‘rtaxol dehqonlar edi. Lekin markaz iqtisodiy taraqqiyotini respublika sharoiti bilan tenglash va xatto yuqori qo‘yish hollari sababli, qulq qilingan xo‘jaliklarning soni ortib borgan. “Qulq qilish” ommaviy qonunsizlik orqali ma'lum darajada oziga to‘q bo‘lgan xo‘jaliklarning mol-mulkini musodara qilish hamda ularni doimiy yashab turgan joylaridan tashqariga surgun qilishga mo‘ljallangan fojialar yig‘indisidan iborat davrni tushunmoq kerak. Aslida boylar va qulqlar “inqilobdan keying” dastlabki yillarda va 20-yillarning agrar islohotlari jatumanda iqtisodiy jihatdan tanazzulga duchor qilingan edi. Avvalo, bunga asosiy sabab “qulq” larni aniqlash uchun davlat tomonidan ishlab chiqilgan qat‘iy me`zonning yo‘qligi edi. “Qulq” likni belgilashda uni ijtimoiy jihatdan emas, ko‘p hollarda, xo‘jaliklarning ahvoliga qarab baholash boshlangan, chunki keyingi ko‘rilgan tadbirlar buni isbotlaydi. Jumladan, 1929-yil 29-noyabr kunida bo‘lib o‘tgan VKP (b) MK plenumida Stalining 1929-yil 7-noyabrdagi “Buyuk burilish yili” degan maqolasidagi jadal kollektivlashtirishni nazariy jihatdan asoslab bergenligi tufayli, kollektivlashtirish sur’atlarini xaddan tashqari kuchaytirish, unga ommaviy tus berishdan iborat aniq vazifa qo‘yildiki, jamoa xo‘jaliklarini tashkil etishda shoshmashosharlik, majbur qilish avj olib, kim ko‘proq va kimki ko‘proq kirmasa, u sho’ro hukumati dushmanidir singari shior asosida ish olib borishga sharoit yaratib berdi. Ammo kurashning keskinlashuviga 1929-yil 27-dekabrdagi agrar markschilar konferensiyasida so‘zga chiqqan Stalin yoppasiga kollektivlashtirish asosida

⁷⁰ Коллективизация сельского хозяйства в республиках средней Азии и Казахстана: опыт и проблемы.-Алма-Ата, Гылым, 1990.57-ст.

qulqlarni sinf sifatida tugatish shiorini e'lon qilishi sabab bo'ldi. Natijada qulqlarga qarshi kurash niqobi ostida asosan tadbirkor, ishbilarmon dehqonlarga nisbatan yalpi urush e'lon qilindi.

Oradan biroz o'tib, bajarib bo'lmaydigan vazifalar yuki ostida, qulqlar bilan qarshi kurashishga chorlangan mahalliy tashkilotlar qonunchilikni buzish, kuch ishlatish yo'liga turgan edilar. Bu esa o'z navbatida, dehqonlarning noroziligiga sabab bo'lgan. 1929-yilda qabul qilingan "Quloq xo'jaliklarida qonunlar kodeksidan foydalanish tartibi to'g'risida" (20-fevral)gi va "Mehnat haqida qonunlar kodeksi foydalanishi lozim bo'lgan quloq xo'jaliklari belgilari to'g'risida" (21-may) gi qarorlarda⁷¹ quloq xo'jaliklariga ko'rsatilgan 5 ta belgiga javob beradigan barcha xo'jaliklar kiritilishi aytilgan edi. Bu belgilar: yollanma mehnat qo'llanayotgan xo'jaliklar, tegirmoni, moyjuvozi, boshqa sanoat korxonalari mavjud bo'lgan xo'jaliklar, murakkab qishloq xo'jalik asbob-uskunalarini, inshootlarni nasiyaga berayotgan xo'jaliklar, savdo, sudxo'rlik bilan shug'ullanayotgan oila a'zolari, yoki boshqa mehnat qilmasdan foyda ko'radigan oila a'zolari bo'lgan xo'jaliklar quloq xo'jaliklariga kiritildi.

O'zbekistonda qishloq xo'jagini soxta kollektivlashtirishdan oldingi davrda ham bu masalaga yondashishning ba'zi bir yo'llari har holda aytilgandi. Firqa vakili Safarov RKP (b) MK 1921-yilda bo'lib o'tgan X s'yezdida ta'kidlab o'tadi: "Sho'ro hokimiyati qachon ularga (yerli aholiga - O.N.) boshliq sifatida emas, balki o'rtoq sifatida kelgan bo'lsa, shundagina sho'ro hokimyatiga ergashadilar", degan dolzarb fikrlarni aytgan edi. Ammo sho'ro hukumati bu masalada mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olmay, butun ittifoq miqyosida bir xil yo'l tutib, jamoa xo'jaliklariga kirishni istamaganlar sho'ro hukumati dushmani deb hisoblandi. Ularni "mushtumzo'rlar" qatoriga qo'shdilar va o'rni kelganda jazoladilar. Shu sababli ham 30-yillardagi tarixiy adabiyot "quloq" larga yangi tuzum dushmani nazari bilan qarab, ularni faqat qoralash bo'ldi. Hatto MTSlar huzuridagi siyosiy bo'limlar ham jamoa xo'jaliklarini qulqlardan dushmanlardan tozalash, jamoa xo'jaliklarini yangi xodimlar bilan ta'minlash va tashkiliy-siyosiy jihatdan mustahkamlashda muhim rol

⁷¹ Собрание Законов и распоряжений Рабоче-крестьянского правительства СССР.-1929.№14.Ст.117;№34.Ст.301.

o‘ynadi degan xulosaga ham kelingandi.⁷² Natijada soxta kolxoz qurilishi tez sur’atlar bilan o‘sishi, uning qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishining qisman ortishi qishloqda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kurashning keskinlashuvi firqa va sho‘ro hukumati yangi kollektivlashtirish asosida “qulog” elementlarini cheklash va siqish siyosatidan sinf sifatida tugatish siyosatiga o‘tishga yo‘l ochib berdi.

Vaholanki, qulog masalasida yoppasiga kollektivlashtirish uchun shart-sharoitlar bo‘lman rayonlarda (O‘rta Osiyoda - O.N.) quloglashtirishning o‘tkazilishi eng asosiy xato deb hisoblash zarurdir, deyiladi.⁷³ Bunday holatlar ittifoqning markaziy qismida va O‘rta Osiyoda keng kuzatilgan. Sho‘ro hukumati bu masalada mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olmay butun ittifoq miqyosida bir xil yo‘l tutib, jamoa xo‘jaliklariga kirishni istamaganlar sho‘ro hukumati dushmanlari deb hisoblab, ularni mushtumzo‘rlar qatoriga qo’shdilar va o‘rni kelganda jazoladilar.

Ayniqsa, 1929-yil 29-dekabrda I.V.Stalining agrar marksistlar ilmiy konferensiyasida quloglarni sinf sifatida tugatish siyosatiga o‘tish to‘g‘risidagi shiori ish yurituvchilarga qo‘llanma bo‘ldi. Natijada, mahalliy rahbarlar ish yuritishning eng qaltis yo‘llariga o‘tib ketdilar. Shu tariqa, zo‘ravonlikka asosan firqaning siyosiy qarorlarini ijro etish uchun siquv dasturi asosida ish ko‘rildi. Masalan, Xitoy qishloq sovetiga Farg‘ona okrugidan yuborilgan vakil xalqqa “kim bo‘lishidan qat’iy nazar, agar bir kun bo‘lsa ham o‘z yerida odam yollab ishlatsa, qulog sanaladi”,- deydi .⁷⁴ Yagona ibora bilan aytadigan bo‘lsak, bu xo‘jalik yuritish davrida mulkning mohiyatini bilmaslik tufayli yuz berdi.

1930-yil 4-yanvarda “Pravda” gazetasida “Quloglarni sinf sifatida tugatish kun tartibiga qo‘yilayotir” sarlavhali bosh maqola e’lon qilinganidan keyin quloglarni yer yuzidan supurib tashlashga da’vat etildi. Shuningdek, ko‘rilgan tadbirlar amalda siyosiy tus berish va kollektivlashtirishni hamda paxtachilikni rivojlantirish va tezlashtirish uchun Yer ishlari komissarligi qoshida uchlik tashkil qilingan edi va bu bo‘lim 1930-yil yanvar oyidan boshlab o‘z faoliyatini boshlab yuborgan edi. Kolxoz masalasiga oid hamma vazifalarni hal qilish uchun ularga keng huquqlar berib

⁷² Азизов С.Сельское хозяйство за 15 лет (1925-1939)-Т.,1939.11-ст.

⁷³ Аверьев В.Н.О двух этапах раскулачивания народного хозяйства средней Азии.-Т.,1930.89-ст.

⁷⁴ Аминова Р.Х.Коллективизация в узбекистане:как это было?// коммунист узбекистана.1989.№9.84-ст.

qo‘yildi. Natijada, kolxoz tuzumi davrida uchlikning beboshligi tufayli kolxoz tuzumi uzoq yillar davomida fojiali kunlarni boshdan kechirishga majbur etildi.

Bu davrda yuz bergan xato-kamchiliklar ildizini faqat tushunmaslik oqibatida qulqoq darajasini belgilashga borib taqaladi, degan xulosa emas, balki ko‘rsatma va qarorlarni muqarrar xal etish shiori ekanligi tufayli keyin xunrezlik boshlandi. Masalan, Andijon viloyatining Qorasoy tumandan xabar berilishicha, rayon partiya tashkiloti odamlarning sotsial jihatidan kelib chiqishini aniq bilmasligi tufayli 1770 kishini (shundan 394 tasi o‘rtaxol dehqon) qulqlar sinfiga kiritilgan va 536 kishi dindorlar bo‘lganligi uchun huquqlari cheklangan.⁷⁵ Qulqlarni sinf sifatida tugatish ishlari ostida ish yuritish orqali uni amalda bajarish uchun yuqoriga qulqlar sonini ko‘paytirib berish maqsadida o‘rtaxol dehqonlarni ham ular qatoriga qo‘shib yuborish hollari ro‘y bera boshladи. Sababi, ommaning ijtimoiy kelib chiqishi emas, balki soxta kolxoz tuzumining zaruriyati bo‘lgan iqtisodiy masalalar sabab qilib ko‘rsatilgan (mol-mulk-O.N.).Oqibatda, VKP (b) MK siyosiy byurosi 1930-yil 30-yanvarda “Yoppasiga kollektivlashgan rayonlarda qulq xo‘jaliklarini tugatish tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorni tasdiqladi. Bu qarorda qulqlarning ishlab chiqarish vositalari, chorva mollari , xo‘jalik va uy-joy binolari, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini musodara qilish kerakligi qayd etilgan edi. Xo‘jalik mulki va imoratlar kambag‘al va batraklarning badali sifatida kolxozlarning bo‘linmas fondlariga olib berildi va o‘ziga to‘q xalq boshiga fojiali kunlar solish keskin tus oldi.

Mablag‘larning qolgan bir qismi qulq xo‘jaliklarining davlat va kooperatsiyalardan qarzlarini uzishga sarflandi. O‘zlari esa qulq qilinuvchilar toifasiga kiritilib, kategoriyalarga bo‘lib tashlandi:

- 1) kontrrevolutsion aktiv (bular asosan qamoqqa olinadigan hamda oilasi turli rayonlarga ko‘chirishi ko‘zda tutilgan);
- 2) kollektivlashtirishga qarshi faol chiqqan yirik qulqlar va sobiq yarim pomeshchiklar ;
- 3) qulqlarning qolgan qismi.

⁷⁵ Данилов В.П.коллективизация сельского хозяйства в СССР .История СССР.-М.;Наука,1990.Сентябрь-октябрь №5.23-ст

Manbalarda ta'kidlanishicha, 1930-yillarning boshlarida respublikaning paxta ekilmaydigan rayonlarida quloq xo'jaliklarini sinf sifatida tugatish masalasi qo'yilgan emas edi. Sababi, bu rayonlarda yoppasiga kollektivlashtirishni o'tkazish uchun yatarli darajada shart-sharoit yetishmasligi ma'lum edi. Ammo bu masalaga siyosiy yondashish paytida yuqoridagi ko'rsatmaga amal qilinmadni. Bundan tashqari, ko'pgina joylarda partiya organlari kambag'al dehqonlarning qulqlarga qarshi tarqoq harakatini boshqara olmadilar, degan xulosa haqiqatga yaqin emas, chunki bunday kurash bo'lishi uchun siyosiy vaziyatning o'zi yo'q edi. Lekin olib borilgan noto'g'ri siyosat tufayli turli xil beboshliklar bo'lib o'tdi. Maqsad esa bitta - soxta kollektivlashtirishni tezlatish, paxta mustaqilligiga erishish yo'lida har qanday zo'ravonlik, siyosiy qaror va ko'rsatmalar orqali mustahkamlangan holda olib borishdan iborat bo'ldi.

Soxta kolxoz tuzumini asl mohiyatini tushingan o'rtahol dehqonlar "siquv" dan qochish maqsadida so'nggi choralarini ko'rishdi. Birgina Buvayda tumanidan Farg'ona okrugi "zembodspor" komissiyasiga xabar qilishlaricha, qishloq xo'jalik soliqlarini turli sabablarga ko'ra to'lamagan "qulqoq" xo'jaliklari juda ko'pligi, ularning bir qismi ortiqcha yerlarini o'z xoxishicha davlat yer fondiga topshirganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Xatda esa o'z mehnati bilan ishlamaydigan qulqoq xo'jaliklaridagi yerlar to'laligicha olib qo'yilishi kerakmi, deb so'ralgan edi. Yuqorida korinib turibdiki, qulqoq xo'jaliklari yoppasiga ortiqcha yerlarini topshirganlar. Komissiya javobiga ko'ra kollektivlashtirish siquv orqali "muvaqqiyatli" ketayotgan joylarda bu masalaga ijobiy yondashib, qulqlarning qolgan yerlariga tegilmasin, deyilgan.⁷⁶ Lekin bajarish vaqtida ko'p kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Jumladan, yoppasiga kollektivlashtirish davrida bir biridan o'zib ketish musobaqasi qo'shimcha majburiyatlar olish vaqtida qulqoq xo'jalikari ko'p zarar ko'rdi. Farg'ona okrugida O'zSSR "Zemvod por" komitetining 1930-yil 14-yanvar kuni yig'ilishi bo'lib o'tdi. Uning tarkibida rais Norqo'ziyev, a'zolari Pisarik, sudya Ismatullayeva va kotib Xo'jayevlar bor edi. Bu komissiya ko'p xollarda dehqonlarni boshqa toifa kishilarning janjalli yoki hal qilinmagan yer masalasidagi arizalarini

⁷⁶ Фаргона ВДА.Ф-170,рўйхат-1,90-ийғма жилд,105-варак.

ko‘rib chiqib, Raykomissiya chiqargan ko‘pgina qarorlarni bekor qildi. Komissiya samarali ishini shunda ko‘rish mumkinki, nohaq ranjitelgan kambag‘al va o‘rtahol dehqonlarning da’vo arizalari qondirila boshlanadi. Lekin bunday jonkuyar “xalq farzandlari” ning taklif va ishlari “siyosiy siquvlar” tufayli o‘z maqsadlarini amalga oshira olmaganlar. Respublikada bu noxushliklarning avj olishi bosh sabablaridan yana biri O‘zSSR MIQ tomonidan 1930-yil 11-martda “kollektivlashtirish va quloq qilish” qaroridan so‘ng bu masalaga siyosiy tus berilishidir. Natijada, asossiz chaquv, dalil va uydirmalarga asoslangan uchlikning qarori bilan markazning qarori, buyruq va korsatmalarini o‘ziga dastak qilib olgan mahalliy xodimlar qo‘pol xatoliklarga yo‘l qo‘ydilar.

Sun‘iy “quloq” qilish voqeа-tafsilotlari birgina O‘zKP (b) MK Toshkent okrug partiya qo‘mitasi hujjalarda,⁷⁷ shuningdek 1930-yil 7-fevralda bo‘lib o‘tgan yangiyo‘l tuman faollarining yig‘ilishida soxta kollektivlashtirish va quloq qilish to‘g‘risida Alimov, Yo‘ldoshev, Bakuns, Nazarovlarning fikr mulohazalarini tahlil qilar ekanmiz, ular yoppasiga kollektivlashtirish va quloq qilish viloyat rahbarlari tomonidan yetarli darajada puxta borilmaganligi, jumladan, Mirzacho‘l, Yangiyo‘l rayonlarida quloqlarning ijtimoiy guruhini aniqlash davrida jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilganligi, o‘rtaxol va batraklarning mol-mulklarini tortib olish va tintuv o‘tkazishgacha borib yetganlari ma'lum bo‘ldi. Xatto quloq qilish masalasi kambag‘al va o‘rtaxol dehqonlarning yig‘ilishida olib borilishi haqidagi ko‘rsatma inobatga olinmaganligi aniqlandi.³ Arxiv hujjalariга asoslanadigan bo‘lsak, hammasi bo‘lib 1930-yil O‘zbekiston bo‘yicha 2648 ta xo‘jalik quloqlar sifatida tugatilgan.¹ Ularga qarashli katta qismdagi chorva, mehnat qurollari, yer maydonlari kolxozlarning bo‘linmas fondiga o‘tkazilib, uy-joylari ham musodara qilingan. 1931-yil 9-fevralidagi ma'lumotga ko‘ra O‘zbekiston bo‘yicha kolxozlardan 4910 kishi chiqarildi.⁷⁸ Quloqlarni sinf sifatida tugatish davrida butun boshli qishloqlarni ko‘chirib yuborish, hamda odamlarni jismoniy yo‘q qilish ommaviy tus oldi. Shu paytgacha, bu xodisa arxiv hujjalarda mavjud bo‘lsa ham haqiqat yuzini ko‘rmadi.

⁷⁷ ТошкентВДА.Ф-25,рўйхат-1,120-ийфма жилд,61-варак.

⁷⁸ Уз РМДА.Ф-837,оп-9,д.409,27-28 вараклар.

Oqibatda turlicha talqin qilinib kelindi. Birgina Toshkent viloyati bo‘yicha ma'lumotlarni ko‘radigan bo‘lsak, Toshkent tumanidan 1931-yilda Chochtepadan 6 ta, Qibraydan 21 ta, Tuzeldan 2 ta, Qoratoldan 1 ta, Yvarikdan 1 ta, Qorasuvdan 7 ta, Chuvalachidan 4 ta, Oq-qovoqdan 5 ta, Ochildan 10 ta, Nazarbekdan 4 ta, Qo‘yliqdan 10 ta , Sogbondan 7 ta, Erkindan 3 ta , Qizil O‘zbekistondan 7 ta, Chinoboddan 5 ta , Durmondan 14 ta, Niyozbekdan 2 ta , Qizil Tuyadan 7 ta kishi qo‘sishimcha quloq qilinib, o‘zlar yashab turgan yerlaridan birinchi kategoriya quloq sifatida badarg‘a qilingan.⁷⁹ Bundan tashqari O‘zKP (b) MK O‘rta Osiyo byurosi tomonidan qayd qilinadiki, ko‘p hollarda quloq qilish tintuv , mol-mulkni tortib olish orqali amalga oshirilgan. Vaholanki, quloqdan faqat ishlab chiqarish quollarini olish ko‘rsatilgan edi, xolos.⁴ Ko‘p hollarda ko‘rsatma noto‘g‘ri berilgan va uning oqibatida quloq xo‘jaliklarining hammasini teng ko‘chirish hollari yuz bergen. Demak, quloqlarni ko‘chirish rejasi ishlab chiqilmagan, bunga respublikamizda zaruriyatning o‘zi yo‘q edi. Lekin O‘zbekistondan boshqa rayonlarga aholini ko‘chirib yuborish aytarli darajada xolisona o‘rganilmagan holda ketdi. Eng achinarlisi shuki, quloqlar tarkibini aniqlash paytida kambag‘al, o‘rtaxollar oilalari shu toifaga kiritildi. Moliya bo‘limidan berilgan ro‘yxat asosida ish ko‘rilishi tufayli nojo‘ya quloq qilish hollari yuz berdi. Masalan, O‘zSSR moliya qo‘mitasining ma'lumotiga ko‘ra 1929-30 yillarda respublikamizning 10 ta okrugi bo‘yicha yakka tartibda soliq to‘lovchilar soni 13131 xo‘jalik bo‘lib, shulardan 1501 tasi quloq xo‘jaliklari deb hisoblangan va chekka o‘lkalarga surgun qilingan.⁸⁰

Aslida VKP (b) MK O‘rta Osiyo byurosi va O‘zKP (b) MK tomonidan ishlab chiqilgan asossiz qarorga ko‘ra, quyidagi belgilarga qarab oilalar quloq qilinishi kerak edi: a) shaxsiy mulkdorligiga qarab; b) xo‘jalik agar saylovda ishtirok etishdan mahrum etilgan xamda unda ekspluatatorlik belgilari bo‘lsa. Shuning uchun joylarda shu toifaga kirganlarni boshqalar bilan almashtirib yubormaslik lozimligi to‘g‘risida aniq ko‘rsatma berilgan bo‘lsada, ammo bu ko‘rsatmani amalda qo‘llashda qo‘pol

⁷⁹Тошкент ВДА.Ф-25,рўйхат-1,132-ийғма жилд,183-варақ.

⁸⁰ Коллективизация сельского хозяйства в республиках средней Азии и Казахстана: опыт и проблемы.-Алма-Ата,Гылым,1990.141-ст.

xatolarga yo‘l qo‘yildi va talay vaqt davom etdi. Masalan, Toshkent okrugi Toshkent tumandan ro‘yxatga olingan qulqo xo‘jaliklaridan bir guruhi Bezdovniy qishlog‘iga ko‘chirildi. Ularning umumiy holati quyidagicha edi:⁸¹

| Xo‘jalik soni | Axoli soni | Erkaklar | Ayollar | Paxta maydoni | Boshqa ekinlar | Qoramol | Sigir | Ushoq mollar | Uylar soni | Olib qo‘ylgan mulk |
|---------------|------------|----------|---------|---------------|----------------|---------|-------|--------------|------------|-----------------------|
| 107 | 529 | 148 | 147 | 400 ga | 60 ga | 11 ta | 34 ta | 26 ta | 69 ta | 37543 so‘m 50 t. |

Natijada, mahalliy aholi o‘rtasida norozilik, qarshilik alomatlari kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. 1930- yilda Toshkent rayon siyosiy komissiyasi tomonidan qulqo qilinib, ro‘yxatga olingan hamda birinchi kategoriya guruhiga kiritilib, Ukrainaga ko‘chirib yuborilgan mahalliy aholi ro‘yxatini keltirish orqali, respublika miqyosidan chetga ko‘chirish oddiy bir xol bo‘lib qolganligini ko‘rishimiz mumkin:

| Xo‘jalik soni | Axoli soni | Erkaklar | Ayollar | Paxtamay doni | Boshqa ekinlar | Chorva soni | Sigir | Mayda mollar | Qo‘y lar | Tortib olingan mulk |
|---------------|------------|----------|---------|---------------|----------------|-------------|--------|--------------|----------|------------------------|
| 254 | 3275 | 624 | 628 | 700, 35ga | 132,5 ga | 145 ta | 112 ta | 187 ta | 147 ta | 175 Ming 919 so‘m |

Bu ma'lumot Domullozoda imzosi bilan qayd qilingan.

Shuningdek, Zelen tumandan 1931-yil 31-avgustda 111 ta xo‘jalik, jami 470 kishidan iborat kolxozchilar qulqo qilinib, O‘zSSR xududidan ko‘chirib yuborilgan.⁸² Umuman, rahbarlarni tozalash davrida ham kamchiliklar ro‘y bergan. Jumladan,

⁸¹Тошкент ВДА.Ф-25,рўйхат-1, 132-йигма жилд,94-варак.

⁸²Коллективизация сельского хозяйства в республиках средней Азии и Казахстана: опыт и проблемы.-Алма-Ата,Гылым,1990.141-ст.

1930-yil 2-mart kuni Toshkent okrugi bo'yicha bo`lib o'tgan yig'ilish komissiyasining xujjatlarini olib ko'radigan bo'lsak, hujjatlarni rasmiylashtirish davrida ortiqcha qog'ozbozliklar, amaldagi qonun-qoidalarga rioya qilmaslik holatlari yuz bergenligini ko'rishimiz mumkin.

Arxiv materiallari shohidlik beradiki, qulq qilish faqatgina badavlat xo'jaliklarga emas, balki o'rtaxol dehqonlarga nisbatan qo'llanilayotganligi ham ma'lum. Masalan, respublika prokuraturasi ma'lumotiga ko'ra, 1930-31 yillarda don taylorlash kompaniyasi davrida quyidagi holat yuz bergen:⁸³

| Xo'jaliklar turi | Xammasi | Jazoga tortilganlar | Oqlanganlar |
|--------------------|---------|---------------------|-------------|
| Qulqlar | 1034 | 1025 | 9 |
| O'rtaxollar | 50 | 44 | 6 |
| Kambag'allar | 9 | 6 | 3 |
| Mansabdar shaxslar | 33 | 29 | 4 |
| Jami: | 1126 | 1104 | 22 |

"Don tayyorlash" ishi yuzasidan jazoga tortilganlarning 44 foizining mol-mulki musodara qilingan. 19 foizi esa O'zbekistondan chetga ko'chirib yuborilgan.

Bundan tashqari 1930-yilda Zangiota, O'rtaovul, Boyqush qishloqlarida qulq xo'jaliklari bir qismining saylovda ishtirot etish masalasi quyidagicha hal qilinganligini ko'rish mumkin:⁸⁴

| | | |
|-------------------------|---|--|
| Zangiota qishlog'idan | 1.Xo'jayev Mullaxo'ja 2.Jamoliddinov Xusamitdin 3.Maxmudxo'jayev Toshxo'ja | 1-kategoriya 3-kategoriya 3-kategoriya |
| O'rta ovul qishlog'idan | 1.Qo'shoqov Abdullo 2.Qo'shoqov Yormuhammad 3.Qo'shoqov Sulaymon 4.Shayxov Abdulla | 1-kategoriya 1-kategoriya 1-kategoriya 1-kategoriya |
| Boyqush qishlog'idan | 1.Nazarqulov Sotti 2.Pirmuhammadov Bo'tabek 3.Abdukarimov B. | 3-kategoriya 3-kategoriya 3-kategoriya |

⁸³Коллективизация сельского хозяйства в республиках средней Азии и Казахстана: опыт и проблемы.-Алма-Ата,Гылым,1990.143-ст.

⁸⁴Тошкент ВДА.Ф-25,рўйхат-1,825-ийғма жилд,156-варақ.

Agar o‘rtaxol dehqonlarni ijtimoiy holatini ko‘radigan bo‘lsak, ushbu jadvaldan ko‘rish mumkinki, qulq qilish oddiy bir holga aylanib qolgan,

“kambag‘allar uyushmasining” (1929-yil oktabr oyida “Qo‘shchi” ittifoqi asosida ta’sis etilgan - O.N.) yig‘ilishi orqali ushbu masalalar salbiy tomonga, asossiz qulq qilish tomonga yo‘naltirilgani hujjatlar tahlil qilinganda ma’lum bo‘ldi.

Shu tariqa, 1930-yillardan e`tiboran kolxozlarni tozalash ommaviy tus olishiga zamin tayyorlandi va kambag‘al hamda o‘rtaxol dehqonlarning 50 foizi shu toifaga kiritildi va kolxozdan chiqarildi. Bu kolxoz ustavini buzishdan boshqa narsa emas edi. Buyruqbozlik asosida ish olib borish, “kolxozlar begona unsurlar bilan to‘lib ketgan” degan xulosa bilan ish yuritish bevosita xatoliklarni keltirib chiqardi.

Quloqlarni sinf sifatida tugatish keyingi yillarda faqat zo‘ravonlik asosida xam keskin tus ola boshladi. Masalan, VKP (b) MK O‘rta Osiyo byurosining 1931-yil 30-yanvardagi “O‘rta Osiyoda kollektivlashtirish to‘g‘risida” gi qarorida 1930-yil dekabr plenumi qaroriga ko‘ra kollektivlashtirishni paxtakor rayonlarda 50 foizga yetkazish hamda soxta yoppasiga kollektivlashtirish asosida quloqlarni sinf sifatida yo‘q qilishni kun tartibidagi birinchi masala qilib qo‘yilganligi ta’kidlangan.

Natijada, O‘zSSR XKS ning soxta kollektivlashtirish masalasi bo‘yicha 1931-yil 27-apreldagi komissiya hujjatida aytilishicha, kolxozlarni tozalash davrida masalaga jiddiy e’tibor berilmagan, hamda 1930-yil 1-aprelgacha bo‘lgan davrda kolxozlardan 4910 kishi chiqarilgan. Shulardan, 878 tasi quloqlar, 173 tasi qulq toifasiga yaqindir, 145 tasi dindorlar, 216 tasi savdogarlar, 55 tasi ustavga bo‘ysunmaganlar. Qolgan 528 tasi har xil masalada kolxozdan chiqarildi. Eng muhim 2336 ta kishining qanday qilib kolxozdan chiqarilganligi tekshirib ko‘rilganligi qayd qilingan. lekin ularning taqdiri xolisona hal qilinmagan. Ular quloqlar toifasida qoldirilganligi hujjatlarda qayd qilingan.

Vaholanki, xalq noroziliginini oldini olish maqsadida hukumat 1930-yil 14-martdagи qarorida⁸⁵ “Xalqning kundalik xayoti uchun zarur bo‘lgan bozorlarni ochib qo‘yish, hamda dehqonlar o‘z yetishtirilgan mahsulotlarini erkin ravishda sotishiga

⁸⁵ Компартия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК.1-ч.1925-1937гг.- Т.:Узбекистан,1987.-522-ст.

yo‘l ohib berish” ta‘kidlangan edi. Shuningdek qarorda dehqonlarning diniy erkinliklari xisobga olinib, diniy ta‘qib qiluvchilarni, ya‘ni aybdorlarni so‘zsiz jazolash kerakligi uqtirilgan. shunga qaramasdan quloq qillish jatumanda yuqorida qayd qilingan holatlar oddiy tusga aylanib bordi. Jumladan, Beshariq tumandagi quloqlarni sinf sifatida tugatish davrida o‘rtaxol dehqonlardan nohaq 6 ta xo‘jalik sudga tortilgan.⁸⁶ Bo‘ston qishlog‘idan agrouchastka oqsoqoli Ramazonov dehqonlar mol-mulkini baholash paytida shunday ish tutadi: “sizlarda nima bo‘lsa, hammasini yozib olamiz va kimda ikkita xalat bo‘lsa, bittasini olamiz”, deb aytgan bemanis so‘zlar to‘g‘risida ma'lumotlar mavjud. Umuman quloq qilish davrida ko‘plab kambag‘al dehqonlar aziyat chekdilar. Ba’zi bir rayonlarda quloq qilinganlar 15 foizga, saylovdan mahrum qilish 15-20 foizgacha yetgani ma'lum.

Siyosiy rahbarlar soxta kolxoz tuzumi tuzishdagi ayrim imkoniyatlar yana bir ishga solindi. 1930-yil 6-mart kuni Markazkomda bo‘lib o‘tgan partiya xodimlari yig‘ilishida kolxoz tuzumining asosiy formasi - artel bo‘lib, qishloq kishilarni shaxsiy tegirmonlarini olish hamda bozorlarni yopib qo‘yish quloqlarga qarshi kurash degan ma‘noni bildirmasligi qayd qilingandi. Lekin ko‘rilgan tadbirlarni hech qachon nihoyasiga yetkazilgan emas yoki iqtisodiy asoslanmagan holda bo‘lgani uchun shu hodisa yuz berdi.

Jumladan Bag‘dod tuman “dehqon” kolxozida quloqlardan tozalash paytida 21 ta batrak kolxozdan ko‘chirilgan, dehqonlarning arizalari ko‘rib chiqilmagan, pirovardida dehqonlar asossiz quloq qilingan. Namangan tumanga kelgan hukumat rahbari Y. Oxunboboyev 6 ta kolxozchi va 3 ta kambag‘al dehqon paxta planini bajarmagani uchun qamalgan faktiga duch keladi.⁸⁷ Shuningdek, Yuqori Chirchiq tumandagi “mehnat birligi” kolxozida 250 ta xo‘jalik mavjud bo‘lib, xo‘jalik rahbari To‘lagan Ro‘ziyev va rais mouvini Nurbek Saidaliyevlar “Biz kolxozdan hech kimni chiqarmaymiz, xohlasa rayon rahbarlari kelib chiqarsin, agarda qo‘llarida asoslari bo‘lsa”, deydilar. Marg‘ilonning shahar va qishloqlarida dehqonlarni tekshiruv o‘tkazish orqali toifalarga bo‘lmoqchi bo‘ladilar. Masalan, Konor Ariq qishloq

⁸⁶ Уша жойда.

⁸⁷ Правда востока. 1930 йил 21 ноябрь.

sovetida rais Safiyev bir dehqonning uyini tekshirib, yagona uy urchug‘ini musodara qildiradi. Sababi, VKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosining 1931-yil 30-yanvardagi qaroriga ko‘ra sovxozlarda 20 foiz, paxtakor rayonlarda esa 50 foizgacha quloqlar tugatilishi kerak degan ko‘rsatma asos bo‘lib xizmat qildi. Tarixchi olim S.Saidaliyevning ma'lumotiga ko‘ra, 1930-31-yillarda kolxozlardan 40 ming quloqlar chiqarilgan. Shundan 31,7 minggi chekka o‘lkalarga surgun qilingan.⁸⁸

“Quloqlarga” qarshi kurash natijasida ta'qib qilinganlar qisman respublikaning aholi kamroq yashaydigan mintaqalariga yuborilardi. U yerlarda 17 ta maxsus qo‘rg‘on qurilgan edi. O‘zbekistondan tashqariga - Shimoliy Kavkazga, Ukrainaga, Sibirga yuborilardi. 1933-yilga kelib respublikadan tashqariga majburan ko‘chirilgan “quloqlar “ oilalarining soni 5,5 mingdan oshib ketgan edi.⁸⁹ Xullas, yuqori partiya va sovet hamda xo‘jalik rahbarlarining aksariyatini (chaqirilmaganlar- O.N.) kolxozlarga rahbarlik lavozimiga tayinlash oddiy bir holga aylandi (bu yerda 25 mingchilar ko‘zda tutilmoqda - O.N.) xujjatli ma'lumotlarga qaraganda, 1930-33 yillar davrida kolxozlarga, o‘sha vaqtda aytishicha “suqilib kirib olgan” quloqlar va “yot unsurlar” dan 30 mingdan ortiq kishi haydab chiqarilgan. Ulardan aksariyat qismi bir qolipda “jamoalashtirishga qarshi faol chiqishlari uchun” degan ayblast bo‘yicha qatag‘on qilindi.⁹⁰ Bu esa kolxozlar ichki demokratiyasini, ya’ni o‘z-o‘zini boshqarish tamoyillarini buzdi hamda dehqonlarga bo‘lgan munosabat sinfiylik nuqtayi-nazaridan qarab belgilash oddiy bir holga aylandi.

Demak, kollektivlashtirishni amalga oshirishda qonunchilik va inson huquqlari poymol etilgan. Chunki, 1930 yillardan boshlangan ma'muriy-buyruqbozlikning kuchayishi oqibatida mahalliy rahbarlarning javobgarligi, tashabbuskorligi, obro‘-e’tiboriga putur yetkazildi. Ularning ko‘pchiligi tuzum qurboni bo‘ldilar. Natijada dehqonlar orasidagi masuliyatlarni sezilarli darajada kamayishi oqibatida mehnatkashlarni ham qulq qilishga keng yo‘l ochib beradigan tadbirlarni amalga oshirilishiga oid harakat boshlandi. Har qanday to‘siqlar “siyosiy qarorlar” dastagi

⁸⁸ Сайдалиев С.Осуществление кооперативного плана в Узбекистане.-Т.:Госиздат,1958.66-ст.

⁸⁹ Алимова Д.А.,Голованов А.А.Узбекистан мустабид совет тузуми даврида: сиёсий ва мафкуравий тайзик оқибатлари.-Т.:Ўзбекистон,2000-50-6.

⁹⁰Ўзбекистоннинг янги тарихи.2-китоб,-Т.:Шарқ,2000.-355 бет.

bo‘lgan “ishonchli” odamlar tomonidan amalga oshirilishi tufayli xalqning so‘nggi umid va imkoniyatlari butunlay yo‘qqa chiqarildi.

Boylar va qulqlar (nomunosib - O.N.) bilan kurash bahonasida dehqonlarni saylov huquqidan maxrum qilishgan hamda o‘zbilarmon, ishchan yer egalariga urush e’lon qilingan edi. Dindorlarga, ma’muriyat harakatlariga qarshi chiqqanlarga ham qulqlashtirish siyosati yuritilgan. Ayrim raxbarlar o‘z shaxsiy ishlari bo‘yicha o‘zlariga yoqmagan odamlarni ham qulq qilishgan. “Yoppasiga kollektivlashtirish asosida qulqlarni sinf sifatida tugatish” siyosati boshidan oxirigacha xato siyosat bo‘lgan. U nafaqat qulqlarga tinch yo‘l bilan “sotsializmga o‘tishga” imkon qoldirmagan, balki ularning tashkilotchilik qobiliyatlarini va mablag‘larini yangi ijtimoiy tuzumni mustahkamlash maqsadida foydalanishga xam yo‘l qo‘ymagan hamda moddiy ahvoli ancha yaxshi va o‘ziga to‘q bo‘lganlarni jismoniy jihatdan yo‘q qilinishiga yo‘naltirilgan.

“Qulqlarni tugatish” siyosatini o‘tkazishda sifat jihatidan ijtimoiy mezonlar to‘g‘ridan to‘g‘ri xo‘jalik rivojlanish darajasini xajmi jihatidan baholash mezonlari bilan almashtirilgan. Qulq kategoriyasiga asosan Sho‘ro tomonidan ajratib berilgan yerida o‘z mehnati bilan xo‘jalikni o‘rta darajadan yuqoriga ko‘tara olgan mehnatkash dehqonlar kiritilgan edi. Rahbar xodimlarning katta qismi qulqlar safiga o‘ziga to‘q o‘rtaxol dehqonlarni ham kiritgan. Vaholanki, qishloq mehnatkashlari bunday dehqonlarni ilg‘or dehqonlar deb atab, ulardan qishloq xo‘jaligini yaxshilash va mustahkamlash borasida ko‘p narsani o‘rgansa bo‘ladi deb baholaganlar.

Shunday qilib, kolxoz qurilishi sur’atlarini suniy ravishda avj oldirish kolxozlarni, “sotsialistik asosda mustahkamlash” ko‘p sonli odamlarning qurban bo‘lishiga, ularning begunoh qoni to‘kilishiga sabab bo‘ldi.

Qishloqda sinfiy siyosatni ishlab chiqarishda asosan oldingi yillarda o‘tkazilgan axolini ro‘yxatga olish ma’lumotlaridan foydalanib, soliq qonunchiligi, yer o‘lchash, texnika bilan ta’minlash, kredit va kooperativ siyosat, ma’muriy amaliyot kabi sohalarda turli qaror va ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan. Ular ko‘pincha joylarga kechikib borgan. Ayrim hollarda esa ularda ko‘rsatilgan usullarlar qarama-qarshi bo‘lgan va dehqonlarni sinf sifatida ajratishda qiyinchilik tug‘dirgan.

Markaziy partiya va sovet organlari qishloq sovetlari va partiya tashkilotlariga ishongan. Biroq joylardagi partiya va sovet xodimlarining tajribasi yo‘q edi va ular ko‘pincha dehqonlarning ijtimoiy ahvolini aniqlashda to‘g‘ri ma'lumotlar bera olishmagan.

Umuman, jamoalashtirish o‘zbek qishlog‘i tarixiy rivojlanishining sog‘lom jarayonlariga to‘sinqlik qildi. U dehqonlarning davlat tomonidan asoratga solinishiga olib keldi. Kolxozlarga zo‘rlik bilan haydab kiritilgan dehqonlar barcha asosiy fuqarolik huquqlaridan mahrum qilindilar. Shu tariqa qishloqda yangi tuzumning mustahkam asosi bo‘lgan odamlar qulq qilindi.

2.2 Paxtachilik sohasining ustun mavqega ko‘tarilishi, uning dehqonchilik va chorvachilikka ta'siri.

Respublikamizda olib borilgan kollektivlashtirish davrida qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan chorvachilik va dehqonchilikda yuz bergen holatlarni tahlil qilish orqali bu sohadagi kiritilgan yutuq va kamchiliklarni ko‘rsatib berish mumkin deb o‘ylaymiz.

Chorvachilik sohasidagi ishning dolzarbligi shuni ko‘rsatadiki, mintaqamizning geografik tabiiy sharoiti ushbu sohaning rivojlanishi uchun hamda aholining turmush tarzini manbayi hisoblanadi. Lekin mustaqillikgacha yoritilgan ilmiy ishlarda chorvachilikni keskin inqirozga yuz tutishi va mahsulot turining keskin kamayishi sabablarini faqatgina yana o‘sha “qulog” ga qarshi kurash doirasida tahlil qilish bilan cheklanib qoltingan. Vaholanki, bu sohaning ijtimoiy-iqtisodiy inqirozga yuz tutish sabablarini aniqlashda birinchi navbatda dehqonchilik sohasidagi ko‘rilgan tadbirlardan izlab ko‘rish foydadan holi emas. Sababi, dehqonchilikda tutilgan yo‘lning bir tomonlama bo‘lishi ham bu sohani, qolaversa dehqonlarning turmush tarzini og‘irlashtirishga xizmat qilgan muhim omillardan biri bo‘lganligini hisobga olgan holda, hamda paxtachilik e’tiborni kuchayishi tufayli respublikamiz iqtisodiyotida muhim tarmoq hisoblangan bu tarmoqlarni uzoq vaqtgacha asl holiga keltirish imkon bo’lmagan muhim holatlarni tahlil qilish lozim. Masalan, tarixchi olima Aminova R. X ning “Osushestvleniye kollektivizasi v Uzbekistane” (1929-1932 y) kitobining 108 betida 1937 yili respublikamizda o‘tish davri tugallanib, sotsializm asosan qurilganligi ham chorvachilik 1916 yilga nisbatan yirik shoxli va qo‘ylar soni 98,1 va 97,32 foizga yetganligi to‘g‘risida ma'lumot berilgan. Vaholanki, arxiv ma'lumotlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, chorvachilikning o‘sishi buning aksi bo‘lgan. Masalan, 1935 yilda shaxsiy chorvalar bilan qo‘shib hisoblaganda, 21%, 1936 yilda 17% va 1937 yilda 10,8% chorvalar soni kamayishi kuzatiladi.⁹¹ Yoki birgina Toshkent okrugidagi Bayman tumanida 1935- yilda hammasi bo‘lib 5828 ta xo‘jalik bo‘lsa, shundan 2555 tasining sigiri yo‘q edi.⁹²

⁹¹ ЎзРМДА. Ф-90, рўйхат – 8, 823 – йигма жилд, 44-бет

⁹² ЎзРМДА. Ф-90, рўйхат – 8, 1716 – йигма жилд, 40-бет

Shu tariqa O'zbekistonda kollektivlashtirish davrida qishloq xo'jaligining bir tekisda va har tomonlama rivojlanish jatumanning buzilishiga zamin tayyorlangan bo'lsa, yana bir jihatdan esa Turksib temir yo'li qurilishi paxtakor rayonlarni ko'p miqdorda don mahsulotlari bilan ta'minlashning imkonini berdi, degan umidda ish tutildi. Paxta mustaqilligi g'alabasi uchun don mahsulotlari maydonini qisqartirish mumkin degan xulosa bilan ish ko'rildi. Masalan, 1928-yili paxta maydoni 38, 1929-yili 40, 1930-yili 51, 1931 yili 69,9 foizga yetkazildi. Boshqoli don maydonlari esa 1928 yili 44, 1929 yili 40, 1930-yili 15 foizga qisqartirildi. 1931-yilga kelib paxta maydoni 30900 getktarga ko'paytirish mo'ljallandi.

Oqibatda, 1930-yildan boshlab O'zbekistonda don mahsulotlari yetishtirish keskin kamaya boshladidi. Masalan, Toshkent okrugi kolxozlari 1930-yilda don yetishtirish rejasini bajara olmadi. Buning asosiy sababi, shartnoma bo'yicha ekilishi kerak bo'lgan g'alla maydonlari haqiqatda oz bo'lib, yer maydonini qisqarishi tufayli edi.

Shuningdek, rahbarlar kamchiliklarning asl mohiyatini tushunmagan holda ish ko'rdilar hamda 1930-yil 10-sentyabr kuni birgina

"Toshokrpaxtasoyuz" da maxsus komissiya tashkil qilinib, bu komissiyaga okrugdagi kolxozlarning ekin maydonlari umumiy holatini tekshirib chiqish haqida ma'lumot berish yuklatilgan edi. Tekshiruv natijasida

"Toshokrkolxozseksiya" xodimi Zapolekiyning bergan ma'lumotlariga asoslanib, Yangiyo'l tumanda 1930-yildan bahorgi ekin ishlari boshlanish arafasida 60 foizga yaqin yerlarning holati talab darajasida emasligi aniqlandi.⁹³ Shuningdek, rayonda ko'p kolxozlarning ekin maydonlari hajmi va kolxozlar hududi aniq emasligi, ayniqsa bunday holat ko'proq Mirzacho'l va Yangiyo'l rayonlarida kuzatildi. Chunki ushbu rayonlarda faqat 3 tadan kolxozning yerdan foydalanish va hududi aniq edi. Qolganlarida esa bu narsa aniq emasligi aniqlandi.

Ayniqsa, 1930-yil 27-fevral kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda agronomlar faqat tashviqot bilan shug'ullanib, kolxozlarni tuzish va yer maydonlarini taqsimlash masalasi bilan shug'ullanishdan o'zlarini chetga olganliklari, bu esa xo'jalik ishlarini

⁹³ Тошкент ВДА. Ф-182, рўйхат – 1, 49 – йиғма жилд, 243-бет

borishiga ta'sir ko'rsatganligi va siuvuga olingan holda yaratilgan soxta kollektivlashtirish tuman deb e'lon qilingan joylarda dehqonlar noroziligiga olib kelganligi ma'lum bo'ldi. Bu esa okrugda kolxozlarni tashkiliy jihatdan tuzish ham yuzaki olib borilganidan dalolat beradi. Chunki siyosiy qarorlar ko'rsatma va taklif emas, balki bajarilishi shart bo'lgan "ishlar" bo'lganligi oqibatida yuqoridagi xatoliklar yuz berdi. Agarda bir manbalarga ko'ra oladigan bo'lsak, paxta mustaqilligiga erishish maqsadida 1930-yili okrugda hammasi bo'lib 60485 ta xo'jalik ro'yxatga qayd qilingan. Ularning jami ekin maydoni 144745 gettarni tashkil etib, shundan 112039 gettarini paxta maydonlari tashkil etardi.⁹⁴ Okrugda faqat sug'oriladigan yerlarda emas, balki lalmikor yerlarda ham paxta ekishga majbur etilgan. Masalan, jami okrug bo'yicha lalmi paxta maydonlari 51 kolxozda mavjud bo'lib, ularning yer maydoni 592 gettarni tashkil qildi. 1930-yil 12-iyundagi ma'lumotga ko'ra, lalmikor paxta maydoni 850 gettar qilib belgilangan. Haqiqatda esa 753 gettar yerga paxta ekilgan. Bu rejaning 88,6 foizidir. Shuningdek, Angren tumanda 200 gettar lalmi paxta maydoni o'mniga 93 gettarga ekilgan. Bu rejaning 47 foizini bildiradi va buyruq va korsatmalarni bajarish majburiy tusga kirishi tufayli yuqoridagi holatlar paydo bo'lgan.

Ko'rinish turibdiki, mamlakatimiz iqtisodiyotiga va ma'naviyatiga katta zarar keltirayotgan qo'shib yozish illatining ildizi o'sha davrga borib taqalishini ko'rishimiz mumkin. Chunki, yuqorining ko'rsatmasi qog'ozda bo'lsa ham bajarilishi shart edi. Bir tomondan soxta kollektivlashtirish, ikkinchi tomondan paxta mustaqilligi uchun kurash oqibatida 1929-1930-yillarda sug'oriladigan paxta maydoniga lalmi paxta maydonlari qo'shilib, xajmi yildan yilga oshib bordi. Natijada, okrugda oziq-ovqat maxsulotlari ekiladigan maydonlar keskin kamayib qoldi. Jumladan, 1930-yilga kelib okrugda paxta maydoni reja bo'yicha 132751 gettar qilib belgilandi. 1929-yili bu ko'rsatkich 101200 gettarni tashkil qilardi, xolos. Demak, 1930 yili paxta maydoni 28992 gettar ko'paytirilgan bo'lib, 28,59% ko'paygan. Hammasi bo'lib okrugda 1930 yili 394 ta paxtachilik kolxozi bo'lib, 35253 ta xo'jalikni birlashtirgan. Bu 49 foizni tashkil qilgan. 1929-yilda 151 ta

⁹⁴ Тошкент ВДА. Ф-182, рўйхат – 1, 798 – йигма жилд, 61-бет

kolxoz bo‘lib , 2380 xo‘jalikni birlashtirgan edi.⁹⁵ Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi raqamlardan soxta ixtisoslashtirish bo‘yicha tadbir shu tariqa amalga oshirila boshlangan va kollektivlashtirish tufayli paxta ekishning ko‘payishi boshoqli don ekinlari maydoni qisqarishiga asos bo‘lgan. Oqibatda hamma okruglarda bo‘lgani kabi Toshkent tumanda ham aholini don bilan ta‘minlash yomon ahvolga tushgan chunki, 1929-yil 10-noyabr kungi qarorda kolxozlarda kishi boshiga norma bo‘yicha paxtakor rayonlarda 5 puddan galla qoldirish chorasi ko‘rilgani ma'lum bo‘ldi. Paxtakor rayonlarni g‘alla bilan ta‘minlashning bosh sababi - paxta maydonining ortib borish zaruriyatidir. Chunki respublika bo‘yicha paxta maydoni 1929 yilga nisbatan 1930-1931-yillarda 810,3 ming getkarga ko‘paydi. Ammo don ekinlari maydoni, jumladan g‘alla maydoni 1929-yilga nisbatan 1930-1931-yillarda 60 ming getkar kamaygan.⁹⁶ Bu yerda yana sovxozlarning 94,1 ming getkar paxta maydonini qoshib hisoblaganda, Toshkent okrugi bo‘yicha jami paxta maydoni 1930-31-yillarda 132751 ming getktarni tashkil qildi. Eng asosiysi shuki, O‘zbekistonda lalmikor yerlar hisobiga paxta ekish oshib bordi. Masalan, 1931-yili jami paxta maydoni 28495 getkarga yetkazildi (sovxozlardagi lalmikor paxta maydoni xisobga olinmagan). Toshkent okrugidagi kolxoz va sovxozlarda ekilgan lalmi paxtani qo‘sib hisoblaganda, 1930-yili 1150 ming getkar tashkil etgan.⁹⁷ Natijada 1930-yildan boshlab dehqonlarning yeyishi uchun qoldiriladigan don miqdori ham kamayib borishi tufayli, Toshkent okrugi kolxozlari 1930-yilda don topshirish rejasini bajara olmadilar. Rejada ko‘rsatilgan 100000 pud topshirish “kolxzoseksiya” tomonidan belgilab chiqilgan edi. Ammo ushbu reja bajarilmagan. Buning boisi shundaki, belgilangan g‘alla maydonlari amalda juda kam edi. Ikkinchidan, kolxozlardagi sug‘oriladigan yerlarning ko‘p qismiga paxta ekildi hamda 1930 yilning qisman qirg‘oqchil kelishi munosabati bilan rejani bajarish imkoniyati bo‘lmasligi. Masalan, Qoronko‘l kolxozi bo‘yicha 20 getkar yerga don ekilgan va qurg‘oqchilik tufayli bor yo‘gi 24 pud g‘alla olingan. “Yangi qadam” kolxozida esa 54 getkardan atigi 8 pud g‘alla hosili olingan. Okrug bo‘yicha olingan hosil kam bo‘lsa ham, yolg‘on

⁹⁵ Тошкент ВДА. Ф-182, рўйхат – 1, 208 – йигма жилд, 359-бет

⁹⁶ Тошкент ВДА. ФР-90, рўйхат – 8, 2 – йигма жилд, 18-бет

⁹⁷ ЎзРМДА. Ф-90, рўйхат – 8, 219 – йигма жилд, 18-бет

axborotlar, qo'shib yozishlar bo'lib o'tgan. Masalan, Yangyo'l tuman bo'yicha olingan xosil gektariga 10-15 puddan oshmagan bo'lsa ham, markazga gektariga 26,5 puddan hosil olindi deb xabar berildi. Shu tariqa siyosiy qarorlarni so'zsiz bajarish afsonaviy raqamlarni berishni taqozo etar edi. Bu esa okrug bo'yicha g'alla masalasidagi qiyinchilik, ishonchsizlik va kolxozlarni tarqatib yuborishlar keyinchalik asossiz davom etishiga sabab bo'lgan. Vaholanki, arxiv hujjatlarida oldingi 1929-yilgi qurg'oqchilik kelishi tufayli ham g'alla hosili yaxshi bo'limganligi ko'p marta qayd qilingan. Lekin siyosiy rahbarlar uchun bu muhim xato yoki bahona emas edi. Chunki okrugda boshoqli don ekinlari emas, xatto zo'ravonlik tufayli paxtachilikdagi ishlar aytarli yaxshi yo'lga qo'yilgan emas.

"Toshokrugkolxozsoyuz" ning ma'lumotiga ko'ra, 1929-yili Toshkent okrugidagi kolxozlar paxta tayyorlash rejasini 40 foizga bajarilgan. Jumladan, Angren tuman - 33, Toshkent tuman - 45, Pskent tuman - 55, Yangyo'l tuman 36, Mirzachol tuman - 64 foizga bajarilgan. Baxona rejani bajarmagan kolxozlarga qo'shilgan quloqlar, zararkunanda kishilar kirib qolgani tufayli shunday hol yuz berdi deb izoh berildi va xulosa chiqarilgan.⁹⁸

To'g'ri, paxta rejasini bajarmaslikka ozmi-ko'pmi o'z mulkidan, yeridan ajralgan dehqonlar tomonidan qilingan norozilikka ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Chunki o'z yeridan, meros mulkidan asossiz ravishda ajragan kishilar ham kam emas edi. Aytmoqchimizki, kolxozlarga begona (mahalliy - O.N.) kishilar kirib qolganligi tufayli kolxozlar paxta rejasini bajara olmay qoldi deyish o'rinli bo'lmaydi albatta.

Bundan tashqari, okrugda sun'iy ravishda kolxozlar tuzish oqibatida ko'plab dehqonlar, xatto norozi batraklarning ham kolxozdan chiqish hollariga olib keldi. Sababi, siyosiy qaror tufayli sharoit juda murakkab bo'ldi deb ham hisoblaylik, lekin okrugning tabiiy sharoiti yaxshi o'rganilmadi hamda ko'p qiyinchilik va zo'ravonliklar bo'lib o'tganligi ma'lum bo'ldi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining keskin kamayishi, ayniqsa don maxsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishiga qaramasdan, paxta mustaqilligini tezlashtirish maqsadida O'zSSR KP (b) MKning 1930-yil 30- noyabrda 159-son qarori qabul

⁹⁸ Тошкент ВДА. Ф-182, рўйхат – 1, 49 – йиғма жилд, 197-бет

qilindi. Unda aytishicha, faqat “Paxtakorlarni noyabr oyida oziq-ovqat va sanoat mollari bilan ta'minlash to‘g‘risida degan qarorida oktabr oyida paxta rejasini bajargan har bir xo‘jalik avans tariqasida quyidagi miqdorda don olishi lozim” degan ko‘rsatma berildi. - kolxozchilar - 3 puddan, yakka tartibdagi xo‘jaliklar - 2 puddan. Noyabr oyida paxta topshirish rejasini 95 foiz bajargan har bir xo‘jalikka:

- kolxozlarga - 6 puddan,
- yakka tartibdagi xo‘jaliklarga - 5 puddan belgilandi.

Belgilangan don mahsulotlarini dehqon xo‘jaliklari o‘z vaqtida olmaganlar, chunki kolxozlar fondida donning hammasi olib qo‘yilgan, hamda uni keltirish uchun ko‘p vaqt talab qilingan. Ikkinchi tomonda, bu davrda har xil noaniq ko‘rsatmalar sabab bo‘lgan. Masalan, “Kolxozpaxta” ko‘rsatmasi bilan 1931 yil mart oyidan boshlab paxta rejasini 75 foizda ortiq bajargan kolxozi xo‘jaliklari 7 puddan, shuningdek 50-70 foizgacha bo‘lsa - 5 puddan, hamda paxta rejasi 50 foizdan kam bo‘lsa - 3 puddan g‘alla berilishi ta’kidlangan edi.⁹⁹ Shunday holatlar Fargona okrugi bo‘yicha ham qishloq xo‘jaligi ekinlari, jumladan don mahsulotlarining maydoni keskin kamayishi yana takrorlangan. Garchi aholining zichligi va xo‘jaliklarining keskin ko‘payib borishi to‘g‘risida ma'lumotlar mavjud bo‘lsa ham.

Jami okrug bo‘yicha 1930-yil 20-apreliga kelib 386 kolxoz mavjud edi. Rayonlar bo‘yicha: Qoqonda 84, Quvada 30, Popda 35, Rishtonda 19, Bag‘dodda 17, Qudashda 22, Buvaydada 26, Beshariqda 49, Marg‘ilonda 50, Oltiariqda 16, Farg‘onada 36 kolxoz mavjud edi. Bundan tashqari, xo‘jaliklarning ko‘pligi, aholi zichligi jihatidan olsak, bu okrugga ko‘plab don va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari zarur edi. Ammo oziq-ovqat manbalarini yetishtirish zarur bo‘lgan ekin maydonlari yildan-yilga kamayib bordi.

Farg‘ona vodiysi bo‘yicha 1931 - yilda 356176 gettar yer bo‘lsa, 1932- yili paxta maydoni 394077 gettarga yetkazildi. Don maydoni esa 1931-yilda 20859 gettarni tashkil qilgan bo‘lsa, 1932-yili 9340 gettarga tushib qoldi.³ Sholi maydoni ham 1931 yili 25773 gettarga ekilgan bo‘lsa, 1932 yili 16699 gettargacha tushirildi.⁴ Ko‘rinib turibdik, ioziq-ovqat mahsulotlari, ayniqsa don ekin maydonlari keskin

⁹⁹ Фаргона ВДА. Ф-170, рўйхат – 1, 67 – йифма жилд, 41-бет

kamaygan. Vaholanki, 1931-yili 10-noyabr kuni O‘zSSR XKS qarori bilan “Boshoqli va o‘simlik yog‘i olinadigan ekin maydonlarining shartnoma bo‘yicha umumiy hajmi” belgilandi. Jumladan, lalmi g‘alla maydoni shartnoma bo‘yicha 510481 hektar qilib belgilandi. Lekin boshqa arxiv hujjatlarida boshqa raqam ko‘rsatiladi. Masalan, 1931 yili 613347 hektar bo‘lgan deyiladi. Bunday keskin farq boshqa sohalarda ham uchraydi. Yana bir muhim hujjatda esa g‘alla maydonlari 188798 hektar qilib belgilangan. Demak, don ekiladigan maydonlar to‘g‘risida uch xil ma'lumot mavjud.

Natijada, O‘zbekistonda don tayyorlash 1931-yil 24-yanvariga kelib 68 foizga bajarildi, xolos.¹⁰⁰ O‘rta Osiyo bo‘yicha esa 23 foizga bajarilgan va davlatga 700 ming pud g‘alla topshirishning imkonini bo‘lmagan. Muhimi shundaki, g‘alla topshirish vaqtida kolxozlarda urug‘lik don ham qoldirilmasdan tortib olindi va ayni paxta ekish davrida xalq noroziligi ko‘paydi. Xalqning donga bo‘lgan ehtiyoji deyarli hisobga olinmagan. Bu mas’uliyatli ishga yondoshish talab darajasida bo‘lgan emas, deb xisoblashga asos bor.

Bundan tashqari, O‘zbekiston azaldan qishloq xo‘jaligi keng taraqqiy etgan va jo‘g‘rofiy muhitga moslashgan mintaqasi hisoblanib, chorva mahsulotlarisiz xalqning ahvoli og‘irlashishi tabiiy bir hol, albatta. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, ayniqsa chorvachilik sohasi yer-suv islohoti tufayli 1926-yildan e’tiboran son va sifat jihatidan o‘sigan emas. Sababi, yer-suv islohotidan ayniqsa, 1927-1928-yillardan boshlab chorva mollarini boqish uchun yaylov, dag‘al hashak hamda ozuqa ekinlari yetishmay qoldi. Shuning uchun ham chorva tuyoq soni keskin kamaydi. 1931-32-yillarda hammasi bo‘lib respublikada 27 ta sovxozi bo‘lib, ulardagi chorva soni quyidagicha edi: dumbali qo‘ylar - 144409 bosh, qo‘ylar - 301246 bosh, qora mollar - 19074 bosh, sigirlar - 2275 bosh, ho‘kizlar - 314 ta edi.

Ikkinchidan, chorva sonini saqlashga erishishning imkonini bo‘lmagan. Masalan, Mirzacho‘l tumanda chorva yordamida ekiladigan Maydonlarning katta qismi haydash mumkin edi. Rayon bo‘yicha mehnatga yaroqli chorvalarning umumiy soni 3216 bosh bo‘lib, ularga ayni ekish ishlari boshlangan paytda yem-hashak yetishmay qoldi xamda ularga 700 pud xashak zarurligi to‘g‘risida okrug rahbarlari

¹⁰⁰ ЎзРМДА. Ф-837, рўйхат – 9, 504 – йигма жилд, 93-бет

ogohlantirishiga qaramasdan, ozuqa keltirishning iloji bo‘lmagan. Oqibatda ko‘plab chorvalar nobut bo‘lgan.

Respublikada chorva sonining kamayishini oldini olish maqsadida chorvalarni chetdan keltirish oqibatida chorvadagi turli chorva kasalliklari ham o‘z ta`sirini ko‘rsatdi. Masalan, UzSSR NK RKI kollegiyasining 1930-yil 25-dekabr kuni bo‘lib o’tgan yig‘ilishining 16-son qarorida Shimoliy Kavkazdan kasallangan (yashchurdan) qo‘ylarning olib kelinishi tufayli chorvaga katta ziyon yetdi. Jumladan, “Qizil chorvador” sovxozida 1930-yil 1 yanvardan to noyabr oyiga bo‘lgan davrda 10840 bosh qo‘y nobut bo‘lgan. Go‘shtga topshirilga qo‘ylarining vazni 4-7 kg tushib qolganligi qayd etilgan.

Eng asosiy sabab chorvachilikka ozuqa bazasini kamligi tufayli yuz bergen, masalan, 1929-30-yillarda 380086 sentner beda pichani tayyorlangan, bu rejadagidan 49113 sentner kam bo‘lib, topshiriq 77,9%ga bajarilganligini bildiradi. Keyingi yillarda ham bu sohada ijobiy siljish bo‘lgan emas. Jumladan, 1930-31-yillarda beda tayyorlash rejasi 533136 sentner qilib belgilandi, amalda esa 244875 sentner tayyorlandi, xolos. Bu rejadagining 46,6% deganidir.

Xo‘jalik va firqa rahbarlari esa “qulqoq” xo‘jaliklari chorvasining asossiz tortib olinishi hamda paxta yakka hokimlikligi tufayli bu soha orqaga ketdi va, nihoyat, ozuqa ekinlari maydonining kamayishi natijasi ekanligini oshkor etishgan. Oldingi yillarda, masalan 1926-27-yillardagi hisobotlarni olib ko‘radigan bo‘lsak, chorva yalpi sonining 9,4 foizga ko‘payganligini ko‘rish mungkin. 1928-yilda esa 1927yilga nisbatan 4,2 foizga ko‘paygan. Bir yil ichida 5,2 foiz chorvaning kamayishi kuzatiladi. Demak, 1929-yildan boshlab chorvaning hamma turi bøyicha orqaga ketish boshlangan. Rahbariyat esa 1931-yilga kelib O‘zSSR davlat reja komissiyasi chorvachilikni rivojlantirish to‘g‘risida qaror qabul qilgan.¹⁰¹ Unda 1931-yilga kelib oldingi yillardagi chorva soniga yetishi kerakligi ta`kidlandi.

¹⁰¹ ЎзРМДА. Ф-837, рўйхат – 9, 613 – йигма жилд, 19-бет

Jadval

| Yillar | Qo‘ylar | Dumbali qo‘ylar | Otlar | Yirik shoxli molar | Sigirlar |
|----------------------|---------|--------------------|-------|-----------------------|----------|
| 1930 yil bahorida | 200000 | 15201 | 4924 | 14163 | 4513 |
| 1930 yil kuzida | 17090 | 11542 | 4873 | 13940 | 4459 |
| 1931 yil bahorida | 22901 | 16142 | 5192 | 15340 | 4514 |
| 1931 yil kuzida | 19660 | 12408 | 5138 | 15100 | 4460 |

1931-yilga kelib chorvaning eng asosiy turlari kamayib ketishi ko‘rinib turibdi.

Foiz hisobida quyidagi xolatni ko‘rish mungkin.

Jadval

| Yillar | Qo‘ylar | Dumbali qo‘ylar | Otlar | Yirik shoxli molar | Sigirlar |
|---------------------------------|---------|--------------------|-------|-----------------------|----------|
| 1930 yil bahorida | 119,5 | 105,4 | 105,4 | 108,4 | 100,0 |
| Besh yillik reja bo‘yicha | | | | | |
| 1931 yil bahorida | 32430 | 21751 | 5508 | 17846 | 5291 |
| Besh yillik reja bo‘yicha | 70,7 | 74,2 | 44,3 | 85,7 | 85,0 |

Jadvalda ko‘rinib turibdiki, 1931-yilga kelib chorva sonini oldingi yillardagi darajaga yetkazish ko‘zda tutilgan. Ilk navbatda yirik shoxli mollar va otlarni ko‘paytirish diqqat markazida edi. Ammo chorvachilikni oldingi darajaga yetkazishning imkoniyati yo‘q edi. Sababi esa quyidagilardan iborat.

Birinchidan, yem-xashak masalasi keskin muomo bo‘lib qoldi. 1931-yilda O‘zSSR XKSning 3 fevraldagagi qarori bilan 1.83556 sentner o‘rniga 1.565422 sentner qilib o‘zgartirildi topshiriq 271044 sentnerga kamaytirildi. Bu albatta paxtachilikni ko‘paytirish hisobiga yuz berdi.

Ikkinchidan, 1930-31-yillar davomida davlatga go'sht tayyorlash rejasini keskin ortib ketishi tufayli yuz berdi.

Uchinchidan, chorvachilikni yuksaltirish uchun mablag' yetishmasligi orqali. Masalan, O'zSSR XKSning 1931-yil 8-yanvardagi yig'ilishida "Chorvachilikni yuksaltirish uchun tadbirlar ishlab chiqilgan". Unda XKS muovini o'rinnbosari Davletshevning ma'lumot berishicha, davlat tomonidan chorva kasallanishining oldini olish uchun 79426 so'm ajratilgan. Vaholanki, bu summa chorva mollarni keng ravishda chatishtirish orqali kelgan kasallikning oldini olish uchun yetarli emas edi. To'rtinchidan, yem-xashak masalasi qiyin holatda, ko'rileyotgan tadbirlar yetarli emas edi. Masalan, 1930-yilda O'zSSR XKSning 21 qarorida "Chorvachilik sovxozi kuzgi ekin maydonlarini quyidagi tartibda belgiladi:"¹⁰²

| Sovxozi nomi | Boshoqli ekin | Ozuqa ekinlari | Tez yetiladigan o'simliklar |
|----------------|---------------|----------------|-----------------------------|
| AO qo'yichilik | 2500 | 2500 | 1000 |
| Chorvachilik | 2500 | 2500 | 1000 |
| Qo'yichilik | 1000 | 1000 | 1000 |

Chorvachilik sohasidagi qiyinchilik, go'sht tayyorlash rejasining ortib borishi vaziyatni keskinlashtirdi. Shuning uchun 1931-yil 19-yanvar kuni VRIK XS raisi Boltayevning imzosi bilan SSSR XKS raisi Molotov va XKSning ta'minot raisi Mikoyanga maktub yo'llangan. Unda aytishicha, O'rta Osiyo Iqtisodiy kengashining ta'minot bo'yicha vakili Moskvaga yanvar oyida O'rta Osiyodan 11 ming tonna go'sht yuborish taklifini qo'ygan.¹ Shundan 5 ming tonnasini Qirg'izistonidan, qolgan qismini O'zbekiston, Tojikiston va Turkmanistondan olib ketilishi mo'ljallangan. O'zbekiston ehtiyojini ta'minlash uchun qo'shimcha 20 ming tonna go'sht kerak bo'ladi. Chunki, ekish arafasida baliq mahsulotlari hamda sabzavot va sut mahsulotlari ham yetarli emas edi. Maktubda shuning uchun O'zbekistondan go'sht olishni to'xtatish o'tinib so'ralgan.

¹⁰² ЎзРМДА. Ф-837, рўйхат – 9, 619 – йигма жилд, 8-бет

Respublikamiz go'sht mahsulotlari bilan xalqni ta'minlanishining yomon ahvolda ekanligiga quyidagilar sabab bo'ldi:

Birinchidan, mahalliy chorva mollarining rejasiz va to'xtovsiz go'shtga topshirilishi ko'payib ketdi.

Ikkinchidan, chorva soni reja bo'yicha saqlash mumkin bo'lmay qolganligi tufayli.

Uchunchidan, Qizil armiya mehnatga yaroqli chorva go'shti bilan ta'minlash orqali yuz bergenligini qayd qilish o'rnlidir.

Shunga qaramasdan, chorvachilik sohasida orqaga ketishlarining sababini har xil rahbarlar turlicha izohlaganlar. Masalan, 1931-yil 31-yanvar kungi O'zSSR XKS RKI brigadasining boshlig'i Pestelets chorvachilik sohasida odamlarni (mahalliy O.N.) ishga olganda, xarakterini bilib ishga olish kerak, deydi va ishni keng ko'lamda olib borish bilan sovet chuponini keltirish uchun kurashish kerak, deydi.¹⁰³ Asrlar davomida chorvachilikda katta tajribaga ega bo'lgan mahalliy xalqni yo'l qo'yilgan nuqsonlarning bosh aybdori sifatida talqin qilish mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

Chorvachilik sohasida tajriba to'plaganlarning ko'p qismiga sinfiy dushman sifatida qaralishi, ularning tajribasi inobatga olinmasligi asossiz ravishda go'sht tayyorlashlar va nihoyat ozuqa bazasining keskin kamayishi bu sohaning orqaga ketishiga bosh omil bo'lib xizmat qiladi. Chorvachilik sohasida "Sovet cho'poni" ni tayyorlash kabi uydirma asossiz fikrlarni rad etgan holda chorvachilik muammolarini ilmiy tahlil qilish orqali bu nuqsonlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash mumkin deb o'ylaymiz. Chorvachilikning orqaga ketishi ma'lum bir davrda , ya'ni qisqa vaqt oralig'ida yuz bergani yo'q. Chorvachilik keying bir ikki yil ichida asl holiga kelishi mumkin edi, degan gaplar ham haqiqatdan yiroq bo'lgan asossiz fikrlar. Zero, chorvachilik bevosita dehqonchilik bilan bog'langan bo'lib, ularni bir-biridan ajratish qiyin, ammo ular orasidagi munosabatlarni ushlab turish uchun o'lkaning geografik shart-sharoitini va kishi psixologiyasini hisobga olgan holda bir me'yorda tutib turish mumkin edi. Lekin bunday qilishmadi. Ishonch bilan aytishimiz mumkinki, o'kadagi

¹⁰³ ЎзРМДА. Ф-837, рўйхат – 9, 616 – йигма жилд, Б. 22.

chorvachilikning orqaga ketishiga zamin hozirlagan davr–bu dastlabki islohotlar davriga borib yetishini yuqoridagi misollar tasdiq etadi.

Mana bu jadvalga diqqat qiling:

Jadval

| Rayonlar | Keltirilgan | Kasallandi | O‘g‘irlangan | So‘yib yuborildi |
|-----------------|--------------------|-------------------|---------------------|-------------------------|
| Kirov | 871 | 567(68,0%) | 84(9,6%) | 409(46,9%) |
| Ordjonikidze | 1439 | 1300(90,3%) | 48(0,2%) | 532(37,0%) |
| Bog‘dod | 3110 | 1236(39,7%) | 65(2,0%) | 735(23,6%) |

Bu ma’lumot 1937-yil dekabriga ta’lluqlidir.

Lekin bir narsani hisobga olish kerakki, chorva mollarini chetdan keltirish yoki mahalliy chorvani joylashtirish uchun STFlarning yo‘qligi , oqibatida shaxsiy xo‘jaliklarda ham chorva mollari keskin kamayib ketdi. Masalan, 1933-yili O‘zbekiston bo‘yicha chorvaning umumiyligi soni quyidagi tarzda edi:

Jadval

| | 1.01.1934-yil | 1934-yil | O‘sish (foiz hisobida) |
|--------------------------|---------------|----------|------------------------|
| Yirik shoxli mollar | 857,4 | 878,4 | 2,5 |
| STF va sovxozdagi Chorva | 20,0 | 21,5 | 7,8 |
| Umumiyligi | 12,5 | 12,7 | 3,2 |

Bundan tashqari, respublika bo‘yicha chorvaning umumiyligi soni sog‘in sigirlar bilan qo‘shib hisoblaganda quyidagicha edi:

Jadval

| Yillar | Sovxozlarda umum chorva | Sog‘in sigir sovxozlarda | STFlarda | | Jami | |
|---------------|--------------------------------|---------------------------------|--------------------|---------------------|--------------------|---------------------|
| | | | Umum chorva | Sog‘in Sigir | Umum chorva | Sog‘in sigir |
| 1932 y | 20,6 | 7,6 | 17,3 | 3,7 | 357,4 | 330,3 |
| 1933 y | 37,6 | 14,2 | 46,4 | 13,2 | 910,8 | 434,0 |

O‘zbekiston bo‘yicha birinchi va ikkinchi besh yilliklarda ham chorvachilikka e’tibor qoniqarli bo‘lman. Dastlabki besh yillikda chorva sonining keskin kamayib ketishi sababini qulqoq qilinganlar chorvasining majburiy ravishda tortib olinishidan izlash kerak. Bu O‘zKP (b) MK 1931-yil 2-martdan “Quloqlarning qorako‘l va zotdor qo‘ylarini musodara qilish to‘g‘risidagi qarorning noto‘g‘ri¹⁰⁴ chiqarilganligi sabablidir. Lekin tortib olishlar va qo‘rqtish orqali amalga oshirilgan tadbirlar ham chorvachilikni tiklay olmadi. Yakka tartibdagi va shaxsiy xo‘jaliklar chorvasi ham kamayib keta boshladi. Masalan, Bauman tumanda 1935-yilda hammasi bo‘lib 5828ta xo‘jalik bo‘lsa , shundan 2555 tasining sigiri yo‘q edi¹⁰⁵.

Shu tariqa, respublikada paxtachilikka e’tiborning kuchayishi natijasida chorvachilikka bo‘lgan intilish susaya bordi. To‘g‘ri yuqorida aytiganidek, bu sohani rivojlantirish uchun bir qancha tadbirlar ko‘rildi. Ammo bu ko‘rilgan iqtisodiy tomondan quvvatlanmadi. Birinchi besh yillikda paxta mustaqilligi uchun kurash shiori ostida chorvachilikka mos keladigan joylarga zarar yetkazildi. Oqibatda, o‘z mulki va asosiy tirikchilik manbai chorvachilik bo‘lgan xonodonlar undan ajraldi va undan ko‘p kechirish hamda oilani iqtisodiy tomondan mustahkamlab turgan yagona imkoniyati ham xalqdan tortib olindi. Xalqning qashshoqlashuvi eng avvalo boshlangan bo‘lib, geografik jihatdan chorvachilikka ixtisoslashgan mintaqa Sun’iy ravishda va asossiz ravishda izdan chiqarildi. Xalqning kayfiyati va hasrati tinglanmadi. Hamma narsaga paxta o‘sadimi, bo’ldi. Demak, paxta ekish kerak, ekmaslik dushmanlik, deb qarab kelindi, shu asosda ish tutildi. Mintaqadagi o‘ziga xos holatlar buzildi . Buning asorati bugungi kunda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Chunki, ko‘rilgan tadbirlar shuni ko‘rsatadiki, Oktabr to‘ntarishidan keyingi davrda chorvachilikning keskin kamayib ketishi ba’zi tarixchi olimlar (Aminova R.X.. Ibragimova A.Y. Jamolov O.B.) tomonidan “soviet davlatiga dushmanlik qiluvchi sinflar tomonidan qilingan urinishlar tufayli yuzaga keldi” degan umumiy xulosa qilindi va shu talqin bilan bugungi kungacha yetib kelindi. Chunki har holda hech kim me’ros mulk bo‘lgan narsani hech bir zamonda tekinga topshirishga rozilik

¹⁰⁴ Аминова Р.Х. Осуществление коллективизации в Узбекистане (1929-1932 гг). Т.: Фан, 1977. Ст. 108.

¹⁰⁵ ЎзРМДА. Ф-90, рўйхат – 8, 1716 – йигма жилд, Б.40.

bermasa kerak. Shuning uchun chorvachilikga yetkazilgan zarar mintaqamizning geografik shart-sharoitlarini yaxshi o'rganmasdan, hamda paxta yakkahokimligiga asoslangan tuzumning joriy etilishi tufayli yuz berdi. Ushbu sohani tiklash uchun ko'rilgan tadbirlar, qarorlar bir-biriga zid va ko'plari iqtisodiy tomondan puxta ishlab chiqilmagan tadbir va qarorlar edi.

Qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish davrida dehqonchilik va chorvachilikka yetkazilgan zararning oqibatlarini ko'rib o'tdik. Demak, har ikkala sohadagi kamchiliklar bir-biriga taqqoslagan holda quyidagi xulosaga keltiradi:

Birinchidan kollektivlashtirish boshidan oxirigacha dehqon hamda yakka tartibdagi xo'jaliklarni to'g'ridan - to'g'ri siquvga olish xarakterida bo'ldi.

Ikkinchidan, kolxozlar tuzish davrida ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirish borasidagi nuqsonlarni ro'yrost aytilmagani oqibatida, ularni joylarda tugatmaslik natijasida ko'p noroziliklar kelib chiqdi.

Uchinchidan, qishloq xo'jalik, jumladan g'alla mahsulotlarini yetishmasligi, paxta mustaqilligiga erishish uchun ko'rilgan tadbirlar natijasida yuz bergenligini alohida ta'kidlashimiz kerak.

To'rtinchidan, kolxozlarning ishlab chiqarish rejalarini tuzishda partiya xodimlari tomonidan yuqorida turib boshqaruvi natijasida dehqonlarni mustaqil fikrlash va ish yuritish yo'li to'sib qo'yildi.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligi butunlay eski usulda ish yuritish, yangilikni ozida joriy etish imkoniyatlaridan maxrum bo'ldi. Oqibatda ishlab chiqaruvchining ishlab chiqarish vositalaridan va mehnat natijalaridan begonalashuviga olib keldi.

Oltinchidan, don tayyorlashning barbod bo'lishi tufayli davlatga kolxozi mahsulotini majburan yetkazib berishi joriy etildi. Don va boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlarining katta qismining narxi bozor narxidan 10-12 barobar arzon qilib belgilandi.

Yettinchidan, mamlakat bo'yicha yagona tizim joriy etildiki, bu o'z navbatida kolxozlarning erkin ko'chib yurish hamda o'z kasbini o'zgartirishga, turmushini yaxshilashga imkon bermadi.

Sakkizinchidan, kolxozchilar fuqarolik passporti yo‘qligi oqibatida ularni kolxozga muqim qilib qo‘yish va ularning mexnatiga majburiy tus berishga sabab bo‘ldi. Buning orqasida qishloqlarda dehqonlarning yerdan bezishi ommaviy tus olishiga sabab bo‘ldi.

To‘qqizinchidan, ommaviy ravishda monokulturaga o‘tish, dehqonlarning iqtisodiy ahvolini og‘irlashtirdi va har qanday noroziliklar siyosiy yo‘l bilan hal qilinishi tufayli qishloqning haqiqiy egasi o‘z yerida begona kishidek his qilish ruhiyatini, ya’ni “davlatniki” degan tushunchaning paydo bo‘lishi bilan mehnatga bo‘lgan munosababtini o‘zgartirdi. Natijada mahalliy aholining turmush darajasi keskin ravishda pasayishi, mehnatdan bo‘yin tovlash kabi baholandi.

O‘ninchidan, sinfiy tabaqalanish, ya’ni quloq qilishlar dehqonlarni sotsial tarkibini o‘rganilmasdan, me’ros mulki xisobga olinishi tufayli, ko‘chirish, sun’iy ravishda qishloqdagi ishbilarmonlarni, mexnatni tashkil qiluvchilarni ta’qib ostiga olish, qishloq xo‘jalik maxsulotlarini taqchilligiga, xatto ocharchilikka olib keldi, xolos.

Va nihoyat, dehqonchilik bilan be’vosita bog‘liq bo‘lgan chorvachilik sohasi ham yuqoridagi kamchiliklar tufayli uzoq yillar davomida asl xoligacha, ya’ni yer-suv islohotidagi davr ko‘rsatkichini ushlab turishni iloji bo‘lmadi. Sababi, dastlab paxta mustaqilligiga erishish uchun kurash davrida ozuqa ekin maydonlarining keskin kamayishi hamda quloq va dehqon xo‘jaliklari tarkibidagi chorvalarni kolxozga umumlashtirish va tortib olishlarning keskin bo‘lishi orqali. Eng asosiysi, me’ros mulkka nisbatan chiqarilgan qarorlarning noto‘g‘ri ekanligi, respublikaning geografik shart-sharoiti hisobga olinmaganligi, shaxsiy chorvalarni saqlashdagi cheklashlar hamda soliqlarning ortib borishi davlatga go‘sht topshirish rejasining respublika imkoniyatidan kelib chiqib rejalahtirilmaganligi, berilgan qarorlarni bajarish shartligi, STFlar va boshqa turdagи sohalar ahvolini og‘irlashtirgani, shuningdek kolxoz ustavi bilan shaxsiy chorvaga ega bo‘lish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalarning bir-biridan farq qilishi va nihoyat, chorvachilikka bo‘lgan e’tibor asosan quloq xo‘jaliklari xisobiga o‘zgarishlar qilish mumkin degan fikr bilan ish tutish orqali katta yo‘qotishlarga olib keldi.

2.3. Qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy turmushi.

Ma'lumki, O'zbekiston qishloq aholisining ko'p qismi dehqonchilikning turli sohalari bilan shug'ullanib kelishadi. Sobiq Ittifoq davrida olib borilgan siyosiy qarorlarning mazmuni tufayli tashkil etilgan ommaviy jamoallashtirish davrida yuz bergen ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarning ayrim mazmun shaklini tahlil qilib o'tmoqchimiz. Sababi, ommaviy kollektivlashtirish davri qiyinchiliklar va yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarning asoratlari natijalariga mustaqillikkacha bo'lgan totalitar tuzum sharoitida o'z yechimini topish yo'lida turli xil urinishlar o'z natijasini bergen emas. Shu sababli biz tadqiq qilayotgan davr hisoblangan ommaviy jamoallashtirishda qishloq turmush tarzining to'laligicha faktlar asosida qayta tahlil qilish orqali yo'qotilgan imkoniyatlarni, busohadagi xato-kamchiliklar natijasi yangi qurilayotgan huquqiy demokratik jamiyat taraqqiyoti uchun ma'lum ma'noda, ayniqsa, qishloqxo'jaligi sohasida ayrim voqealarni oydinlashtirishda xizmat qilishi mumkin.

Bugungi kunda shu narsa ravshanki, nafaqat agrar sektor,balki umuman jamiyatimizning rivoji dehqonning mustabid kolxoz–sovxozi tizimi shakllantirgan eski tipidan xo'jalik yuritish usullari va agrar islohot talablariga monand zamonaviy tipiga o'tish muvaffaqiyatiga ko'p jihatdan bog'liq. Shu vaqtadan yangi tipdagi mulkdor, sohibkor, tadbirkor dehqonni shakllantiishning umumiy qonuniyatları bilan birga mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq etish ham ijtimoiy fan xodimlari oldida turgan dolzarb muammolaridan biridir. Qishloq xo'jalik sohasidagi dastlabki qiyinchiliklar, ayniqsa, qishloq aholisining moddiy turmush tarzi qishloqqa hukmronlik munosabatini boshlab bergen davr 1929-yildan keyingi buyruq ortidan buyruq kelishi tufayli qishloqning asrlar davomida tarkib topib kelgan xo'jalik mexanizmi izdan chiqqa boshladi. Oqibatda aholining turmush tarzini izdan chiqishi boshlandi. Sababi,1927-yilda respublikamiz dehqonchilik rayonlarida taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra o'rtaxollar 53,3 foizni tashkil etgan.¹⁰⁶ Lekin keyingi davrda ushbu jarayon ko'pgina firqa va yirik tashkilotlar rahbarini go'yo ma'lum

¹⁰⁶ Росляков А.А.Средазбюро ЦК ВКП(б),-Ашхабад;1975 г,127-ст.

“esankirash”ga solish qishloqqa jiddiy kuch ishlatalish orqali xo‘jalik yuritish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladigan so‘nggi imkoniyatlar boy berildi.

Bugun bizga ma’lum bo‘lishicha, agrar sohada ahvol yaxshi bo‘lgan emas. Axborot vositalarida chiroyli tasvirlangan kolxozchilarning baxtli turmush kechirishi ortida keng dehqonlar ommasining ommaviy qashshoqligi, ochligi, kambag‘alligi yashirinib turardi. Yangi iqtisodiy siyosatdan yoppasiga kollektivlashtirishga, tovar-pul munosabatlardan markazlashgan ma’muriy iqtisodiyotda burilish mehnatkashning moddiy ahvolini uning mehnati natijalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligiga ko‘rinayotgan tabiiy jarayonlar siquvini belgilab berdi. Shu tariqa teng taqsimlab berish tamoyili mustahkamlandi. Moddiy rag‘batlantirish ishlab chiqarishni me’yorda ushlab turuvchi vosita vazifasini yo‘qotdi. Ular ma’muriy siquv, buyruqbozlik, mafkuraviy rag‘batlantirish usullari bilan almashtirildi. Bunday g‘ayri-iqtisodiy yondashuv aholi turmush tarzining uzoq muddatli salbiy oqibatlariga olib keldi.

Markazning g‘ayri dehqonchilik siyosati deyarli barcha qishloq xo‘jalik rayonlarida olib borilgani kabi O‘zbekistonda ham bu siyosat salbiy oqibatlarga olib kelib, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida salbiy jarayonlar kuzatildi. Masalan, birinchi besh yillik davomida bug‘doy hosildorligi gektaridan 1,8 sentnerga kamaydi. Bog‘dorchilik va uzumchilik bo‘yicha o‘rtacha hosildorlik 1,5 marta kamaydi.¹⁰⁷

Chorvachilik ham ko‘rinarli darajada yo‘qotishlar bo‘ldi. Xususan, kolxozlarni mustahkamlash borasida chora-tadbirlar ko‘rilgan bo‘lsa ham kollektivlashning boshlang‘ich davrida sodir bo‘lgan chorva sonining keskin kamayishi tendensiyasini to‘xtatish imkoni bo‘lmaydi. Masalan, 1931-32 xo‘jalik yilida respublikada qoramol soni 1008,6 dan to 878,0 mingtagacha kamaydi, dumbali qo‘ylar 904,6 mingdan 592,7 ming boshgacha, echkilar soni 880,0 mingdan 451,7 ming boshgacha, otlar soni 12,7 foizga kamaydi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning keskin pasayishi hamda agrar ishlab chiqarishning umumiyligi inqirozi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan

¹⁰⁷ Голованов А.А.Инатов М.Н.Трагедия форсированной коллективизации в Узбекистане.-Т.,1997г-100-ст.

ta'minlanishiga ta'sir etmay qolmadi. Bu esa kun sayin yomonlasha bormoqda edi. Buning asosiy sababi, birinchidan, dehqonlar kolxozlarga kuch ishlatish yo'li bilan kiritilganligi va ularning ijtimoiy ishlab chiqarishdan hamda mehnat samaradorligini oshirishdan manfaatdor emasligida edi. Kolxozi dalalarida har bir oiladan bir-ikkita odam ishlab, qolgan oila a'zolari shaxsiy tomorqalari bilan band bo'lganlar. Kolxozlarda muntazam ravishda, ayniqsa, hosilni yig'ib-terib olish davrida, ishchi kuchi yetishmasdi va bu ishlarga shaharliklarni safarbar etib ishchi kuchining yetishmasligini to'ldirishga urindilar.

Ikkinchidan, 1933-yilga kelib, paxta qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning umumiy miqdorida 81,5 foizni tashkil etishi, hamda paxta yakkahokimligining qaror topishi bilan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiriladigan maydonlar qisqara bordi. Davlat rejasini bajarish qolipi ostida olib borilgan oziq-ovqat solig'i qishloqning qashshoqlashuviga olib keldi. Chunki kolxozchilar butun kuchini kolxozda mehnat qilishga sarflasa ham, ularning mehnatiga deyarli hech qanday haq to'lanmaydi. Balki faqat mehnat kuchlari yozilib borilgan, xolos.

Sovxozi va MTSlarda oylik to'lanayotgan bo'lsa ham, amalda bu oylik juda kam bo'lgan. Mehnatga haq to'lash tizimida umuman tushunmovchiliklar hukm surgan. 1933-yildan so'ng mehntga haq to'lashda yangi nizom kiritildi va ishchilar tabaqalarga bo'linib, ularga mehnat haqi belgilandi. Shunday bo'lsa ham, kolxozchilar va sovxozi ishchilarining mehnat haqi juda oz edi. Shuning uchun bunday sharoitda qishloqda istiqomat qiluvchilar o'zlariningshaxsiy tomorqalarida yetishtirilgan mahsulotlar bilan kun kechirardilar. Biroq bu yerda ham turli-tuman soliqlar kiritilgan edi. Har bir daraxt, chorva, parandalarga soliq to'lanardi. Ekinzorlar va yaylovlar chegaralari qat'i belgilangan edi. 1935-yilgacha, ya'ni qishloq xo'jaligi arteli Nizomining qabul qilinganligiga qadar, shaxsiy tomorqa dehqonlarning shaxsiy mulkdagi moddiy asosi deb hisoblangan. Bularning barchasi, albatta, dehqonlarning turmush darajasining keskin pasayishiga olib kelgan. 1935-yil fevralida qabul qilgan qishloq xo'jalik arteli Nizomi qishloqda ya'ni munosabatlarni belgilab berdi. Kolxozlarda ishlab chiqarishni va taqsimlash tashkil etish

tamoyillarini belgilab berdi. Uchastkasi bilan ta'minlanishi kerak edi. Biroq, bu tadbirning ahamiyatini ko'tarish xato bo'lar edi. Chunki, O'zbekiston amalgajratilgan yer uchastkalar ikki barobar kamroq edi. Hamda ko'plab kolxozchilar umuman yer uchastkalariga ega emasdilar. Masalan, 1937-yilda O'zbekistondagi 66 ming kolxozchilar oilasida tomorqalari yo'q edi.

140 ming kolxozchilar oilasining tomorqa uchastkalari esa amaldagi me'yordan kam edi.¹⁰⁸

Aholining iqtisodiy ahvolini og'irlashuviga 1930-yildanboshlab iqtisodiy terrorning kuchayishi, ya'ni soliq turlarining yildan-yilga kuchayishi natijasida kuzatildi. Masalan, 1931-yilda bir xo'jalikka solinadigan qishloq xo'jalik solig'i miqdori kolxozchilarga-4 so'm, oddiy shaxsiy xo'jaliklarda -23 so'm, yakka tartibdagi dehqon xo'jaliklariga soliq miqdori -398 so'm edi. Umuman kollektivlashtirishning olti yili mobaynida shaxsiy xo'jalikka solinadigan qishloq xo'jalik solig'ining miqdori 9 barobar ko'paydi. 1935-yilga kelib u 23 so'mdan 210 so'mga yetdi.¹⁰⁹

Shuningdek, yakka tartibdagi dehqon xo'jaliklari uchun soliq miqdori yana ham oshib borgan. Masalan, 30-yillar birinchi yamida uning miqdori qishloq xo'jalik solig'ining deyarli ikki barobar miqdorida bo'lgan edi. Natijada, 1930-yilda yakka tartibdagi xo'jalikdan 11 so'm olingan bo'lsa, 1935-yilda 84 so'mdan 124 so'mgacha yetdi. Shu vaqtning o'zida kolxozchilar 1931-yilda hukumat qarori bilan yangi soliq – "qishloq rayonlaridagi xo'jalik va madaniy qurilishga mo'ljallangan" soliq kiritiladi. Besh yil ichida madaniy yig'imlar miqdori yakka tartib uchun 7- 8 marta oshdi: 15 so'mdan 62-145 so'mgacha.¹¹⁰

Oxir-oqibatda xalqning so'nggi imkoniyati ham yo'qqa chiqarildi, chunki 1933-yil 29-dekabr xo'jalik va madaniy qurilishga yig'imlar to'g'risidagi qaror chiqdi. Bu soliqni kolxozchilar 15-aprelga qadar to'lab qo'yishlari kerak edi. Shunday qilib, yakka tartibdagi dehqon xo'jaliklariga nisbatan o'tkazilgan soliq siyosati ularni 1931-

¹⁰⁸ Ризаев Г.Сельское хозяйство Узбекистана за 40 лет.-Т.,Госиздат Уз ССР,1957.-53-ст.

¹⁰⁹ Марьяхин Г.Л.Очерки истории с налогом с населения в СССР.Госиздат,1964.-140-141-ст.

¹¹⁰ Марьяхин Г.Л.Очерки истории с налогом с населения в СССР.Госиздат,1964.-148-ст.

1935-yillarda majburlabkolxozga kiritish uchun ishlatalgan o‘ziga xos “tayoq” bo‘ldi. Bunda yakka tartibda soliq solish muhim rol o‘ynaydi. Vaqtı-vaqtı bilan alohida xo‘jaliklardan soliq yig‘ish barchani doimiy qo‘rquvda ushlab turar edi va yakka tartib xo‘jaliklarni kolxozchi bo‘lish “afzalligi” haqida eslatib turar edi.

Ma’muriy buyruqbozlik, yakka tartibdagi xo‘jaliklarni zarba berdi. Agrar sohadagi hisob-kitob munosabatlari buzildi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi o‘rtasida o‘zaro manfaatli ayirboshlashdan voz kechildi, oziq-ovqat solig‘i tamoyiligi qaytildi va natijasida iqtisodiyotda chuqur deformatsiyaga olib kelindi. Qishloq xo‘jaligini ommaviy kollektivlashtirish qishloqning turmush tarzini izdan chiqardi .Stalincha kollektivlashtirish qishloqdagi tabiiy rivojlanish jarayonlarini to‘xtatdi,tarixiy taraqqiyot yo‘lida o‘g‘ir tosh bo‘lib,to‘siq bo‘ldi. U dehqonlarni buysundirib,ularni umr bo‘yi “Agro qamoq” ning kolxoz “kameralariga” qamab qo‘ydi. “Yer haqidagi Dekret” kabi dasturiy hujjatni inkoretgan tarzda yer uning haqiqiy egasidan tortib olindi va umumxalq mulkini yaratish shiori ostida ma’muriy-buyruqbozlik mevasi bo‘lgan soxta usuli xalq mulkchiligidagi aylantirildi. Kolxozlarga zo‘rlab kiritilgan dehqonlarbarcha asosiy fuqarolik huquqlaridan, birinchi navbatda ko‘chib yurish erkinligi, kasbiy faoliyatni tanlas huquqidan mahrum bo‘lishdi.

“Baxtli” kolxozchilar “to‘kin-sochin hayotdan” qochib ketmasliklari uchun ularning passportlari tortib olindi. Ularga kolxozlardan o‘z xohishiga binoan chiqish man etildi. Kelishmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida esa 1932-yil 7-avgustda agar kimki dehqonlarni kolxozlardan chiqishga undashga urinsa, u 5yildan 10 yilgacha muddatga “konsentratsion lagerga” qamaladi, deyilgan farmon chiqarildi. O‘zbekistonda mazkur farmoniga muvofiq 1933-yilning o‘zida 2,5 ming dehqon ma’muriy javobgarlikka tortildi.¹¹¹

Kolxozchilarga haq to‘lash tartibi butunlay izdan chiqdi. Birgina 1937-yilda bir mehnat kuni haqi respublikada o‘rtacha 4 so‘m 15 tiyin bo‘lgan bo‘lsa, 1938-yilda 3 so‘m 84 tiyingacha tushdi. Ko‘pgina xo‘jaliklarda mehnat kuni haqini to‘lash kolxoz kassalariga mablag‘ yo‘qligi tufayli olib borilmasdi. Bundan tashqari mehnat kunlari

¹¹¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи.2-китоб.Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида.-Тошкент; Шарқ,2000.-366-бет.

no‘tog‘ri hisoblangan holatlar ham kuzatilgan va dehqonlar ular bilan hisob-kitob qilish vaqtida aldangan holatlar ham uchragan. Eng achinarlisi shuki,dehqon turmushini belgilovchi omil hisobangan o‘z xo‘jaligidan ajratdilar yoki imkoniyati yo‘q darajaga keltirildi. Yordamchi tomorqa yerlari bilan barcha dehqonlar ta’minlamagan edi. Masalan, 1937-yilda o‘z shaxsiy tomorqalariga ega bo‘lmagan dehqonlar 28,7 foizga yetdi, tomorqalari borlaridan 42,3 foizi esa o‘sha davrda atalgan iborani ishlatsak,”sigirsiz” xo‘jaliklar bo‘lgan.¹¹²

Va nihoyat, xulosa shuki, amalga oshirilgan chora-tadbirlar avvalgidek asosan ishchilar sinfining ahvolini bir oz o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lib, qishloq aholisi esa barqaror ijtimoiy ta’minot doirasidan chetda qolaverdi. Shuni ham aytish kerakki, ijtimoiy ehtiyojlar uchun budjet mablag‘larining ko‘payishini davlat ezilgan dehqonlarni shu jumladan, O‘zbekiston qishloq aholisini talash hisobidan qopladi. Yoppasiga jamoallashtirishning usullari bilan shu tariqa dehqonlarnng asrlar davomida shakllagan turmush tarzi buzildi, dehqonlar ishlab chiqaruvchi sifatida buzilib, ular o‘zga shaxslar xohish-istiklarini bajaruvchi ishchi kuchga aylantirildi, yerdan begonalashdi, ishlab chiqarishning yakuniy natijalaridan manfaati pasaya boshladi. Qishloqdagi xo‘jalik aloqalalar tizimiga davlatning aralashuvi soxta sotsialistik munosabatlarning mustahkamlanishi natijasida dehqonlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Dehqonlar yerga egalik qilish hissini yo‘qota boshladi. Asrlar davomida ishlab chiqilgan va mustahkamlangan mehnatsevarlik sifatlarini yo‘qota boshladilar. Mehnatiga va kasbiy mahoratga munosabatlari susaya bordi. Keng miqyosida olib borilgan dinga qarshi tashviqot ishlari natijasida iqtisodiyot va madaniyatning mafkuralashuvi natijasida, totalitar tuzum qadriyatharining aholi ongiga singdirish natijsida dehqonlar barcha sovet kishilari kabi umuminsoniy qadriyatlariga hurmatsizlik negizida tarbiyalandi. Qishloqdagi an’anaviy urf-odat va ana’analar qoralandi, xalqni tarixiy va madaniy xotirasi toptala boshladi.

Shunday qilib, hozir O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish hamda aholini turmush-tarzini yaxshilash uchun muhim jihatlar bo‘yicha quyidagi xulosa va

¹¹² Ўзбекистоннинг янги тарихи.2-китоб.Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида.-Тошкент; Шарқ,2000.-367-бет.

takliflarni bermoqchimiz va muhim jihatlari bo‘yicha quyidagi xulosalar orqali bermoqchimiz:

Birinchidan, qishloq xo‘jaligida unutilgan haqiqiy shirkat xo‘jalik asoslarini qayta tiklash lozim.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishda demokratizmni, o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmini yaratish lozim.

Uchinchidan, davlat va boshqa xo‘jalik subyekti o‘rtasida o‘zaro shartnomaviy munosabatlarni yuzaga keltirishlari lozim.

To‘rtinchidan, qishloq xo‘jalik xodimlari erkin ishlab chiqarish strukturasini shakllantirishlari lozim.

Beshinchidan, mehnatga tamomila yangicha munosabatni qaror toptirish zarur.

Oltinchidan, davlatning qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish usulida olib borishdan voz kechishi kerak.

Yettinchidan, dehqonga mulkchilik munosabatlarini his etuvchi faol shaxsga aylantirish choralarini qurish lozim.

Sakkizinchidan, dehqonga eng qimmatli bo‘lgan milliy an‘anaviy fazilatlarini tiklanishi va mustaqillikka xizmat qilish to‘g‘risini shakllantirish lozim. Nihoyat, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining qabul qilgan mulk to‘g‘risida, yer to‘g‘risida, ijara pudrati kabi qonun va farmonlarni to‘laqonligi hayotga tadbiq etish yurt farovonligi uchun xizmat qiladigan har bir fidoyi insonning eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolishi kerak.

XULOSA

Ommaviy kollektivlashtirish davri sobiq Ittifoq tasarrufidagi respublikalar qatori O‘zbekiston xalqi tarixiy taqdirida ayanchli asoratlar qoldirgan davr sanaladi. Chunki xalqimizning qariyb chorak kam bir asrlik siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti mazkur tarixiy jarayon bilan mustahkam bog‘liq.

Aslini olganda kollektiv xo‘jalik yuritish g‘oyasi soxta, real hayotdan uzilib qolgan edi. Kommunistik mafkurachilar yirik agrar jamoa korxonasi yakka dehqon xo‘jaligidan yaxshiroq, degan fikrga qat`iy asoslanib ish ko‘rdilar. Chunki erdan foydalanishning jamoa tizimi markazlashgan rejalashtirishni va ko‘pmillionli qishloq mehnatkashlarini boshqarishni osonlashtirar, qishloqdagagi keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy ishlarni butun mamlakat miqyosida tezroq amalga oshirish imkonini beradi.

Kollektiv xo‘jalikka o‘tish tadbiri to‘g‘risida (eski matbuot hamda siyosiy tuzum tazyiqi tufayli) ochiq haqiqatni yozish imkonni bo‘lmagan davrda o‘tmishdagi afsonaviy soxta g‘oyalar fanga kiritildi, tarixiy asarlarda katta o‘rin tutdi.

Totalitar tuzum sharoitida uning agrar siyosatini ma`qullovchi tarixiy ma’lumotlar ilmda asosiy o‘rin olganligining bosh sababi ma’muriy buyruqbozlik jamiyat ma’naviy hayotini to‘la egallab olganida bo‘lib, buning asosiy sabablarini quyidagicha talqin qilmoqchimiz:

Birinchidan, tarix fanida partiyaviylik, sinfiylik tamoyillari hukmronlik qilgan.

Ikkinchidan, hukmron mafkura tazyiqi-tarixiy haqiqatni yozishiga yo‘l bermagan.

Uchinchidan, bu jarayon bir yoqlama noto‘g‘ri yoritilgan.

Hozirgi kunda pudrat, fermerlik qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning, mehnatni tashkil qilishning ilg‘or usullariga aylangani singari o‘z davrida kollektiv jamoa xo‘jaliklari ham mamlakat iqtisodiy qudratini oshirishda, odamlar ongi va shuurida yakdillik, o‘zaro hamkorlik, baynalminal xis-tuyg‘ularni tarbiyalovchi “maktab” bo‘lgan, degan tushunchalar hayotida mustahkam o‘rnashib qolgan edi.

Natijada, tarix sahifalarida, ilmiy jamoatchilik orasida, vaqtli matbuot sahifalarida kolxoz (jamoa) tuzumi tufayli erishilgan yutuqlar, bu jarayon ilg‘or

tadbir ekanligini ta'kidlovchi fikr va mulohazalar tez-tez targ'ib etilib, matbuotda keng yoritildi.

Biz bu o'rinda ommaviy jamoalashtirish joylarida, jumladan O'zbekistonda qay tarzda, qanday yo'llar va vositalar bilan o'tkazilganligi, qanday oqibatlarga olib kelganligi, soxta jamoa xo'jaliklarining keyingi tarixiy taqdiri xususida to'xtalib o'tirmaymiz. Chunki bu mavzu o'zgacha tadqiqotlarni talab etadi. Faqat ta'kidlamoqchimizki, 20-yillarda boshlanib, 30-yillar o'rtalarida ham davom etgan mazkur voqeа o'z tabiatи, xato-kamchiliklari, muammolari bilan birga qayta tahlil qilishga muhtojligini davr ko'rsatmoqda.

Ulkan maqsadlar yo'lida qo'yilgan har bir qadam, har bir ish tabiiy, rejali sur'atda olib borilsa va bu jarayon sun'iy ravishda siyosiylashtirilmasagina yaxshi samara berishi mumkin. Aks xolda ezgu niyat bilan boshlangan ishda katta muammolar, to'siq va g'aflat paydo bo'lib, ular bartaraf etilguncha ko'pchilikning aziyat chekishi turgan gap. Biz O'zbekistonda soxta kolxozlashtirish davri (ya'ni 1920-yillar oxiri 30-yillar o'rtalari) tarixga nazar tashlar ekanmiz, uning barcha ijtimoiy-iqtisodiy qirralarini va asl mohiyatini ochib berishga harakat qildik. Shu maqsadda O'zbekiston respublikasi markaziy Davlat arxivasi, respublikadagi qator viloyat arxivlari, 1920-yillar oxiri 30-yillar o'rtalarigacha bo'lgan davrga oid vaqtli matbuot nashrlarini o'rganish, shuningdek, o'sha davrning shohidlari bo'lgan avlod vakillari, ular vorislарining guvohliklari asosida ushbu ishda ko'tarilgan masalalar bo'yicha monografiyada quyidagi xulosalarga keldik:

1. O'zbekistonda ommaviy jamoalashtirish tadbirlarini amalga oshirish sub'ektiv ijtimoiy zo'ravonlik yo'li bilan olib borildi. Bu usul ayrim sohalarda birmuncha yuksalishni ta'minlay olgan bo'lsa ham, oqibat natijada millatlar va xalqlarning milliy o'zligini iqtisodiy hayotining esa izdan chiqarishga olib keldi.

2. Xo'jalik qurilishda borgan sari ma'muriy buyruqbozlik ta'ziyqi kuchayishi tufayli iqtisodiy usullardan chekinish o'zga tobora ko'proq tashlana bordi.

3. Yoppasiga kollektivlashtirish nixoyasiga etishi bilan qishloqdagi jamoalar, yer jamiyatlari bo'lib ketdi, qishloq ahli yig'inlari ular o'zini-o'zi boshqarishning

boshqa turlari ahamiyatini yo‘qotdi. Ko‘pchilik, dehqonlarning o‘zaro yordami va kooperatsiyaning an’anaviy turlari jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlamay qoldi.

4. Kolxozlashtirish harakati tarixida kooperatsiya o‘ziga xos ijobiy rol o‘ynaydi. Ob’ektiv jihatdan olganda, yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish sharoitida kooperatsiya qishloqda bozor munosabatlarini tiklash va xo‘jalik hayotini jonlantirish borasida muhim voqeа bo‘ldi. Biroq kooperatsiya aholini mustaqil, hech kimga bog‘liq bo‘lmagan ishlab chiqaruvchi sub’ektlar sifatida tashkil etgan taqdirdagina to‘la ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin edi. Afsuski, kommunistik rahbariyat kooperatsiya orqali qishloq ommasini sotsialistik qurilishga jalb etishga intilib, kooperativ harakatga bozor iqtisodiyotiga yot siyosiy tus berishga harakat qildi, kooperativ birlashmalarning iqtisodiy va ijtimoiy mustaqilligini cheklab qo‘ydi. Davlat va kolxoz-kooperativ formasidagi mulkchilik butunlay oliy davlat hokimiyatiga bo‘ysundirildi. Kolxozlarning davlat tomonidan boshqarilishi amalda sovxozlarning boshqarishdan xech qanday farq qilmasdi. Kolxozlar o‘z ishlab chiqarish fondlaridan erkin foydalanish huquqidan, bankdagi hisob raqamida saqlanayotgan pul mablag‘larini erkin sarflashdan mahrum etildi, o‘z ishlab chiqargan mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqidan cheklanib, mahsulotni davlatga suvtekinga (ya’ni majburan –O.N.) sotish asoratiga olindi. Ular o‘z moddiy-tehnik extiyojlarini ta’minlash, ishlab chiqarish tuzilmasini aniqlashda ham erkin emasdilar.

5. Kolxozlarning bosh belgisi bo‘lmish mehnat kuni bo‘yicha haq to‘lash ham vaqt o‘tishi bilan va mahsulot bilan haq to‘lash elementlarini mujassam etgan bo‘lib, mehnat natijalariga qarab amalga oshirdilar edi.

6. Mayjud sharoitlarda chinakam kollektiv munosabatlар shakllana olmasdi. Ishlab chiqarish munosabatlari o‘zaro ichki aloqalardan mahrum edi, ular faqat umumdavlat manfaatlariga yo‘naltirilgan edi, ko‘pi bilan umumdavlat miqqosida kollektivlikka javob bera olardi, xolos. Kollektivlikning bunday ko‘rinishi, demokratiya bilan mustahkamlanmagan, iqtisodiy manfaatlarni ko‘zlagan kuchli ichki o‘zaro aloqalardan mahrum bo‘lib, qishloqdagi iqtisodiyotning dinamik, haqqoniy taraqqiyotini ta’minlay olmas edi. U faqatgina aniq bir vaqt davomida

tashqi iqtisodiy kuchlar tomonidan, masalan, ommaning inqilobiy ishtiyoqi bilan qo'llab-quvvatlanib turardi, biroq tabiiy-tarixiy tomonidan qabul qilinmas edi.

Bularning xammasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining pasayishiga, buzilishlariga shart-sharoit yaratdi.

7. Kollektivlashtirish qishloq ahli tuzilmasida ham chuqur o'zgarishlarga olib keldi. So'ngi yillargacha ilmda kolxoz tuzimi g'alabasi qishloq xo'jaligida sotsialistik tuzumning o'rnatilishiga va mustahkamlanishiga olib keldi, degan xulosalar hukmron edi. Sovet davridagi adabiyotlar qishloqning o'zgarishi natijasida yangi sotsialistik sinf – kolxoz dehqonlari shakllangan, kolxozlar sotsializm sharoitida tug'ilgan konkret shakl bo'lib, o'z tarixiy taraqqiyotida kapitalistik davrni oshib o'tgan millatlarning ko'p qismi uchun yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va o'rnatilishiga olib keldi, degan xulosa qilingan.

8. Bugungi kunda ushbu talqinning xayoliy ekanini anglab etdik. Qishloq aholisining ijtimoiy tuzilmasi o'zgargan bo'lsa ham, sotsialistik evolyutsiya tomonga o'zgarmadi. Faqatgina feodal – kapitalistik eksplutatsiya namoyondalari almashdi, xolos. Agar oktyabr to'ntarilishidan oldin va undan keyingi dastlabki yillarda o'zbek qishlog'ida o'ziga to'qlar va quloqlar (nomunosib-O.N.) eksplutatorlar sifatida toptalgan bo'lsa, sotsialistik ishlab chiqarish munosabatlarining g'alaba qilishi bilan – davlat bosh esplutator bo'lib qoldi. Qishloq aholisining kolxoz dehqonlari va qishloq xo'jalik ishchilar (sovxozlardagi, MTSlardagi va boshqa davlat agrokxonalaridagi ishchilar) ga bo'linishi sun'iy xarakterda edi. Amalda dehqonlar etalizatsiyasi (davlatga bo'ysundirilishi) qaror topdi. Ya'ni dehqonlar favqulotda tadbirlar tizimi orqali kolxozlarga biriktirib qo'yildi.

9. "Buyuk burilish" dehqonlarga ma'naviy-ahloqiy tomondan ham salbiy ta'sir etdi. Yoppasiga kollektivlashtirish tufayli dehqonlarning asrlar davomida shakllangan turmush tarzi buzildi, dehqonlar ishlab chiqaruvchi kuch sifatida buzilib, ular o'zga shaxslar xohish-istikclarini bajaruvchi ishchi kuchiga aylantirildi, erdan begonalashdi, ishlab chiqarishning yakuniy natijalaridan manfaatdorligi pasaya boshladи. Qishloqdagi xo'jalik aloqalari tizimiga davlatning aralashuvi soxta sotsialistik munosabatlarning mustahkamlanishi dehqonlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Dehqonlar erga egalik qilish xissini, asrlar davomida hosil qilingan va mustahkamlangan mehnatsevarlik sifatlarini yo‘qota boshladilar, mehnatga va kasbiy mahoratga munosabatlar susaya bordi. Keng miqyosda olib borilgan dinga qarshi tashviqot ishlari, iqtisodiyot va madaniyatning mafkuralashuvi, totalitar tuzum qadriyatlarini aholi ongiga singdirish natijasida dehqonlar ham, barcha sovet kishilari kabi, umuminsoniy qadriyatlarga xurmatsizlik negizida tarbiyalandi. Qishloqdagi asriy urf-odat va an'analar qoralandi, xalqning tarixiy va madaniy xotirasi toptala boshlandi.

Shunday qilib, yoppasiga kollektivlashtirish ommaviy fojeaga aylandi. Kooperatsiya bobida ixtiyorilik chizig‘idan chiqish, dehqonlar uchun qulay bo‘lgan mehnat va haq to‘lashning oilaviy-shahsiy formalaridan voz kechish, ijara dan voz kechish umumiylara taraqqiyotning pasayishiga olib keldi. Mana, bugun biz o‘sha davrlarda muxim bo‘lgan mehnatni tashkil etish formalariga qaytmoqdamiz.

Yerda xo‘jalik yuritishning turli formalari yagona formaga birlashtirildi, qishloq xo‘jaligini boshqarish ma’muriy-buyruqbozlikka asoslandi, kolxoz va sovxozlarning xo‘jalik yuritishdagi mustaqilligi susytirildi, kolxozchilar va sovxoz ishchilari astasekin erdan va ishlab chiqarishning boshqa vositalaridan foydalanishga befarq qaraydigan yollanma ishchilarga aylana bordi. Oqibat natijada qishloq xo‘jaligi sohasida, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash borasida og‘ir vaziyat vujudga keldi. Ayniqla chorvachilik sohasi, ko‘rilgan tadbirlarga qaramasdan, 1916-yil ko‘rsatkichlariga erisha olmadi.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini faqat erdan foydalanish tizimini o‘zgartirish, xo‘jalik yuritish turlari va mulkchilik turlarining ko‘p sonliligini ta’minlash, qishloqda chinakam iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish yo‘li bilan yuksaltirish mumkinligini anglab etdik. Respublikaning butun agrar siyosatida erga egalik qilish haqidagi masala ayniqla muhim bo‘lib qolmoqda.

Shu bois, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining asosiy qismi – fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda tomorqa yer egalari faoliyatini chuqur tahlil qilish asosida ushbu sohada o‘z yechimini kutib turgan masalalarni bugungi kun nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish va hal qilish maqsadida O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2017-yil 9-oktyabrdagi PF-5199-son Farmoni qabul qilindi.¹¹³ Ushbu farmonda fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilishi qishloq xo‘jaligi va aholi turmush-tarziga doir kamchiliklarni to‘la to‘kis bartaraf etishga qaratilganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

¹¹³ 2017-yil 9-oktyabrdagi PF-5199-son Farmoni

ORTGA BIR NAZAR.

Men, 1961 yil 2 oktyabrdan Samarqand viloyati Qo'shrabod tumanidagi Urganji qishloq fuqarolar yig'inida joylashgan Bozorjoy qishlog'ida tug'ilganman. Dadam, Dadam Nazarov Raxim uzoq yillar xo'jalikda ishchi bo'lib ishlagan. Mehribon, samimiylar, kamtarin inson edilar. Halol inson edilar. U kishining "bolam, harom bizga yoqmaydi" degan o'gitlari ta'sirida katta bo'ldim. SHunga rioya qilib kelaman. Opam (onam), Nazarova Jibak oilam, bolam-chaqam deydigan, oila tutumini yaxshi biladigan ayol edi. Dadam vafot etganlarida (1978 yil) men, maktabda o'qiyotgan edim, akalarim balog'at yoshida edi, ukam va singim hali yosh edilar. Oilaning yolg'iz boquvchisidan ayrilganimizdan so'ng iolamizning to'ng'ich farzandi Umar akam bizga otalik va akalik vazifalarini o'z qo'liga olib Rahmatli onamn bilan birgalikda akam aka-ukalarimni uylantirib, uyli-joyli qildi va singlimni eldan kam qilmay uzatganlar.

Oilamizning barakasi onam edilar, onamni qo'ni-qo'shnilar doimo "chevar xotin" deb hurmat qilishar edilar. SHu tariqa ota-onamning duolari, bergen tarbiyalari sabab, 1982 yili Toshkent davlat universiteti tarix fakul'tetiga o'qishga kirdim. To'g'risi, o'quvchilik paytimda, tarix sohasi bo'yicha tasavvurga ega edim. Kafedrada Tarix yo'nalishida G. A. Xidoyatov, Z. I. Usmanova, I. Nizomiddinov, A. Soliyev, T. Salimov, O. Musayev, A. Sagdullayev, A. Kabirov kabi ustozlardan tarix fani sir-asrorlarini o'rgandim. Diplom ishim "Osiyo va Afrika xalqlarining milliy ozodlik xarakatining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusidagi ishimni professor A. O'tamurodov raxbarligida ximoya qildim. Keyinchalik, universitetni tugatgach, Guliston davlat universitetining Tarix kafedrasiga ish faoliyatimni yurita boshladim. Ilk faoliyatimda kafedra mudiri M. Adixonov, A. Nabiyev, T. Omonjulov(oxiratlari obod bo'lsin)lar bilan bilgalikda ishладим.

Keyinchalik men o'z ilmiy faoliyatimni O'zbekistonda amalga oshirilgan jamoalashtirish va uning ijtimoiy iqtisodiy oqibatlarini, jabr-sitamlarini bugungi kun nuqtai-nazardan talqin etishga qiziqishimning ortishi sabab, ustozim K. Eshchanovga o'z qiziqishlarimni bayon qildim va ilmiy raxbarlik roziliginini oldim. Tarix soxasining

yetuk bilimdoni K. Eshchanov ustozlik qildi. Komil Eshchanov madaniyatli, bilimli va mehribon inson edilar. Ustoz sifatida u kishi ideal edilar, desam to'g'ri bo'ladi. Har doim ustoz o'z maslahatlarini darig' tutmadilar. Xatto ustoz ilmiy ishimni tayyorlash jarayonida professor R. Aminova, professor I. Alimovlarning bu soha bo'yicha bergan tavsiyalari xamon yodimda turibdi. Ishni tayyorlash davrida 8 yil davomida Farg'ona vodiysidagi mavjud arxiv materiallari bilan tanishib chiqishga va mavzuga oid materillarni to'plashga ketgan vaqtimga xech achinmayman.

Himoyadan so'ng o'z faoliyatimni yana Guliston davlat universitetida davom etkazdim. 2004-2005 yillar universitetning tarix fakul'teti dekani, dekan o'rinosbasari va uzoq yillar Tarix kafedrasи mudiri lavozimida faoliyat yuritdim. Faoliyatim davrida men nafaqat jamoalashtirish davriga balki, Uyg'onish davri xamda tibbiyot soxasiga qiziqishim sabab, o'tgan vaqt davomida "O'rta Osiyo qomusiy mutafakkirlarining jaxon ilmi fani taraqqiyotiga qo'shgan xissasi", "Xorazm ma'mun akademiyasi tarixidan", "Tibbiyot ilmi tarixidan" kabi ko'plab risolalarini chop ettirdim.

Insonning yoshi ulg'aygan sayin bosib o'tilgan hayot yo'liga bir nazar solib turgani ma'qul ekan. Men ham 60 yoshni qoralabman. O'tgan umrimdan roziman. Ota-onamni qo'limdan kelgunicha rozi qilishga urindim. Umr yo'ldoshim, Dilbar bilan bir o'g'il, bir qizni tarbiyalab, uyli-joyli qilganmiz. O'g'lim Azizjon qurilish sohasini tanladi. Qizim Xurshida pedagok sifatida yosh avlodga saboq berib kelmoqda. Yaxshi insonlar bilan quda bo'lganman. Kuyovim, Ulug'bek o'z o'g'limdek, kelinim Madina o'z qizimdek. To'rt nafar nevaramiz bor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliv janob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
3. "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 9-oktyabrdagi PF-5199-sod Farmoni.
4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида.-Т.:Шарқ, 2000.-180-бет
5. Аминова Р.Х. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917-1920 гг.) – Т.: АН УзССР, 1963. – 247-ст.
6. Аминова Р.Х. Возвращаясь к истории колективизации в Узбекистане.- Т.: Фан, 1995. 8 ст.
7. Аминова Р.Х.Сплошная коллективизация сельского хозяйства Узбекистана (1930-1932гг.)-Т.:Узбекистан,1980.-56-ст.
8. Аминова Р.Х.Коллективизация в узбекистане:как это было?// коммунист узбекистана.1989.№9.84-ст.
9. Аверьев В.Н.О двух этапах раскулачивания народного хозяйства средней Азии.-Т.,1930.89-ст.
10. Азизов С.Сельское хозяйство за 15 лет (1925-1939)-Т.,1939.11-ст.
11. Аверьев В.Н.О двух этапах раскулачивания народного хозяйства средней Азии.-Т.,1930.89-ст.
12. Алимова Д.А.,Голованов А.А.Узбекистан мустабид совет тузуми даврида: сиёсий ва мафкуравий тайзик окибатлари.-Т.:Ўзбекистон,2000-50-б.
13. Голованов А.А.Инатов М.Н.Трагедия форсиранной коллективизации в Узбекистане.-Т.,1997г-100-ст.
14. Статический ежегодник 1917-1932 гг.Т.2.-Т.,1934. 50,54,56,58-ст.

15. Стенографический отчёт X съезда Советов Туркеспублики.-Ташкент, 1921. 25-ст.
16. Ўзбекистоннинг янги тарихи.2-китоб,-Т.:Шарқ,2000.-353 бет.
17. Жамолов О.Б. Социально-экономические предпосылки сплошной коллективизация сельского хозяйство в Узбекистане.-Т.:Госиздат УзССР,1950.-112-ст.
18. Коллективизация сельского хозяйство в республиках средней Азии и Казахстана: опыт и проблемы. Алма-Ата, Гылым,1990.85-ст.
19. Иткин А.социально-экономические предпосылки коллективизации хлопководства в средней Азии.-Т.:Госиздат УзССР,1932.200-ст.
20. Марьяхин Г.Л.Очерки истории с налогов с население в СССР.Госиздат,1964.-140-141-ст.
21. Ўзбекистон тарихи(1917-1991 йиллар) Т.:”Ўзбекистон”-2019. Б.513
22. Собрание Законов и распоряжений Рабоче-крестьянского правительства СССР.-1929.№14.Ст.117;№34.Ст.301.
23. Собрание Законов и распоряжений Рабоче-крестьянского правительства СССР.-1929.№14.Ст.117;№34.Ст.301.
24. Компартия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК.1-ч.1925-1937гг.-Т.:Узбекистан,1987.-522-ст.
25. Сайдалиев С.Осуществление кооперативного плана в Узбекистане.- Т.:Госиздат,1958.66-ст.
26. Ўзбекистоннинг янги тарихи.2-китоб,-Т.:Шарқ,2000.-355 бет.
27. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб.- 355 бет
28. Икромов А. Об итогах хлопкозаготовок// На аграрном фронте. 1933. № 6 111-112 ст.
29. Ризаев Г.социалистическое сельская хозяйство Узбекистана.- Т.:Узбекистан,1978.24-ст.
30. Росляков А.А.Средазбюро ЦК ВКП(б),-Ашхабад;1975 г,127-ст.
31. Ризаев Г.Сельское хозяйство Узбекистана за 40 лет.-Т.,Госиздат УзССР,1957.-53-ст.

Arxiv va matbuot materiallari


32. Ўзбекистон Республикаси Президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,20-варак.
33. Ўзбекистон Республикаси Президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,21-варак.
34. Ўзбекистон Республикаси Президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,20-варак.
35. Ўзбекистон Республикаси Президенти Девони архивининг Фарғона бўлими.Ф-109,оп-11.д-821,21-варак.
36. Ўзбекистон Республикаси Президенти Девони архивининг Фарғонабулими.Ф-109,оп-11.д-821,20-варак.
37. ЎзРМДА. Ф-90, рўйхат – 8, 823 – йигма жилд, 44-бет
38. ЎзРМДА. Ф-90, рўйхат – 8, 1716 – йигма жилд, 40-бет
39. ЎзРМДА. Ф-90, рўйхат – 8, 823 – йигма жилд, 44-бет
40. ЎзРМДА. Ф-90, рўйхат – 8, 1716 – йигма жилд, 40-бет
41. Тошкент ВДА. ФР-90, рўйхат – 8, 2 – йигма жилд, 18-бет
42. ЎзРМДА. Ф-90, рўйхат – 8, 219 – йигма жилд, 18-бет
43. ЎзРМДА. Ф-837, рўйхат – 9, 504 – йигма жилд, 93-бет
44. ЎзРМДА. Ф-837, рўйхат – 9, 613 – йигма жилд, 19-бет
45. ЎзРМДА. Ф-837, рўйхат – 9, 616 – йигма жилд, Б. 22.
46. Ўз РМДА,фонд-44, рўйхат 1, иш :124-варак
47. ЎзРМДА Ф-212,руйхат 1, 26 йигма жилд,6-варак.
48. ЎзРМДА Ф-212, рўйхат 1, 26 йигма жилд,6-варак.
49. ЎзРМДА Ф-212, рўйхат 1, 56 йигма жилд,189-варак.
50. ЎзРМДА Ф-212, рўйхат 1, 26 йигма жилд,7-варак.
51. «Фан ва турмуш».1992.2-сон.10-бет.
52. Правда Востока.1930.20 январь.
53. Правда Востока.1930.5 январь.
54. Узбекистанская правда.1930.24 апреля
55. ЎзРМДА Ф-212, рўйхат 1, 26 йигма жилд,6-варак.

56. ЎзРМДА Ф-212, рўйхат 1, 56 йигма жилд, 189-варақ.

57. ЎзРМДА Ф-212, рўйхат 1, 26 йифма жилд, 7-варақ.

Internet ma'lumotlari

- ❖ <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-qatagon-qurbanlari-haqida>
- ❖ <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-qatagon-qurbanlari-haqida>



Otam Nazarov Raxim



Onam Nazarova Jibak



Ustozim professor tarix fanlari doktori, Komil Eshchonov





Aka-ukalarim va qarindoshlarim



Oila a'zolarim



Safar akamni oila a'zolari



Kafedra a'zolari davrasida





Kursdoshlarim va hamkasblarim davrasida



Respublika anjumanida



Men tug‘ilgan qishloq (Bozorjoy)



Bolaligim o‘tgan qishloq (Urganji)

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| Kirish..... | 5 |
| I BOB. QISHLOQ XO‘JALIGINI OMMAVIY JAMOALASHTIRISH JARAYONI (SIYOSATI VA AMALIYOTI). | |
| 1.1. 20 – yillarning oxirlarida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining ahvoli..... | 9 |
| 1.2. Qishloq xo‘jaligini yoppasiga jamoalashtirish..... | 17 |
| 1.3. Qishloq xo‘jaligining moddiy texnikaviy ahvoli..... | 37 |
| II BOB. QISHLOQ XO‘JALIGINI JAMOALASHTIRISHNING SALBIY, IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLARI. | |
| 2.1. Qulqlashtirish siyosati va uning oqibatlari..... | 50 |
| 2.2. Paxtachilik sohasining ustun mavqega ko‘tarilishi, uning dehqonchilik va chorvachilikka ta’siri..... | 64 |
| 2.3. Qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy turmushi | 79 |
| Xulosa..... | 86 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati..... | 94 |
| Ilova..... | 98 |